Ommaviy ishlab chiqarishni boshlash 2024-yil avgust oyidan rejalashtirilgan. Shuningdek, ikkinchi bosqichda (2025-yildan) bichish, tikish, qistirma materiallari, to‘ldirish, pardozlash, kesish, birlashtirib tikish, qayirish, nuqtaviy payvandlash, CO2 payvandlash, silliqlash, yarim yig‘ish kabi jarayonlar mahalliylashtiriladi.

“DMC JIZZAKH” MChJ – avtomobillar eshiklari, oynalari, shiftlari, yukxonalari va dvigatel bo‘linmasi uchun rezina qistirmalari ishlab chiqarish tsexi bo‘lib, unda CMBni qorish va FMBni maromiga yetkazish, multishnekli ekstruziya, vulkanizatsiya, mayda yig‘ish kabi jarayonlar mahalliylashtirilgan. Korxona 2023-yilda tashkil etilgan bo‘lib, “Jizzax” EIZsidagi 0,35 gektar yer maydonida joylashgan.

Kompaniyaning asosiy hamkori DMC Inc. (Janubiy Koreya). Shuningdek, kompaniya GM Korea, GM Brasil, GM North America va UzAuto Motors kompaniyalari bilan yetkazib berish kelishuvini imzolagan.

“ADM STAMPING” MChJ – avtomobillar kuzovining shtamplangan panellarini ishlab chiqaruvchi korxonadir. Tsexta po‘lat listlarini kesish, avtomobillar kuzov qismlarini shtamplash va ularga shakl berish kabi jarayonlar mahalliylashtirilgan. Korxona 2024-yilning 17-yanvarida tashkil topgan bo‘lib, “Jizzax” EIZsidagi 4,7 gektar yer maydonida joylashgan, shundan 12 000 kv.m. – ishlab chiqarish maydonidir.

2025-yil uchun kutilayotgan ishchi xodimlar soni 74 nafarni tashkil etadi va ishlab chiqarish hajmining ortishida esa ishchi xodimlarning maksimal soni 150 kishiga yetkaziladi. Korxonaning quvvati yiliga 120 ming panel to‘plamlarini ishlab chiqarishga mo‘ljallangan.

Panellarni presslar o‘rtasidagi transferida Janubiy Koreyaning ABB kompaniyasining zamonaviy 6 o‘qli robotlari qo‘llaniladi. Bugungi kunda korxona Kia Corporation, Hyundai Steel, Posco Steel, Hanwoo Global va Hyundai Corporation bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan.

“ADM ELECTRICS” MChJ avtotransport vositalari uchun elektr jihozlari, magnitafonlar, signallar, antennalar va boshqa butlovchi qismlar ishlab chiqarilmoqda. Korxona 2023-yilda Andijon viloyatining Asaka tumanida tashkil etilgan bo‘lib, 2024-yilning 31-may kuni esa o‘z faoliyatini boshladi. ADM Electrics’ning joylashgan umumiy yer maydoni 3,2 gektarni tashkil etib, unda umumiy maydoni 4,5 ming kvadrat metrga teng bo‘lgan ishlab chiqarish binolari joylashgan.

2024-yil oxiriga kelib xodimlar soni qariyb 300 nafar kishini tashkil etdi, 2025-yilning oxiriga kelib esa shtat 1200 nafarga yetishi kutilmoqda.

Yillik mahsulotlar hajmi: 100 000 ta avtomobil uchun sim jgutlari, 50 000 dona – multimedia tizimlari, dvigatel havo filtri, avtomobil antennalari va oyna ko‘targichlari, shuningdek, isitish, shamollatish va havoni tozalash tizimlari.

Kyungshin Corporation, DOOWON Climate Control, KM Digitech, DH Autoware, INZI Controls, A&P Machinery, INFAC, BZW, EMDEP TestBoards, Aptiv, Sumitomo Wiring System, Jeongwoo Industry, Korea Electric Terminal, UJU Electronics, HellermannTyton, Molex, TE Connectivity, Taeyoung Tape’lar kompaniyaning hamkorlaridir.

Нугман Е.З., Абитаев Е., Смаилова Г.А
к.т.н., ассоциированный профессор
кафедры машиностроение
Satbayev University
г. Алматы, Республика Казакстан

“ОПТИМИЗАЦИЯ КАЧЕСТВА ТОЧЕЧНЫХ СВАРНЫХ СОЕДИНЕНИЙ КУЗОВНЫХ КОНСТРУКЦИЙ ИЗ НИЗКОУГЛЕРОДИСТОЙ СТАЛИ”.

Аннотация: В работе рассмотрены вопросы повышения качества точечных сварных соединений в кузовах автомобилей из низкоуглеродистой стали. Проанализировано влияние параметров режима сварки, состояния электродов и свойств материала на формирование сварного ядра и прочность соединений. Установлены оптимальные режимы сварки, обеспечивающие повышение прочности и долговечности соединений, а также снижение вероятности дефектов.

Ключевые слова: точечная сварка, кузов автомобиля, низкоуглеродистая сталь, сварное соединение, прочность, режим сварки, микроструктура, контроль качества.

Актуальность: Современное автомобилестроение предъявляет повышенные требования к надежности и безопасности кузовных конструкций. При этом одна машина может содержать тысячи сварных точек, каждая из которых влияет на общую прочность конструкции. Даже незначительные отклонения параметров сварки способны привести к дефектам и снижению ресурса. Поэтому задача повышения качества точечных сварных соединений остается крайне важной и требует комплексного подхода.

Цель исследования

Повышение качества и надежности точечных сварных соединений кузовных элементов из низкоуглеродистой стали путем оптимизации параметров сварочного процесса.

Задачи исследования

• проанализировать влияние параметров режима сварки на качество соединений;

• исследовать формирование сварного ядра и зоны термического влияния;

• определить основные дефекты и причины их возникновения;

• провести механические и металлографические испытания;

• разработать рекомендации по выбору оптимальных режимов сварки.

Основной текст

Контактная точечная сварка является основным способом соединения тонколистовых деталей кузова благодаря высокой производительности и

возможности автоматизации. Однако качество соединений существенно зависит от параметров процесса, таких как сварочный ток, время импульса и усилие прижатия электродов.

В ходе исследования установлено, что увеличение сварочного тока до определенного уровня способствует росту прочности соединения за счет увеличения диаметра сварного ядра. Однако при превышении оптимального значения возникают дефекты перегрева, включая выплеск металла и прожоги. Аналогично, время сварки оказывает двойственное влияние: недостаточное время приводит к непровару, а чрезмерное — к перегреву и ухудшению структуры.

Особую роль играет усилие прижатия электродов. При недостаточном давлении ухудшается контакт и образуются поры, а при избыточном — уменьшается тепловыделение, что препятствует формированию качественного ядра.

Металлографический анализ показал, что при оптимальных режимах формируется мелкозернистая структура сварного ядра, обеспечивающая высокую прочность. В зоне термического влияния при отклонениях от режима наблюдается укрупнение зерна и образование хрупких структур.

Экспериментально установлено, что оптимальные параметры сварки для листов толщиной 0,8–1,2 мм составляют: ток 9–10 кА, время 11–12 мс и усилие 2,5–3,0 кН. При этих условиях достигается максимальная прочность соединений и высокая устойчивость к циклическим нагрузкам.

Научная новизна

• установлены зависимости между параметрами сварки и прочностными характеристиками соединений;

• выявлено влияние режима сварки на микроструктуру сварного ядра и зоны термического влияния;

• обоснованы оптимальные параметры процесса для кузовных сталей;

• показана взаимосвязь структуры и долговечности сварных соединений.

Практическая значимость

• разработаны рекомендации по оптимизации режимов точечной сварки;

• обеспечено повышение прочности и надежности соединений;

• предложены параметры, снижающие вероятность дефектов;

• результаты могут быть внедрены на предприятиях автомобильной промышленности.

Заключение

Повышение качества точечных сварных соединений достигается за счет оптимизации параметров сварочного процесса и контроля микроструктуры соединения. Установленные режимы позволяют обеспечить высокую прочность, снизить уровень дефектов и повысить долговечность кузовных конструкций. Реализация предложенных решений способствует повышению надежности и безопасности автомобилей.

Список литературы (по ГОСТ):

1. Ефимов С.В. Сварка в автомобилестроении. – М.: Машиностроение, 2018. – 352 с.

2. Лебедев А.А., Козлов В.И. Контактная сварка: теория и практика. – СПб.: Питер, 2017. – 280 с.

3. Храмов В.Н. Контактная сварка. – М.: Академия, 2015. – 300 с.

4. Ковалёв Ю.А. Технология точечной сварки в автомобилестроении. – Екатеринбург: УрФУ, 2020. – 210 с.

5. Zhang H., Senkara J. Resistance Welding: Fundamentals and Applications. – CRC Press, 2011. – 420 p.

6. Kim C., Cho H. Analysis of Nugget Formation in Resistance Spot Welding // Welding Journal. – 2015. – Vol. 94. – P. 45–53.

7. Li M., Wang P., Zhao Y. Microstructural Investigation of Resistance Spot Welds in Low Carbon Steel // Materials Science Forum. – 2016. – Vol. 852. – P. 112–118.

8. Cho Y., Kim J. Numerical Modeling of Resistance Spot Welding Process // Journal of Manufacturing Science and Engineering. – 2017. – Vol. 139. – P. 021010.

9. ГОСТ 15878-2019. Соединения сварные. Методы контроля качества. – М.: Стандартинформ, 2019.

10. ГОСТ 14782–86. Соединения сварные. Методы механических испытаний. – М.: Изд-во стандартов, 1986.

11. ISO 14327:2016. Resistance welding – Procedure for spot welding. – ISO, 2016.

12. Васильев П.Г., Никитин С.П. Автоматизация процессов контактной сварки. – Самара: СГАУ, 2019. – 198 с.

I-SHO‘BA: HAMKOR KORXONALARDAGI FAN, TA’LIM, ISHLAB CHIQARISH VA KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINI JORIY ETISH MUOMMOLARI VA YECHIMLARI.

TRANSPORT SOHASINING RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI (XX-ASRNING IKKINCHI YARMIDA TOSHKENT VILOYATI MISOLIDA)

Saidusmanov Baxrom Abduganievich
v.b.dotsent t.f.f.d.(PhD)
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq, O'zbekiston.

Avtomobil transporti xalq xo'jaligining murakkab tarmog'i bo'lib, mehnat unumdorligi va avtomobil xo'jaliklarining rentabel ishlashiga juda ko'p faktorlar ta'sir ko'rsatgan. Avtomobil qatnovidan, prisep va priseplardan keng ko'lamda, avtomashinalarning yuk ko'tarish quvvatidan to'g'ri foydalanish, moddiy vositalarni tejab ishlatish, avtomashinalarning joriy ta'miri sifati, mashinalarning liniyalarida ishlash muddati, mehnat va ish haqining to'g'ri tashkil qilish avtomobil transportida mehnat unumdorligiga bevosita ta'sir ko'rsatdi. 1960-1980 yillarda umum foydalanadigan avtomobil transporti korxonalari butun avtomobil transportida oldingi o'rinlarni mustahkamlab oldi. Bu korxonalari harakatidagi tarkiblardan unumli foydalanish maqsadida ilg'or usullarni joriy etib, yuk va yo'lovchilar tashish jarayoni oqilona tashkil qilingan yirik korxonalarga aylandi.

Avtobuslarda yo'lovchilar tashish ham yildan yilga o'sdi. Bunda respublikada avtobus marshrutkalarining ko'payishi va avtobus qatnaydigan yo'llar uzayishi asosiy sabablardan biri bo'ldi. Agar 1953 yilda respublikada hammasi 325 avtobus, 126 avtobus marshruti va uning uzunligi 3044 kilometr bo'lib, 42,6 million yo'lovchi tashilgan bo'lsa, 1965 yilga kelib avtobuslarningsoni 32564 kilometr, tashilgan yo'lovchilar soni 629,7 million kishini tashkil qildi, shundan 163,4 million yo'lovchi shaharlararo avtobuslarda tashildi. Shu yillarda engil taksi va yuk mashinalariko'paydi. Yo'lovchilar tashish oshdi. 1965 yilda engil taksi mashinalarining umumiy yo'l bosishi 188,5 million kilometrni, shunday pulli yo'l bosishi 154,5 million kilometrni tashkil etdi. [1]

Bu yillarda avtomobil transportida yo'lovchilar tashish ham to'xtovsiz oshib bordi.1979 yilda yo'lovchilar oboroti 1960 yilga nisbatan 6,2 marta oshib, 1 pasajirning o'rtacha yo'l bosishi shaarlar ichida 5,6 km ni va shaharlararo -41,2 km ni tashkil etdi. 1968 yilning 1 dekabrida yo'lovchi tashaiga ixtisoslashtirilgan Toshkent viloyat avtotresti tashkil etilganida, uning tarkibida 10 ta avtobus taksomotor saroyi va xo'jalik hisbidagi "Toshkent" avtovokzali bor edi, jami 10 avtobus, 112 ta engil taksimotorlar viloyat yo'lovchilari xizmatiga jalb qilingan edi. Yangi trestga katta ishlab chiqarish tajribasiga ega mutaxssislar V.A.Podkovirin, V.P. Skvorsov rahbar qilib tayinlandi. Bo'ka, Yangibozor, Oqqo'rg'on, Yangiyo'l, To'ytepa, Bo'stonlik, Keles va Angren avtosaroylarida ishlab chiqarish korpuslari qurilib, texnika jihozlari bilan ta'minlandi, avtobus va engil avtomobillarni yuvish, agregatlarni ta'miralsh va diagnostika postlari ishga tushirildi, atrof muhitni muxofaza qilish choralari ko'rildi.[2]

1970 yil oxiriga kelib avtotrest xo'jaliklarida jami avtobuslar soni 1250 ta, engil taksomotorlar soni esa 235 taga etkazildi, va yakunlari bo'yicha 174,3 million yo'lovchi tashailib 23 mln. so'mdan ziyod daromad olindi. Jami 256 ta yo'nalishda avtobuslar uzluksiz harakat qildilar. Bulardan tashqari 115 ta

shaharlarda, 158 tasi shahar atrofi va 68 tasi shaharlararo yo‘nalishlarda xizmat ko‘rsatdilar. [3]

70-yillarda avtoboshbekat va avtoshohbekatlarlar qurish avj oldirilib To‘ytepa avtobus taqsimotlar saroyi tashkil topdi. 2200 ta yo‘lovchiga xizmat ko‘rsatishga mo‘ljallangan va O‘rta Osiyoda eng yirik “Toshkent” avtoboshbekati qurib bitkazildi va poytaxtnining go‘zal binolaridan biriga aylandi. Bu bekat Respublikaning barcha viloyatlari markazlari, qo‘shni respublikalar poytaxtlari va yirik shaharlariga har kuni 45 ta yo‘nalish bo‘yicha 225 ta avtobus jo‘natib turdi. Uning perronlarida 52 ta yo‘lovchi jo‘natish maydonchalari joylashtirildi. Toshkent viloyati bo‘yicha 96 ta yangi yo‘nalishlar tashkil etildi.[4]

Shu jumladan 12 ta yangi yo‘nalish ochilib, aholi yashash manzillari yirik ishlab chiqarish korxonalari bilan bog‘landi. Chirchiqda “Korpolaktam” va “Elektroximprom” bilan, Bekobodda “UMZ”bilan, Angren va Yangiobozor korxonalari bilan, Olmaliqda “Tog‘ metallurgiya kombinati” va “Ximprom zavodi” bilantransport qatnovi yo‘lga qo‘yildi. Shahar atrofi yo‘nalishlari “Toshkent -Chirchiq”, “Toshkent-Yangi yo‘l”, “Toshkent-To‘ytepa” oralig‘ida avtobus qatnay boshladi. Vengriyada ishlab chiqarilgan “Ikarus” rusumli avtobuslar harakat tarkibiga kelib qo‘shildi. To‘ytepa, Angren, Pskent, Oqqo‘rg‘on va Yangibozor avtobosh va avtoshohbekatlari qurilib ishga tushirildi.

Prezidentimiz tomonidan 2021 yilning 9 avgust kuni “Transport to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunning imzolanishi bilan avtomobil, havo, temir yo‘l, suv va shahar yo‘lovchi transporti faoliyati va hamkorligining huquqiy, iqtisodiy hamda tashkiliy asoslari va tamoyillari belgilab berildi.

Shu nuqtai nazardan, mazkur qonun mamlakatimiz transport tizimining holati va rivojlanishi uchun juda muhim ahamiyat kasb etib, uning boshqa infratuzilma tarmoqlari bilan birga jamiyat faoliyati uchun asosiy sharoitlarni ta'minlashi, ijtimoiy-iqtisodiy va tashqi siyosat maqsadlariga erishishda muhim element sifatida xizmat qilishi shubhasizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Убайдуллаев И, Абороров З, Заҳриддинов Г. Ўзбекистон транспорти . Ўзбекистон ССР “Билим” жамияти. 1968. -Б.13.

2. Хазраткулов А. Решение социалних вопросов в Узбекистане. – Ташкент, 1991. – С. 24.

3. Xodjaev B.A. Avtomobil transporti iqtisodi. Darslik.-T.: O‘qituvchi. 1982. –B.21.

4. Хайдаров М. Комментарий к некоторим первоисточникам по истории Узбекистана **//** Тарихнинг номаълум саҳифалари. Илмий мақолалар. Ҳужжат ва материаллар. Хотиралар. Тўртинчи китоб. Тошкент: Ғофур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2013. –Б. 218-233.

MEXANIKA MUHANDISLIGI TA'LIM DASTURLARINI ISLOH QILISHDA TIZIMLI BENCHMARKING YONDASHUVI

Y.A.Meliboyev
I.Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent shahri, 100095,Universitet ko'chasi, 2-uy.

Hozirgi kunda muhandislik ta'lim tizimi doimiy ravishda rivojlanib, zamonaviy sanoat talablariga moslashib bormoqda. Ayniqsa, mexanika muhandisligi yo'nalishida o'quv dasturlarini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. An'anaviy tarzda o'quv dasturlariga kiritiladigan o'zgarishlar ko'pincha kichik ko'lamda amalga oshiriladi, ya'ni alohida fanlarni qo'shish yoki ayrim kurslarni yangilash bilan cheklanadi. Biroq bunday yondashuv uzoq muddatda tizimli muammolarga, jumladan, o'quv yuklamasining ortib ketishi yoki muhim yo'nalishlarning yetarli darajada qamrab olinmasligiga olib kelishi mumkin. Shu sababli o'quv dasturlarini kompleks tarzda, ya'ni butun tizim sifatida tahlil qilish zarurati yuzaga keladi. Mazkur muammo yechimi sifatida benchmarking — ya'ni boshqa yetakchi universitetlarning o'quv dasturlari bilan taqqoslash usuli taklif etiladi. Benchmarking usuli oliy ta'lim dasturlarini takomillashtirishda samarali vosita bo'lib, u turli universitetlar o'quv rejalari o'rtasidagi farqlarni tizimli ravishda aniqlash, kuchli va zaif tomonlarni baholash hamda o'quv yuklamasi va fanlar taqsimotini optimallashtirish imkonini beradi. Mualliflarning fikricha, ayniqsa muhandislik ta'limida kreditlar taqsimotining muvozanati va dastur moslashuvchanligini oshirish benchmarking orqali asosli ravishda shakllantiriladi [1]. So'nggi yillarda muhandislik ta'limida bir qator muhim tendensiyalar kuzatilmoqda. Jumladan, nazariy bilimlardan tashqari amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish, loyiha asosida o'qitish (design/build/test), hamda o'quv dasturlarining moslashuvchanligini oshirish asosiy yo'nalishlarga aylangan. Bu esa o'quv dasturlarini qayta ko'rib chiqish va ularni zamonaviy talablar asosida shakllantirish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Mexanika muhandisligi yo'nalishidagi o'quv dasturlarini tahlil qilish uchun benchmarking (taqqoslash) usuli asosiy metod sifatida olinib, turli universitetlarning o'quv rejalari o'zaro solishtirilib, ularning tuzilishi, yuklama taqsimoti hamda moslashuvchanlik darajasi baholanadi. Tanlov doirasida yuqori reytingga egaligi, mexanika muhandisligi dasturlarining rivojlanganligi inobatga olinib universitetlar tanlanadi. Tanlangan universitetlar tarkibida davlat va xususiy oliy ta'lim muassasalari bo'lishi natijalarning muvozanatli bo'lishini ta'minlaydi.

Tahlil uchun har bir universitetning o'quv rejasidagi fanlar uchta asosiy toifaga ajratildi [2]:

1. matematika va tabiiy fanlar (Math & Science);
2. muhandislik fanlari (Engineering);
3. umumiy va ijtimoiy fanlar (Other).

Mazkur klassifikatsiya xalqaro ta'lim standartlariga mos ravishda tanlanib, o'quv dasturlarini umumiy darajada solishtirish, kreditlar asosida baholash o'quv yuklamasini miqdoriy jihatdan aniqlash va turli dasturlarni obyektiv taqqoslash imkonini beradi. Shu bilan birga, ayrim universitetlarda kredit tizimlari turlicha

bo‘lgani sababli, ularni yagona standartga keltirish uchun moslashtirish koeffitsiyentlari qo‘llash maqsadga muofiq bo‘ladi.

Taqqoslashning muhim bosqichlaridan biri — o‘xshash kurslarni aniqlash va ularni moslashtirish jarayoni hisoblanadi. Bu jarayonda kurs nomlari bilan bir qatorda ularning tavsifi ham chuqur taxlil qilinadi. Ba’zi fanlar turli universitetlarda turlicha nomlanishi yoki turli mazmunni qamrab olishi sababli, ularni moslashtirishda ekspert bahosi qo‘llanildi. Barcha universitetlarda umumiy kreditlar soni deyarli bir xil bo‘lib, o‘rtacha 128 kreditni tashkil etadi. Shuningdek, matematika va tabiiy fanlarga ajratilgan kreditlar ham o‘xshash bo‘lib, 30–36 kredit oralig‘ida joylashgan. Biroq muhandislik fanlari bo‘yicha sezilarli farqlarni kuzatish mumkin. Ayrim universitetlarda muhandislik fanlariga katta ulush ajratilgan bo‘lsa, boshqalarida umumiy va erkin tanlov fanlariga ko‘proq e’tibor berilgan. Bu esa o‘quv dasturlarining moslashuvchanlik darajasiga bevosita ta’sir qiladi. Turli universitetlarda umumiy kreditlar hajmi deyarli bir xil bo‘lishiga qaramay, ularning ichki tuzilmasi, fanlar taqsimoti va o‘quv yuklamasi sezilarli darajada farq qiladi. Ayniqsa, muhandislik fanlariga ajratilgan kreditlar ulushi va umumiy (gumanitar hamda erkin tanlov) fanlar o‘rtasidagi nisbat o‘quv dasturining moslashuvchanligini belgilovchi asosiy omil sifatida namoyon bo‘ldi. Ortiqcha majburiy fanlar mavjud bo‘lgan dasturlar kam moslashuvchan bo‘lib, talabalarning individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirish imkoniyatlarini cheklaydi[2].

Benchmarking natijalari asosida quyidagi muhim ilmiy-amaliy xulosalarga kelindi:

- o‘quv dasturlarini loyihalashda kreditlar taqsimotining muvozanati ta’minlanishi zarur;
- majburiy fanlar ulushini optimallashtirish orqali moslashuvchanlikni oshirish mumkin;
- muhim fan yo‘nalishlari o‘rtasida proporsional rivojlanish ta’minlanishi lozim;
- benchmarking usuli dastlabki tahlil bosqichida eng samarali qaror qabul qilish vositalaridan biri hisoblanadi.

Mazkur yondashuv nafaqat mavjud o‘quv dasturlaridagi kamchiliklarni aniqlash, balki ularni zamonaviy sanoat va ta’lim talablari asosida qayta shakllantirish imkonini ham beradi. Shu jihatdan, benchmarking mexanika muhandisligi ta’limini modernizatsiya qilishda strategik ahamiyatga ega metod sifatida baholanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nguyen, A. T., & Nguyen, N. V. P. (2018). Benchmarking industrial engineering programs. Benchmarking: An International Journal, 25(4), 1194-1212.

2. Whitefoot, J., & Bedillion, M. D. (2020, June). Using benchmarking methods to inform curriculum changes in mechanical engineering programs. In *2020 ASEE Virtual Annual Conference Content Access*.


OPTIMALLASHTIRISHGA ERISHISH UCHUN QUDUQLARNI BURG‘ULASH JARAYONINI AVTOMATLASHTIRISH

Odilov Fuzayl Fozil o‘g‘li,
Toshkent davlat texnika universiteti, tayanch doktorant

Burg‘ulash jarayonlarini boshqarish va texnologik parametrlarni optimallashtirish uchun avtomatlashtirilgan tizimlar o‘nlab yillar davomida ishlab chiqilmoqda. Bunday tizimlar burg‘ulovchining ishini soddalashtiradi, favqulodda vaziyatlar sonini kamaytiradi va burg‘ulash instrumentining ishlashini oqilona qiladi [3]. Quduqlarni qurish paytida texnologik parametrlarni optimallashtirish elektr energiyasi iste'moli xarajatlarini, avariyalar tufayli ishlamay qolish vaqtini va ularni bartaraf etish bilan bog‘liq xarajatlarni kamaytiradi.

Burg‘ulash qurilmasini boshqarish bilan bog‘liq muammolarni hal qilishda, ko‘pincha mavhum eksperimentlar qo‘llaniladi. Bu, haqiqiy sharoitlarning matematik modellashtirish orqali to‘liq mos kelishini ta'minlashga qaratilgan [1, 2]. Ushbu jarayon uchun, burg‘ulash uskunasi boshqaruv operatsiyasining matematik modeli ishlab chiqiladi, bu esa uning tuzilishi va xususiyatlarini miqdoriy jihatdan ifodalaydi.

Zamonaviy burg‘ulash qurilmalari jarayon tizimi tomonidan boshqariladigan tuzilishga ega (1-rasm, a).



SUEP-burg‘ulash qurilmasining elektr ta’minotlarini boshqarish tizimi; OU - "tog‘ qatlamini burg‘ulovchi instrument" boshqaruv obyekti; SKPB-burg‘ulash parametrlarini boshqarish tizimi; AR-o‘z-o‘zini tashkil etuvchi tuzilishga ega bo‘lgan o‘z-o‘zini o‘rganish yoki qidiruv adaptiv regulyatorlari

Ushbu tizimlar burg‘ulovchiga burg‘ulash jarayonining boshqariladigan parametrlari bo‘yicha faqat real vaqt rejimida ma'lumotlarni taqdim etadi, uni tahlil qilmasdan yoki quduq qurish uchun optimal parametrlarni taqdim etmasdan. Geofizik xizmatlar ham tahlil qilish uchun boshqaruv tizimidan ma'lumotlarni oladi, ammo ularning usullari inertsionaldir, chunki olingan natijalar faqat ushbu sohadagi keyingi quduqlar uchun geologik va texnologik buyurtmalarni tayyorlash uchun qo‘llaniladi. Natijada, burg‘ulash jarayonini boshqaradigan burg‘ulash uskunalari ko‘pincha faqat o‘z tajribasiga tayanadi[4].

Samaradorlikni baholash mezonlari, boshqaruv operatsiyasining maqsadiga, mohiyatiga va bajarilish sharoitlariga mos ravishda tanlanadi. Bu mezonlar, bir tomondan, hisoblash va tahlil qilish uchun qulay darajada sodda bo‘lishi lozim, ikkinchi tomondan esa, optimallashtirilgan qiymatlarga (nazorat ostidagi o‘zgaruvchilarga) sezgir va muhim ta'sir ko‘rsatishi kerak.

Boshqaruv muammolarini hal qilishda ko‘pincha bitta emas, balki bir nechta samaradorlik ko‘rsatkichlarini hisobga olish kerak bo‘ladi. Bu boshqaruv vazifalarining tabiiy ravishda ko‘p maqsadli tabiati bilan bog‘liq[1].

Burg‘ulashni boshqarish uchun optimallashtirish mezonini tanlashdagi qiyinchilik burg‘ulash operatsiyasi paytida uni hisoblashning murakkabligidan kelib chiqadi, bu esa standart boshqaruv panellaridagi sensorlardan burg‘ulash uskunalari operatoriga uzatiladigan ma'lumotlarning yetarli emasligi bilan yanada kuchayadi.

Burg‘ulash jarayonida kuzatiladigan parametrlarga dolotoning kirish tezligi va chuqurligi kiradi. Aksincha, energiya sarfi va uzatish va aylanish mexanizmlarining quvvati kabi texnik ko‘rsatkichlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri kuzatilmaydi, lekin ularni osongina hisoblash mumkin.

Ushbu tavsiya etilgan optimallashtirish mezonlari burg‘ulash rejimida ishlaydigan rolikli burg‘ulash uskunalari uchun boshqaruv algoritmlarini ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Макаров И.Г. Автоматизация процесса бурения с целью его оптимизации // Известия Уральского гос. горного ун-та. 2003. № 16. С. 140–144.

2. Цуприков А.А. Технологии оптимального управления процессом бурения // Моделирование развития информационно-телекоммуникационных систем. СПб.: Синтез Бук, 2009. С. 78–112.

3. Бражников В.А., Фурнэ А.А. Информационное обеспечение оптимального управления бурением скважин. М.: Недра, 1989. 206 с.

4. Анохин А.В., Каплина Т.Ю., Васильев В.Б. Принципы регулирования и управления режимами бурения // Машиноведение. 2015. № 2(2). С. 198.

НОВАЯ ЭНЕРГОСБЕРЕГАЮЩАЯ И ЭФФЕКТИВНАЯ ТЕХНОЛОГИЯ СУШКИ КОКОНОВ ШЕЛКОПРЯДА

Prof. Fu Yaqin, Zhejiang Sci-Tech University (China)
доц. Д.И.Самандаров, ТашГТУ (Узбекистан)

Китай является исторической родиной шелководства: первые свидетельства использования шёлка для производства текстильных материалов датируются периодом около 5000 лет назад. Шелковая промышленность Китая занимает стратегически важное положение и оказывает значительное влияние на мировую текстильную индустрию. Морские и сухопутные Шёлковые пути, связывавшие Восток и Запад, сыграли решающую роль в экономическом развитии древнего Китая, распространении его культурного наследия и обеспечили значительные материальные ресурсы для последующих династий [1].

На современном этапе китайская шелковая промышленность является доминирующей отраслью на международном рынке и обладает значительным потенциалом для дальнейшего роста. Коконы шелкопряда служат исходным сырьём для получения шёлка, в связи с чем их сушка представляет собой критически важный и неотъемлемый этап технологического процесса шелководства.

Процесс сушки материала (в технической литературе часто обозначаемый термином «печная сушка») основан на подводе тепловой энергии для удаления влаги из обрабатываемого продукта. Показатели энергопотребления и качества конечного продукта непосредственно отражают уровень применяемых технологий и конструктивные особенности используемого оборудования.

В Китае сохраняется устойчиво низкая эффективность использования энергоресурсов, что сопровождается значительными энергетическими потерями. При этом доля сушильной промышленности в общем энергопотреблении страны достигает приблизительно 12%.

На современном этапе технологии и оборудование для сушки коконов шелкопряда, широко применяемые в Китае, характеризуются относительной примитивностью и моральным устареванием. Подавляющее большинство сушильных установок использует воздух в качестве рабочей сушильной среды, что обусловливает низкую эффективность теплообмена и может инициировать процессы окисления в обрабатываемом материале.

Живая куколка шелкопряда располагается внутри кокона, отличается значительными размерами и высоким содержанием влаги, которое может достигать приблизительно 74%. Поверхность коконов покрыта слоем воска, что существенно удлиняет продолжительность процесса сушки, снижает его скорость и увеличивает энергетические и трудовые затраты. Вследствие технологического несовершенства наблюдаются чрезмерные выбросы отработанных газов, образующихся в процессе сушки, что ведёт к загрязнению окружающей среды и негативно сказывается на условиях жизнедеятельности населения. В последние годы, несмотря на

модернизацию технологий и оборудования на некоторых предприятиях, эффективность сушки остаётся низкой, энергопотребление – высоким, а гарантировать стабильное качество сушки не представляется возможным. Указанные обстоятельства обусловливают систематически высокие производственные издержки. В процессе термической обработки окисление под воздействием атмосферного воздуха влияет на цвет и блеск шёлковых коконов, вследствие чего часть удовлетворительно высушенных коконов не соответствует действующим нормативам качества и отбраковывается на этапе строгой приёмочной экспертизы.

Характеристики и преимущества новой технологии сушки коконов шелкопряда. Разработанная технология сушки коконов шелкопряда основывается на уникальном физическом принципе и инновационной конструктивной схеме оборудования. Технология демонстрирует комплекс преимуществ, включая энергоэффективность, экологическую безопасность, повышение производительности процесса и обеспечение стабильного качества конечного продукта. Ключевой особенностью является существенное повышение эффективности теплопередачи, а также возможность аккумуляции и рециркуляции тепловой энергии в процессе сушки. Достигаемый уровень энергосбережения составляет не менее 40%. Эффективность собственно процесса сушки повышается более чем на 35%. Эмиссия вредных веществ, образующихся в ходе термической обработки, значительно ниже по сравнению с предшествующими технологическими решениями. Вследствие применения специальной сушильной среды отсутствует негативное воздействие на коконы в процессе обработки, а также исключён риск механического повреждения (разрыва) куколок. По завершении сушки коконы шелкопряда соответствуют китайским национальным стандартам качества по таким показателям, как разматываемость нити, прочность на разрыв, а также цвет и блеск.

Представленная запатентованная технология не ограничивается сушкой коконов шелкопряда. Её уникальный принцип может быть распространён на термическую обработку широкого спектра продуктов, включая сельскохозяйственную продукцию, пищевые продукты, древесину, а также фармацевтические и химические товары.

Перспективы применения технологии. С точки зрения технологического развития рассматриваемая запатентованная технология обладает значительными конкурентными преимуществами. Энергосбережение и охрана окружающей среды являются приоритетными направлениями научно-технической политики как в Китае, так и в мировом масштабе. В связи с этим исследование и практическое внедрение данной запатентованной технологии представляет высокую значимость для шелковой промышленности. Ожидается, что её применение будет играть позитивную направляющую роль в области энергосбережения и экологической безопасности. Предполагается, что внедрение данной технологии принесёт Китаю значительный социальный и экономический эффект [2].

Литература

1. Khan H. et al. The Legacy Of The Silk Road And China's Role In Ancient And Modern Trade Routes. Migration Letters. 2024, 21(8). pp. 922–933.

2. Safarov J., Sultanova Sh., Fu Yaqin, Usenov A., Samandarov D., Dushanova D. Selection of optimal parameters for primary processing of mulle cocoons by a combined (IR + US) method. The American Journal of Engineering and Technology. Vol. 8/2026. pp. 111-117.

AVTOMOBIL SANOATIDA KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINI ISHLAB CHIQARISH BILAN INTEGRATSIYALASH

Asadov Elyor Kandiyorovich
"UZAVTO-INZI" MChJ, Bosh direktor, Toshkent

Zamonaviy avtomobil sanoati yuqori texnologiyalarga asoslangan, tez rivojlanayotgan va raqobat kuchli bo‘lgan tarmoqlardan biri hisoblanadi. Ushbu sohada ishlab chiqarish jarayonlarining murakkablashuvi, raqamlashtirish va avtomatlashtirishning keng joriy etilishi malakali mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyojni keskin oshirmoqda. Shu sababli kadrlar tayyorlash tizimini ishlab chiqarish bilan uzviy bog‘lash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. An'anaviy ta'lim tizimida nazariy bilimlarga ko‘proq e'tibor qaratilib, amaliy ko‘nikmalar yetarli darajada shakllantirilmaydi. Natijada bitiruvchilar ishlab chiqarish jarayoniga moslashishda qiyinchiliklarga duch keladi. Bu esa korxonalar uchun qo‘shimcha xarajatlar va vaqt yo‘qotilishiga olib keladi [1]. Shu nuqtai nazardan, ta'lim tizimi va ishlab chiqarish o‘rtasida samarali integratsiyani yo‘lga qo‘yish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.



1-rasm. Dual ta'lim tizimi

Avtomobil sanoatida faoliyat yurituvchi mutaxassis quyidagi kompetensiyalarga ega bo‘lishi zarur: texnik bilimlar va muhandislik tafakkuri, zamonaviy texnologiyalarni bilish (CNC, CAD/CAE), amaliy ko‘nikmalar, muammolarni tez hal qilish qobiliyati. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, faqat nazariy bilimlar yetarli emas, balki amaliy tajriba ham muhim ahamiyatga ega [2].

Integratsiya - bu ta’lim jarayonini ishlab chiqarish ehtiyojlariga moslashtirish va ularni yagona tizim sifatida rivojlantirishdir. Bunda quyidagi yondashuvlar qo‘llaniladi:

- dual ta’lim tizimi;
- ishlab chiqarish amaliyotlari;
- korxonalar bilan hamkorlik;
- amaliy loyihalar asosida o‘qitish.

Bu yondashuvlar talabalarga real ishlab chiqarish muhitida tajriba orttirish imkonini beradi [3].

Dual ta’lim tizimi nazariya va amaliyotni birlashtiradi. Talabalar o‘qish jarayonida: ta’lim muassasasida nazariy bilim oladi, korxonada amaliy tajriba orttiradi. Bu tizim kadrlarning ishlab chiqarishga tez moslashishini ta’minlaydi va ularning raqobatbardoshligini oshiradi [4]. Ta’lim muassasalari va sanoat korxonalari o‘rtasidagi hamkorlik quyidagi shakllarda amalga oshiriladi: qo‘shma o‘quv dasturlari, amaliyot va stajirovkalar, mutaxassislarni ishlab chiqarishga jalb qilish, ilmiy-tadqiqot loyihalari. Bu hamkorlik kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga xizmat qiladi [5].

Avtomobil sanoatida qo‘llaniladigan zamonaviy texnologiyalarni o‘qitish muhim ahamiyatga ega. Jumladan; CNC dastgohlar, CAD/CAE tizimlari, robototexnika, simulyatsiya texnologiyalari. Ushbu texnologiyalarni o‘quv jarayoniga joriy etish talabalarning amaliy tayyorgarligini oshiradi [2]. Ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi quyidagi natijalarga olib keladi:

- bitiruvchilarning ishga joylashish darajasi oshadi;
- korxonalar uchun malakali kadrlar yetishib chiqadi;
- ishlab chiqarish samaradorligi ortadi;
- innovatsion faoliyat rivojlanadi [3].

Integratsiya jarayonida quyidagi muammolar uchraydi: ta’lim dasturlarining eskirganligi, ishlab chiqarish bilan yetarli hamkorlik yo‘qligi, moddiy-texnik bazaning yetishmasligi. Ularni hal etish uchun: o‘quv dasturlarini yangilash, sanoat bilan hamkorlikni kuchaytirish, zamonaviy laboratoriyalar tashkil etish zarur [6].

Avtomobil sanoatida kadrlar tayyorlash tizimini ishlab chiqarish bilan integratsiyalash zamonaviy ta’lim tizimining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, nazariya va amaliyotni uyg‘unlashtirish orqali yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash mumkin. Integratsiya quyidagi natijalarni beradi: ta’lim sifati oshadi, ishlab chiqarish samaradorligi ortadi, innovatsion rivojlanish ta’minlanadi. Kelgusida ushbu yo‘nalishda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektdan foydalanish kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gillespie T. D. Fundamentals of vehicle dynamics //SAE International. –

1992. – P. 120–145.
2. Limpert R. Brake design and safety //SAE International. – 2011. – P. 85–110.
3. Wong J. Y. Theory of ground vehicles //Wiley. – 2008. – P. 250–290.
4. Bosch Automotive Handbook //Wiley. – 2018. – P. 600–650.
5. Heisler H. Advanced vehicle technology //Butterworth-Heinemann. – 2002. – P. 300–340.
6. Kerr C. J. PDC drill bit design and field application evolution //Journal of petroleum technology. – 1988. – T. 40. – №. 03. – C. 327-332.

NEFT VA GAZ QURILMALARINI LOYIHALASHDA ZAMONAVIY CAD/CAE TIZIMLARIDAN FOYDALANISH

Xudayarov Alisher Shonazarovich
“UZAVTO-INZI” MChJ, Bosh direktorning ishlab chiqarish bo‘yicha o‘rinbosari, Toshkent

Neft va gaz sanoati zamonaviy texnologiyalarni keng qo‘llashni talab qiladigan eng murakkab va strategik sohalardan biri hisoblanadi. Ushbu sohada qo‘llaniladigan qurilmalar yuqori bosim, yuqori temperatura va agressiv muhitlarda ishlaydi. Shu sababli ularni loyihalash jarayonida aniqlik, ishonchlilik va xavfsizlik darajasi juda yuqori bo‘lishi talab etiladi. An’anaviy loyihalash usullari ko‘p vaqt va resurs talab qilganligi sababli, bugungi kunda zamonaviy kompyuter texnologiyalari - CAD (Computer-Aided Design) va CAE (Computer-Aided Engineering) tizimlari keng qo‘llanilmoqda. Ushbu tizimlar yordamida murakkab qurilmalarni tez va aniq loyihalash, ularning ishlashini modellashtirish va optimallashtirish imkoniyati yaratiladi [1].

Neft va gaz qurilmalarini loyihalashda CAD/CAE tizimlaridan foydalanish nafaqat vaqtni tejaydi, balki loyihaning sifatini oshiradi va xatoliklarni kamaytiradi. Shu sababli ushbu texnologiyalarning qo‘llanilishi dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.



CAD tizimlaridan foydalanish jarayoni

CAD tizimlari qurilmalarni uch o‘lchamli (3D) modellashtirish imkonini beradi. CAE tizimlari esa ushbu modellar asosida muhandislik tahlillarini amalga oshiradi. Ushbu tizimlar quyidagi afzalliklarga ega: loyihalash jarayonining tezlashuvi, yuqori aniqlik, murakkab konstruksiyalarni yaratish imkoniyati, xatoliklarni oldindan aniqlash [2].

Neft va gaz sanoatida ishlatiladigan qurilmalar quyidagi xususiyatlarga ega: yuqori bosim ostida ishlash, agressiv muhitga chidamlilik, murakkab geometrik shakl, yuqori ishonchlilik talablari. Masalan, quvurlar, bosimli idishlar va nasoslar loyihalash jarayonida mexanik va termik yuklamalar hisobga olinadi [3].

CAD tizimlarida loyihalash quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. geometrik model yaratish;
2. detal va yig‘ma birliklarni shakllantirish;
3. chizmalarni avtomatik generatsiya qilish;
4. konstruksiyani optimallashtirish.

Bu jarayon loyihalash vaqtini sezilarli darajada qisqartiradi va inson xatolarini kamaytiradi [4].

CAE tizimlari yordamida qurilmalarning ishlash jarayoni modellashtiriladi. Quyidagi tahlillar amalga oshiriladi: mustahkamlik, deformatsiya, issiqlik taqsimoti, suyuqlik oqimi. Bu tahlillar qurilmaning real sharoitdagi ishlashini oldindan baholash imkonini beradi [5].

Simulyatsiya yordamida quyidagi masalalar hal qilinadi: konstruktsiyaning mustahkamligini baholash, xavfli zonalarni aniqlash, optimal material tanlash, energiya samaradorligini oshirish. Bu esa qurilmaning ishonchliligini oshirishga xizmat qiladi [2].

CAD/CAE tizimlaridan foydalanish quyidagi natijalarga olib keladi:

- loyihalash vaqtining qisqarishi;
- ishlab chiqarish xarajatlarining kamayishi;
- mahsulot sifatining oshishi;
- ekspluatatsiya xavfsizligining ta’minlanishi [6].

Bugungi kunda CAD/CAE tizimlari sun’iy intellekt va bulut texnologiyalari bilan integratsiyalashmoqda. Bu esa:

- avtomatik optimallashtirish;
- katta ma’lumotlarni tahlil qilish;
- real vaqt monitoringi imkoniyatlarini yaratmoqda.

Natijada loyihalash jarayoni yanada samarali bo‘lmoqda.

Neft va gaz qurilmalarini loyihalashda CAD/CAE tizimlaridan foydalanish zamonaviy muhandislikning ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu tizimlar yordamida loyihalash jarayonini tezlashtirish, aniqlikni oshirish va qurilmaning ishlashini oldindan tahlil qilish mumkin. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, CAD/CAE texnologiyalarini qo‘llash orqali; loyihalash samaradorligini oshirish, xatoliklarni kamaytirish, qurilmalar ishonchliligini oshirish mumkin. Kelgusida ushbu tizimlarni yanada rivojlantirish va ularni sun’iy intellekt bilan integratsiyalash neft va gaz sanoatida yangi imkoniyatlar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gillespie T. D. Fundamentals of vehicle dynamics //SAE International. – 1992. – P. 120–145.

2. Limpert R. Brake design and safety //SAE International. – 2011. – P. 85–110.
3. Wong J. Y. Theory of ground vehicles //Wiley. – 2008. – P. 250–290.
4. Bosch Automotive Handbook //Wiley. – 2018. – P. 600–650.
5. Heisler H. Advanced vehicle technology //Butterworth-Heinemann. – 2002. – P. 300–340.
6. Kerr C. J. PDC drill bit design and field application evolution //Journal of petroleum technology. – 1988. – Т. 40. – №. 03. – С. 327-332.

КОМБИНАЦИЯЛАШГАН РОТАЦИОН МЕХАНИЗМЛАРНИНГ АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР БЎЙИЧА ТАҲЛИЛИ

Нишанов Ботиржон Мухаммаджонович
Намдту, PhD, доцент, тел.: +998940547171

Ерларни белгиланган агротехник талабларга мувофиқ сифатли тайёрлайдиган, иш унуми ва ишончлилиги юқори, тез ҳамда осон ростланадиган қурилмаларни ишлаб чиқиш ва уларни амалиётга жорий этиш бўйича илмий-тадқиқот ишларини олиб бориш долзарб масалалардан ҳисобланади. Ўзбекистонда қишлоқ хўжалиги техникаларини ишлаб чиқаришни ривожлантириш, экспортга мўлжалланган тайёр маҳсулотлар ишлаб чиқариш ҳажмини ошириш ва турларини кенгайтириш, шунингдек, аграр секторни ўзимизда ишлаб чиқарилган техникалар билан таъминлаш бўйича изчил чора-тадбирлар амалга оширилмоқда. Чивиқ симли ғалтаксимон бороналаш тупроқ юзасини яхши текислайди ва зичлайди ҳайдалган ва чизелланган майдондаги намликни кўтарилиб кетишини олдини олади. Лекин юза қисмдаги қаттиқ ва қуруқ кесакларни ёмон майдалайди. Шунинг учун бундай юмшаткичлар ҳам пахтачилик худудларида ўз ўрнини топа олмади. Охирги пайтларда янги агрегатлар пайдо бўлмокда, улар чивиқли симли каток билан ротацион бороналар ўртасидаги оралиқ ўринни эгалламоқда. Уларни ижобий баҳолаш мумкин.

Улардан эътиборни тортгани ғалтаксимон борона. Ишчи органлари планка ва планкага маҳкамланган тишлардан иборат. Ғалтаксимон боронанинг иккала шакли хам тупрокни яхши майдалайди ва зичлайди, бироқ катокнинг бўшлиқ қисмига тупроқ тўлиб қолади, шунингдек унинг планкалари ўз ўқига паралел қилиб дискларга ўрнатилган. Бу ҳолат панкаларни узунасига жойлашганлиги сабаб кесакларни каток бўшлиқ қисмидан отилиб чиқишига халақит қилади. Бир талай изланувчилар чивиқли симли каток ва ротацион бороналарнинг ишчи органлари борасида изланишлар олиб бордилар ва қулай комбинациялашган планкали тишли ишчи органларни ишлаб чиқишди. Барабан бўшлиқ қисмларини тўлиб қолишини бартараф қилиш мақсадида улар барабанни конуссимон қилиш кераклигини таклиф қилдилар. Россия шароитига конуссимон бороналар бошқа ишлаб келаётган бороналардан ўз афзаллиги билан устунлик қилади.



Нокора тупроқ шароити учун БЗСС-1,0 тишли борона ўрнига чизел култиватор изидан майдонни юза қисмини текислаш учун планкали каток, спиралсимон катокларниг агротехник ва энергетик кўрсаткичларини ўрганган.

Бу қурилма тупроқни каток спирали ён юзаси орқали майдалаб қориштиради. Ён юза оркали тупроқ ички юзага келади, ташки юза эса ташки юза қатламни босиб зичлайди ва қуруқ юзага нам тупроқ тушади. Зичлаш билан бирга ён юза тупроқни ёнбошга суради ва текислашнинг асосий жараёни бажарилади. Ички юза тупроқни бир неча бурчак остида кўтаради ва майдон юзасига тупроқ парчаларини тақсимлайди, текисланишни қўшимча жароёни якунланади



Ўртача қаттиқликдаги ноқора тупроқ шароитида, чизел-култиватор изидан кейин кессаклар майин, сер намли бўлади ва уни ҳар қандай ишчи орган орқали майдалаш мумкин

С.В.Вольфрам ва С.Г.Чирковлар тупроққа ишлов бериш учун комбинациялашган агрегатлар, ўғитларни қориштириш ва гербицидларни юза қатлам остига олиш ва зичлаш учун прутокли каток кўринишидаги ишчи органлардан фойдаланиш керак деган тўхтамга келишди. Бундай прутокли катоклар қўшимча бир талай кессакларни майдалайди, майдон юзасини

текислайди ва гербицид ҳаражатларини 2 маротаба қисқаришига олиб келишини такидашган.

Пахтачилик худудларида бирнечта изланувчилар назарий ва амалий жихатдан прутокли катоклар факатгина юмшоқ ва ўрта қаттиқликдаги тупроқга қўшимча ишлов бера олишини исботлаб бердилар. Пахтачилик худудларида фақат фрезали култиваторлар талабга тўла жавоб бера олади деб фикр юритадилар.

Оғир ва қаттиқ типдаги тупроққа ишлов бериш учун тишли, пичоқли ротацион ва игнали ишчи органлар лозим. Бу ишчи органлар борасида ўзбек ва хориж изланувчилари илмий-татқиқот ишлари олиб бордилар ва ҳар томонлама уларни ўрганиб чиқдилар ва ҳар қандай тупроқ шароитида қўлланишини, ишчи технологияси, тупроққа таъсир этиш жароёни, игнали дискни ва игнани кинематика ва динамикасини, диск ва лункалар параметрларини, дискнинг охирги ҳолатигача ва унинг формаларини аниқлаб бердилар

Пахтачилик худудларида тупроққа экин экишгача чизел-култиватор билан 15...20 см чуқурликда ишлов берилади. Тишли бороналар тупроққа бундай чуқурликда ишлов бера олмайди. Чизел култиватор билан биргаликда эса агрегат оғирлигини, габарит ўлчовини катталаштиради ва бурилиш радиусини катталаштиради.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Кежабоев Ш.Ш., Нормирзаев А.Р., Нишанов Б.М. Юза ишлов берувчи ротацион юмшаткичнинг радиусини аниқлаш // ФарПИ илмий-техник журнали. – Фарғона, 2021. – №3. – Б. 75-82.
2. Nishonov B. et al. Study on the development of a rotary soil softener //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – Т. 434. – С. 03013.
3. Gaybullaev, B., Normirzaev, A., Nishanov, B., & Nuriddinov, A. (2020). Influence of an attack angle of a spherical disk sugger and the congressive unit speed on the distance of soil. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 6, 512-517.

КАСБИЙ ВА ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИНГ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ БИЛАН ЎЗАРО ИНТЕГРАЦИЯСИ

Рамонова Васила Қаюмжоновна
Наманган давлат техника университети, катта ўқитувчиси

Янги Ўзбекистон ҳозирги даврдаги ривожланиши, янгиланиши, келажакда қандай бўлиши, ёш авлоднинг ҳар томонлама етуклиги, яъни уларнинг қай даражада мукаммал шахс сифатида таркиб топишларига, ўзларида креатив қобилиятларини мужассамлаштирган, касбий компетентликка эга шахс бўлиб етишишларига боғлиқдир. Мамлакатимиз иқтисодиётидаги туб ўзгаришлар чет эл инвестициялари билан бирга энг замонавий технологияларнинг кириб келиши, фан-техника соҳаси ва йўналишларининг кенгайиши, мураккаблашиши, тадбиркорлик, кичик ва ўрта бизнеснинг ривожланиши билан боғлиқ техник таълим йўналишларига оид касбий ва олий таълим тизими бўйича бўлажак мутахассис кадрлар тайёрлашни долзарб вазифа қилиб қўймоқда. Бўлажак мутахассислар ўз лаёқати ва мотивларига қараб тахсил оладилар ва шу йўналишнинг етук мутахассиси бўлиб фаолият юрита бошлайдилар. Республикамизда амалга оширилаётган ишларга машинасозлик соҳасидаги янги техника ва технологияларнинг кириб келиш ва уларни ҳаётдаги тадбиғи мисол бўлади. Жумладан, мамлакат худудидаги мавжуд технологик машиналари иш унумдорлиги юқори бўлган Германия ва Швеция, Япония ва Хитой давлатлари машинасозлик саноатидаги энг замонавий технологик машиналари билан алмаштирилмоқда. Шу сабабли техник таълим йўналишдаги касбий ва олий таълим муассасаларида таълим олаётган бўлажак мутахассислар олдида хорижий техникалар билан ишлаш учун касбий билим, кўникма ва малакаларни шакллантириш муаммоси вужудга келади. Ушбу муаммони ижобий ҳал этиш учун назарий таълим билан бирга амалий таълим кўникмаларини ҳам ривожлантириш лозим бўлади. Амалий таълимнинг вазифаси, мазмуни, методлари ўзига хос хусусиятларга эга бўлиб, битта мақсадга, яъни юқори малакали мутахассисларни тайёрлашга қаратилган. Назарий ва ишлаб чиқариш таълими касбий ва олий таълим муассасаларидаги ўқув жараёнининг мустақил ва ўзаро бир-бири билан чамбарчас узвий боғлиқ ҳолда ташкил этилиши таъминланиши лозим, бироқ бу вазифа ҳозирги кундаги муҳим муаммолардан бири ҳисобланади. Бу жараённи юқори савияда ўтказиш учун иш берувчи корхона ва таълим муассасалари ўртасида мунтазам ҳамкорлик ўрнатилиши керак. Барча амалиётларнинг корхона ва таълим муассасалари билан бевосита боғлиқ ҳолда ташкил этиш бўлажак мутахассисларда барча педагогик жараёнлар ва меҳнат жараёнлари ҳамда меҳнатни ташкил этишни ишлаб чиқариш жараёнида ўрганиш имконини яратади. Айнан мана шу борадаги таълим ва ишлаб чиқариш корхоналари ўртасидаги кадрлар тайёрлаш борасидаги мунтазам ҳамкорлик, соҳалардаги малакали кадрларга бўлган эҳтиёж: касбий ва олий таълим муассасаларида ана шу эҳтиёжга мувофиқ мутахассислар тайёрланиши ўша худудларда барча соҳаларнинг истиқболли

Tajriba davomida standart (silliq) truba va nakatkalangan trubalarda entropiya o‘zgarishini $\Delta \mathbf{S}$ ni (**Re**) Reynolds soniga bog‘liqligi jadval shaklida keltirilgan. (truba ichida issiq suv harakatlanganda, truba ichidagi muhit uchun) 1 – jadval.

Issiqlik almashinish apparatida tajriba davomida standart (silliq) truba va nakatkalangan trubalarning entropiya o‘zgarishini Reynolds soniga bog‘liqligi bo‘yicha olingan natijalar (truba ichida issiq suv harakatlanganida, truba ichidagi muhit uchun). 1 – jadvalda keltirilgan.

1–jadval.

Re	3000	3500	4000	4500	5000	5500	6000	6500
ΔS	69,109	82,854	96,057	108,64	123,37	136,88	150,14	164,97
Re	7000	7500	8000	8500	9000	9500	10000	
ΔS	178,62	193,34	207,84	222,19	236,49	251,29	264,86	

Tajriba davomida standart (silliq) truba va nakatkalangan trubalarda entropiya o‘zgarishini **ΔS** ni (**Re**) Reynolds soniga bog‘liqligi jadval shaklida keltirilgan. (trubalararo sovuq suv harakatlanganda, trubalararo muhit uchun). 2 – jadval.

2 - jadval.

Re	3000	3500	4000	4500	5000	5500	6000	6500
ΔS	85,878	102,527	120,278	135	152,893	170,218	186,298	204,406
Re	7000	7500	8000	8500	9000	9500	10000	
ΔS	222,111	249,357	257,663	275,349	293,704	311,794	328,252	

Issiqlik almashinish apparatida tajriba davomida standart (silliq) truba va nakatkalangan trubalarning entropiya o‘zgarishini Reynolds soniga bog‘liqligi bo‘yicha olingan natijalar (trubalararo sovuq suv harakatlanganida, trubalararo muhit uchun). 2 – jadvalda keltirilgan.

Hozirgi kunda oziq-ovqat sanoati, kimyo sanoati va neft-gaz sanoati korxonalarida issiqlik almashinish apparatlarida energiya samaradorligini oshirish borasida bir qancha amaliy tavsiyalar berish, mavjud tadqiqotlardan samarali foydalanish, issiqlik almashinish va gidravlik qarshiligini hisoblash uchun o‘tkazilgan eksperimental tadqiqotlar asosida analitik yechimlarni taklif qilish, issiqlik almashinish jarayonlarida yuzalarda samaradorlikni oshirish uchun to‘sqinlik qilayotgan parameirlarni tahlil qilish ishlarini olib borish lozim.

ADABIYOTLAR

1. Калинин Э.К., Дрейцер Г.А., Копп И.З., Мякочин А.С. «Эффективные поверхности теплообмена». М.: Энергоатомиздат, 1998 г. 407 с.
2. Каримов К.Ф., Карабаев А.С., Маслов А.В., Азизов Д.Х. “Термодинамический анализ потерь компрессорно-конденсаторного узла холодильной установки”. Международная научно-практическая конференция «Современные энергосберегающие тепловые технологии (Сушка и термовлажностная обработка материалов)». 28-31 Мая 2002 г. Москва.
3. Закиров С.Г., Закирова Н.С., Карабаев А.С. “Эксергетический анализ теплообмена в теплообменнике “Труба в трубе” в переходном режиме течения жидкости”. Ферганский политехнический институт. СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ 1 международной научно практической конференции “Актуальные проблемы внедрения инновационной техники и технологий на предприятиях по производству строительных материалов, химической промышленности и в смежных отраслях” 24-25 мая 2019 года 1-том.

YEYILISHGA CHIDAMLI MATERIALLAR YARATISHNING ZAMONAVIY USULLARI VA ULARNING MEXANIK TIZIMLARDAGI SAMARADORLIGI

doktorant. Fayziyev J.X., prof. Axmedov A.X.,"NMZ"inovatsiya bo'lim boshlig'i Raxmonov U.
Toshkent davlat texnika universiteti , Tel nomer : +99890 820-28-31

Hozirgi zamonaviy mashinasozlik va sanoat ishlab chiqarishida materiallarning yeyilishga chidamliligini oshirish muhim ilmiy va amaliy muammolardan biri hisoblanadi. Mexanik tizimlarda ishlatiladigan detallar doimiy ravishda ishqalanish, zarba va yuqori harorat ta'sirida bo'lib, bu ularning tez yeyilishiga olib keladi. Natijada qurilmalarning xizmat muddati qisqaradi, texnik xizmat ko'rsatish xarajatlari ortadi va umumiy samaradorlik pasayadi. Shu sababli yeyilishga chidamli materiallar yaratish va ularni ishlab chiqarishda qo'llash dolzarb vazifa hisoblanadi.

Yeyilish jarayoni murakkab fizik va mexanik hodisalardan iborat bo'lib, u abraziv, adgezion va korroziy yeyilish kabi turlarga ajratiladi. Har bir yeyilish turi materialning strukturasiga, sirt xususiyatlariga hamda ish sharoitlariga bog'liq holda yuzaga keladi. Shu bois materiallarni yaratishda ularning mikrostrukturasini boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi [1-4].

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda yeyilishga chidamli materiallarni yaratishning bir qator samarali usullari ishlab chiqilgan. Ulardan biri legirlash usuli bo'lib, bunda asosiy metall tarkibiga turli elementlar (xrom, nikel, molibden, volfram va boshqalar) qo'shiladi. Natijada materialning qattiqligi, mustahkamligi va issiqlikka chidamliligi oshadi. Ayniqsa, xrom qo'shilgan qotishmalar yuqori yeyilishga chidamliligi bilan ajralib turadi.

Yana bir muhim yo'nalish – bu kompozit materiallardan foydalanishdir. Kompozit materiallar turli komponentlarning birikmasidan iborat bo'lib, ular yuqori mexanik xossalarga ega. Masalan, metall-matritsali kompozitlar yuqori mustahkamlik va yeyilishga chidamlilikni ta'minlaydi. Bunday materiallar og'ir ish sharoitida ishlovchi mexanizmlarda keng qo'llanilmoqda.

So'nggi yillarda nanotexnologiyalar asosida materiallar yaratish ham jadal rivojlanmoqda. Nanozarrachalar qo'shilgan materiallar yuqori qattiqlik, past yeyilish darajasi va yaxshi issiqlik barqarorligiga ega bo'ladi. Bu esa ularni zamonaviy mexanik tizimlarda qo'llash imkonini kengaytiradi.

Nazariy jihatdan yeyilish jarayonini quyidagi umumiy bog'lanish orqali ifodalash mumkin:

$$I = kNv,$$

bunda I – yeyilish intensivligi, k – materialga bog'liq koeffitsiyent, N – yuklama, v – sirpanish tezligi. Ushbu ifoda asosida yeyilishga chidamli materiallar yaratishda k koeffitsiyentni kamaytirish asosiy maqsad hisoblanadi.

Metall, keramika va polimerlarni birlashtirish orqali yuqori mustahkamlikka ega kompozitlar olinadi. Masalan, tolali armaturalangan polimerlar yoki karbidli kompozitlar yuqori ishqalanish va bosimga chidamli bo'ladi. Bunday materiallar mashinasozlik, avtomobilsozlik va sanoat

uskunalarida keng ishlatiladi. Bu texnologiyalar detalning faqat yuzasini mustahkamlaydi va ichki qismi esa arzonroq materialdan tayyorlanishi mumkin. Termik purkash va aqlli qoplamalar yuqori harorat va agressiv muhitlarda ham samarali ishlaydi. Grafit, molibden disulfid yoki maxsus polimer qo‘shimchalari bilan boyitilgan materiallar ishqalanish vaqtida o‘zidan moylovchi qatlam hosil qiladi. Bu usul podshipniklar, tishli uzatmalar va friksion mexanizmlarda samarali hisoblanadi. Shu sababli ular abraziv yeyilish kuchli bo‘lgan joylarda, masalan nasoslar, turbinalar va kesuvchi asboblarda qo‘llanadi.

Kompozit materiallar ikki yoki undan ortiq tarkibiy qismlardan iborat bo‘lib, biri matritsa, ikkinchisi mustahkamlovchi faza vazifasini bajaradi. Metall matritsali kompozitlar alyuminiy, titan yoki po‘lat asosida tayyorlanadi va ularga karbid, nitrid yoki keramika zarrachalari qo‘shiladi. Bunday materiallar oddiy po‘latga nisbatan ancha qattiq va uzoq xizmat qiladi. Ayniqsa, uglerod tolali va karbidli kompozitlar friksion mexanizmlar, podshipniklar va kesuvchi asboblarda keng qo‘llaniladi. Tabiatdagi akula terisi, lotus bargi yoki hasharot qanoti yuzasiga o‘xshash mikrorelyefli yuzalar yaratilmoqda. Bunday sirtlar ishqalanishni kamaytiradi, chang yopishishini oldini oladi va moylanishni yaxshilaydi. Hozirda lazer yordamida mikro va nano o‘lchamdagi sirtlar hosil qilinmoqda.

Bunday kombinatsiya detalning qattiqligi, korroziyaga chidamliligi va xizmat muddatini bir necha barobar oshiradi. Ayniqsa, siz ilgari qiziqqan boshqariladigan friksion mexanizmlarda shunday gibrid yondashuv eng samarali hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, yeyilishga chidamli materiallar yaratishning zamonaviy usullarini rivojlantirish mashinasozlik sanoatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishda olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar yuqori samaradorlikka ega, ishonchli va uzoq muddat xizmat qiluvchi texnik tizimlarni yaratishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Каримов К.А., Ахмедов А.Х. Перспективы использования инновационных идей и технологий при решении задач динамики управляемых прецизионных механизмов // Деформацияланувчан қаттиқ жисмлар механикаси. Республика илмий-амалий анжуман маърузалар тўплами. II-жилд. – Тошкент, 2018.

2. Каримов К.А., Ахмедов А.Х., Каримова А.Р. Замонавий машинасозликда бошқариладиган механизмларни ишлаб чиқишнинг назарий муаммолари ва муҳандислик ечимлари // Инновацион техника ва технологияларнинг қишлоқ хўжалиги - озиқ-овқат тармоғидаги муаммо ва истиқболлари мавзусидаги 2-халқаро илмий ва илмий-техник анжуман материаллари. 1-қисм. – Тошкент, 2022.

3. Sidorov V.A. Mashinasozlik materiallari va ularning xossalari. – Moskva: Mashinostroenie, 2005.

4.Каримов К.А. Управляемые прецизионные механизмы: фундаментальные и прикладные проблемы «Инновация – 2015». - Ташкент, 2015.

МАТЕРИАЛЫ ПРИМЕНЯЕМЫЕ ПРИ ИЗГОТОВЛЕНИИ КУЛАЧКА КАРДАННОЙ МУФТЫ ВАГОНОВ МЕТРОПОЛИТЕНА

Старший преподаватель: А.А.Файзуллаев,
Старший преподаватель: Д.Х.Хуррамов,
Студент: Б. Инагамов
Ташкентский государственный технический университет, улица Университетская - 2. Город Ташкент

Аннотация: Кулачок карданной муфты, являясь нагруженной деталью, работающей в условиях интенсивного износа и трения, изготавливается из высокопрочной легированной стали.

Ключевые слова: Кулачок, карданная муфта, химико-термическая обработка, нитроцементация, износостойкость.

Основной материал: Кулачек изготавливается из цементируемой стали 20ХН3А (хромоникелевая сталь).

- 20 указывает на содержание углерода ≈0,20%.
- ХН указывает на наличие хрома (Cr) и никеля (Ni), которые придают стали высокую прочность, вязкость и способность к глубокой закалке.
- А в конце указывает на высокое качество стали (меньше содержание вредных примесей таких как сера и фосфор).

Технологический процесс изготовления

Для достижения требуемой твердости и износостойкости рабочих поверхностей кулачка, после штамповки и механической обработки применяют специальную термическую и химико-термическую обработку:

1. **Цементация:** Поверхность детали насыщается углеродом (цементируется) на определенную глубину (например, от 0,2 до 2 мм) Это значительно повышает твердость и износостойкость рабочей поверхности при сохранение вязкой , менее твердой сердцевины для сопротивления ударным нагрузкам.
2. **Закалка:** Деталь подвергается закалке для упрочнения цементированного слоя.

Заключение: В некоторых конструкциях (например, на более старых конструкциях вагонов метрополитена) могут упоминаться **упоры** (вилки)кулачка, также изготавливаемые из стали 20ХН3А
с аналогичной обработки (цементация и закалка). В современных конструкциях цапфы кулачка могут быть выполнены в виде подшипников, ролики которых изготавливаются из стали, например, 18Х2Н4ВА, также с цементацией и закалкой. Необходимо указать практические работы автора статьи на период трудовой деятельности с сроком 27 лет на Ташкентском метрополитене по модернизации данного узла. В процессе длительной эксплуатации кулачки карданной муфты вагонов метрополитена приходят в полную негодность к применению. Автор предложил и применил несколько видов модернизации замена игольчатых подшипников на бронзовые и полиамидные втулки, а также проводились работы по изготовлению

кулачков карданной муфты в условиях метрополитена и промышленных предприятиях города Ташкента. Например было изготовлена опытная партия кулачков карданной муфты из стали 18ХГТ на Ташкентском Агрегатном заводе. Данная мероприятия увенчалась успехом до той поры пока сталь 18ХГТ имелись в наличии у завода. Естественно все модернизации проводились с разрешение завода изготовителя вагонов метрополитена (Мытищенский машиностроительный завод) г. Мытиши Россия.

Второй пример было изготовлено партия кулачков карданной муфты из 56 штук в условиях Ташкентского метрополитена совместно с Ташкентским Вагоностроительным заводом ГАЖК «Узбекистон темир йуллари» из стали 40Х с последующей нитроцементацией поверхности кулачков до 0,5 мм, данная модернизация увенчалась хорошим результатом но вскоре была остановлена из-за причины что при нитроцементации выделяется большое количестве вредных газов например цианиды тяжелого образования.

Литература:

1. Кузнецов.А.В. «Динамика вагонов метрополитена» – М: Транспорт 2018 год.
2. М.С.Карабанова, А.Ю.Жиляков « Цементация и нитроцементация стальных изделий» М .Машиностроение 1987 год.
3. В.С Казаков, Т.В.Гильманшина «Материаловедение» М. Машиносроение 2021 год.

ПРОБЛЕМЫ ЭКСПЛУАТАЦИИ ИГОЛЬЧАТЫХ ПОДШИПНИКОВ В КАРДАННЫХ МУФТАХ.

Старший преподаватель: А.А.Файзуллаев;
Старший преподаватель: Д.Х.Хуррамов,
Студент: Б. Инагамов
Ташкентский государственный технический университет, улица Университетская - 2. Город Ташкент

Аннотация: Карданные муфты (или карданные шарниры), являющиеся критически важным элементом трансмиссии, часто используют игольчатые подшипники благодаря их высокой радиальной грузоподъемности при малых габаритах. Однако их эксплуатация сопряжена с рядом существенных проблем.

Ключевые слова: Питтинг (точечная коррозия метала), выкрашивания, переменные нагрузки, ограниченный ресурс.

1. Высокая чувствительность к загрязнениям.

Игольчатые подшипники имеют малые тела качения (иглы) и минимальные зазоры. Это делает их чрезвычайно чувствительными к попаданию инородных частиц.

- Абразивный износ: Даже мельчайщие частицы грязи, пыли, или продуктов износа (особенно при повреждении уплотнений) действует как абразив, вызывая ускоренный износ игл и дорожек качения.
- Уменьшение ресурса: Загрязнение быстро приводит к питтингу и выкрашиванию поверхностей, значительно сокращая расчетный срок службы подшипника.

2. Необходимость регулярной смазки.

Эффективность и долговечность игольчатых подшипников критически зависят от качества и количества смазочного материала.

- Сложность обслуживания: Подшипники в карданных муфтах часто работают в тяжелых условиях (высокие скорости, переменные нагрузки, внешние воздействия) и требуют периодической и точной дозаправки или замены смазки.
- Риск масляного голодания: Недостаточная или загрязненная смазка приводит к прямому контакту металла с металлом, что вызывает быстрый перегрев и разрушение подшипника из-за повышенного трения.

Заключение: Игольчатые подшипники обладают высокой радиальной грузоподъемностью, они уязвимы перед динамическими и пиковыми нагрузками.

- Ударные нагрузки: Резкие изменения нагрузки (например, при трогании с места, переключении передач, или преодолении препятствий) могут вызвать чрезмерное давление на ограниченную площадь контакта игл, приводя к деформации, задирам, или разрушению тел качения и колец.
- Вибрация: Длительная работа в условиях повышенной вибрации(особенно при неточной балансировки карданного узла) может привести к фреттинг-

коррозии (коррозийно-усталостному износу) и ускоренному разрушению поверхностей.

По сравнению с некоторыми другими типами подшипников, игольчатые подшипники карданных муфтах имеют относительно ограниченный эксплуатационный ресурс, особенно в условиях тяжелой техники и высокой интенсивности использования.

- Усталостный износ: Под действием постоянных циклических нагрузок (вращение кардана) материал подшипника постепенно накапливает усталостные повреждения, что в конечном итоге приводит к выкрашиванию дорожек качения.
- Невозможность ремонта: Карданные муфты часто являются необслуживаемыми или неразборными узлами, и выход из строя одного подшипника требует замены всей карданной муфты, что увеличивает эксплуатационные расходы.

Литература:

1. Кузнецов.А.В. «Динамика вагонов метрополитена» – М: Транспорт 2018 год.
2. М.С.Карабанова, А.Ю.Жиляков « Цементация и нитроцементация стальных изделий» М .Машиностроение 1987 год.
3. В.С Казаков, Т.В.Гильманшина «Материаловедение» М. Машиносроение 2021 год.

ISSIQLIK TARQATUVCHI RADIATORNI KORROZIYABARDOSHLIGINI TAHLIL QILISH

Dotsent (PhD) Ubaydullayev Mamasidiq, magistir talabasi Fozilov Shamsiddin, magistir talabasi Toshpo'latov Oybek.
Namangan davlat texnika niversiteti, 160103, Namangan shahri, I.Karimov ko'chasi, 12-uy Uzbekiston.

Ushbu tadqiqotda avtomobillar yoritgich chiroqlarida qo'llaniladigan alyuminiy radiatorlarning korroziyabardoshligini o'rganish maqsadida bir nechta turdagi radiator namunalari ishlatilgan[1]. Tadqiqot uchun tanlangan radiatorlar alyuminiy qotishmalari (Al 6061 va Al 6063) asosida tayyorlangandi. Radiatorning issiqlik tarqalishini oshirish va havo oqimini optimallashtirish maqsadida geometrik parametrlar aniqlangan[2-5]. Quyidagi 1-jadvalda ko'rsatilgan.

Geometrik Parametrlar va Havo Oqimi

1 - jadval

t/r	Parametr	Qiymat / Diapazon	Izoh
1	Fin balandligi	50–55 mm	Optimal tabiiy va majburiy konveksiya
2	Fin qalinligi	1–2 mm	Issiqlik uzatilishini saqlash
3	Fin oralig'i	3–5 mm	Havo oqimi samaradorligi uchun
4	HCPS uzunligi	30–60 mm	LED chipdan radiatorga issiqlik uzatadi
5	Majburiy havo tezligi	0–5 m/s	Havo oqimi orqali issiqlik tarqalishini oshiradi

Ko'rinib turibdiki, fin balandligi, qalinligi va oralig'i tabiiy va majburiy konveksiya samaradorligini maksimal qiladi. HCPS uzunligi LED chipdan radiatorga issiqlik uzatilishini optimallashtiradi. Shu parametrlar radiatorning issiqlik tarqatish samaradorligini va LED chipning optimal haroratini ta'minlashga xizmat qiladi.

Radiatorning issiqlik samaradorligi va korroziyaga chidamliligini baholash uchun eksperimental va simulyatsion testlar o'tkazilgan. Quyidagi 2-jadvalda testlar, ularning maqsadi va kutilgan natijalarni ko'rsatilgan.

Eksperimental va simulyatsion testlar

2 - jadval

t/r	Test turi	Maqsad	Kutilgan natija
1	Salt spray chember test (VT-ST100)	Korroziyaga chidamlilikni baholash	10–15 yilgacha xizmat muddati

Salt spray testi radiatorning uzoq muddatli ishlashini va korroziyaga chidamliligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, kondensatsiya, konveksiya va radiatsiya orqali issiqlik samaradorligi saqlanadi, radiatorning xizmat muddati sezilarli darajada oshadi.

Ushbu ish davomida yuqori quvvatli LED faralar uchun alyuminiy heat sinkning issiqlik tarqatish samaradorligini va korroziyabardoshligini oshirishga qaratilgan yangi metodika ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, radiator materiali, geometrik parametrlar, qoplama turlari va havo oqimi birgalikda LEDning optimal ishlash haroratini saqlash va xizmat muddatini uzaytirishda muhim rol o‘ynaydi.

Radiator materiali sifatida Al 6061 va Al 6063 qotishmalari tanlandi. Ushbu qotishmalar yuqori issiqlik o‘tkazuvchanligi (202 W/m·K), yengil vazni va mexanik mustahkamligi bilan ajralib turadi. Alyuminiy yuzasi anodlash qatlami bilan ishlanib, unga nanostruktural keramika va UV stabilizatorli polimer qoplamalari biriktirildi. Bu kombinatsiya radiatorni korroziyaga qarshi samarali himoya qiladi, mexanik mustahkamlikni oshiradi va tashqi omillarga chidamliligini ta’minlaydi.

Geometrik parametrlar – fin balandligi, qalinligi, oralig‘i, HCPS platalari uzunligi va LED chip o‘lchami – sovutish tizimi samaradorligini maksimal darajada oshirishga qaratilgan. CFD simulyatsiyasi va infraqizil termografiya orqali havo oqimi, issiqlik tarqalishi va radiator yuzasidagi harorat sharoitlari batafsil tahlil qilindi. Eksperimental testlar, jumladan salt spray testi (ASTM B117), radiatorning uzoq muddatli korroziyaga chidamliligini tasdiqladi.

Metodika natijalari shuni ko‘rsatdiki, ishlab chiqilgan qovurg‘ali alyuminiy radiatorradiatorlari LED chip haroratini optimal darajada (78–80°C) saqlab turadi, issiqlik uzatilishini samarali amalga oshiradi va korroziyabardoshligini 10–15 yilgacha oshiradi. Shu bilan birga, radiatorning samaradorligi va xizmat muddati oshishi avtomobil yoritgichlarining energiya samaradorligi, ishonchliligi va xavfsizligini ta’minlaydi.

Adabiyotlar

[1]. Diggle J.W., Downie T.C., Goulding C.W. Anodic Oxide Films on Aluminum. Chemical Reviews, 2018. – Vol. 69, No. 3. – pp. 365–405.

[2]. Shakirov Shuxrat, Allanazarov Akmal, Ubaydullayev Mamasidiq, & Egamberdiyev Bohodir. (2022). determination of the effect of temperature on the graphitization process of amorphous carbon materials. Conferencea, 284–288. Retrieved from More Citation Formats

[3]. M.M.Ubaydullayev., Sh.A.Karimov.,Sh.M.Shakirov., R. Qudratov., G‘.M. Parmonov. Use of Carbon Materials as a Heating Element. European multidisciplinary journal of modern science. Vol. 6, Issue 8, June 2022. -pp. 671-677.

[4].Убайдуллаев, М. М., & Пантелеенко, Ф. И. (2025). РАЗРАБОТКА ТЕХНОЛОГИИ ПОЛУЧЕНИЯ УГЛЕГРАФИТОВЫХ МАТЕРИАЛОВ ДЛЯ ЭЛЕКТРОТЕХНИЧЕСКОЙ И МЕТАЛЛУРГИЧЕСКОЙ ОТРАСЛЕЙ. *Universum: технические науки*, *2*(1 (130)), 60-64.

FREZERLASH DASTGOHLARI UCHUN INNOVATSION MOYLAH-SOVUTISH SUYUQLIKLARINI ISHLAB CHIQISH: TARKIB, XUSUSIYATLAR VA SAMARADORLIK TAHLILI

[1]Mirzayev Najmiddin Normatovich. [2]Muxiddinov Bunyod Baxtiyorjon o‘gli.
[1]“Mashinasozlik texnologiyasi” kafedrasi, kafedra mudiri texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.TDTU
[2]“Mashinasozlik texnologiyasi” kafedrasi Magistratura talabasi.TDTU

Annotatsiya: Mazkur ilmiy tezisda frezerlash jarayonlarida qo‘llaniladigan zamonaviy moylash-sovutish suyuqliklarining (MSS) evolyutsiyasi va ularning texnologik samaradorligi tadqiq etilgan. Tadqiqotning asosi qiyin ishlov beriladigan materiallarni (titan qotishmalari va zanglamaydigan po‘latlar) kesishda yuzaga keladigan yuqori termik yuklamalarni kamaytirishga qaratilgan. Tezisda an’anaviy mineral moylarga muqobil sifatida nanosuyuqliklar (nanofluids) va o‘simlik asosli biologik parchalanuvchi tarkiblarning fizik-kimyoviy xususiyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *Frezerlash, innovatsion MSS, nanosuyuqliklar (Al2O3, CuO), o‘simlik moylari, minimal moylash (MQL), asbob turg‘unligi, sirt g‘adir-budurligi (Ra), issiqlik o‘tkazuvchanlik, tribologik xususiyatlar, ekologik barqarorlik.*

Kirish: Zamonaviy mashinasozlik sanoatida ishlov berish aniqligi va unumdorligini oshirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Frezerlash jarayonida kesish zonasida harorat 800-1000 C gacha ko‘tarilishi mumkin, bu esa asbobning muddatidan oldin yeyilishiga va detal yuzasining termik shikastlanishiga olib keladi. Ko‘p yillar davomida qo‘llanilgan mineral moylar yuqori samaradorlikka ega bo‘lsa-da, ularning tarkibidagi oltingugurt, xlor va fosfor birikmalari ham atrof-muhitga, ham ishchilar salomatligiga jiddiy zarar yetkazadi. Shu sababli, jahon miqyosida "yashil texnologiyalar"ga o‘tish doirasida innovatsion MSSlarni ishlab chiqishga ehtiyoj tug‘ilmoqda.

Innovatsion MSS tarkibi va texnik xususiyatlar. Innovatsiyaning asosi ikki yo‘nalishdan iborat: birinchidan, suyuqlikning issiqlik o‘tkazuvchanligini nanozarrachalar hisobiga oshirish; ikkinchidan, neft mahsulotlaridan voz kechib, qayta tiklanuvchi o‘simlik xomashyosidan foydalanish. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan innovatsion MSSlar quyidagi tarkibiy elementlardan tashkil topgan:

Nano-qo‘shimchalar: Alyuminiy oksidi (Al2O3), Mis oksidi (CuO) va Grafit nanozarrachalari (o‘lchami 20-50 nm). Ushbu zarrachalar suyuqlikning bazaviy issiqlik sig‘imini va moylash qobiliyatini keskin oshiradi.

Bazaviy asos: Bio-parchalanuvchi o‘simlik moylari (kanola va soya). Ular yuqori yopishqoqlik indeksi va yaxshi adgeziya xususiyatiga ega.

MQL (Minimal Quantity Lubrication) texnologiyasi: Suyuqlikni katta hajmda quyish o‘rniga, siqilgan havo yordamida aerozol shaklida (soatiga 10-100 ml) kesish zonasiga yetkazib berish.

Samaradorlik tahlili va natijalar: O‘tkazilgan laboratoriya sinovlari va matematik modellashtirish natijasida quyidagi ko‘rsatkichlarga erishildi:

Tribologik samaradorlik: Nanosuyuqliklar kesish yuzasida "podshipnik effekti"ni hosil qilib, ishqalanish koeffitsientini 25-30% ga kamaytirdi.

- *Issiqlik rejimi:* CuO nano-zarrachalari qo‘shilgan emulsiya an'anaviy moyga qaraganda issiqlikni 40% tezroq tarqatishi aniqlandi.
- *Sirt sifati:* Yuqori tezlikda frezerlashda sirt g‘adir-budurligi (Ra) ko‘rsatkichi 0.8μm dan 0.45 μm gacha pasaydi, bu ko‘p hollarda silliqlash jarayonini bekor qilish imkonini beradi.
- *Iqtisodiy jihat:* MQL tizimi orqali MSS sarfi 95% ga tejaldi, bu esa korxona uchun utilizatsiya xarajatlarini nolga tushiradi.

Xulosa: Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, frezerlash dastgohlari uchun innovatsion MSSlarni qo‘llash ishlab chiqarish samaradorligini yangi bosqichga olib chiqadi. Nanosuyuqliklar va o‘simlik moylarining sinergiyasi asbobning xizmat muddatini o‘rtacha *1.5-2 baravarga* uzaytirish imkonini beradi. Xulosa qilib aytganda, ishlab chiqilgan tarkiblar nafaqat texnik jihatdan mukammal (yuqori moylash va sovutish), balki ekologik jihatdan zararsizdir. Kelajakda ushbu yo‘nalishda gibrid nano-zarrachalarni qo‘llash va ularning barqarorligini (sedimentatsiyaga qarshi) oshirish bo‘yicha tadqiqotlarni davom ettirish maqsadga muvofiqdir. Bu esa "Aqlli ishlab chiqarish" (Industry 4.0) sharoitida resurs tejamkorligini ta'minlashning muhim omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sarikaya, M., & Gupta, M. K. (2024). *Technological advancements in sustainable machining: A review on biodegradable lubricants.* Journal of Cleaner Production, 412, 137-152.
2. Mirzaev, M. A. (2025). *Innovatsion moylash-sovutish suyuqliklarining tribologik xususiyatlari va ularning frezerlash samaradorligiga ta’siri.* Mashinasozlik fanlari jurnali, 3(1), 45-52.
3. ISO 14001:2015. *Environmental management systems — Requirements with guidance for use.* (MSSlarning ekologik xavfsizligi bo‘yicha xalqaro standart).

ZAGOTOVKALARGA MEXANIK ISHLOV BERISHDA ULARNI MOSLAMADA BAZALASH ISTIQBOLLARI

t.f.f.d., (PhD) Adxamov Bobir Valisher o‘g‘li
Namangan davlat texnika universiteti
Xasanboyev Azizbek Azimboy o‘g‘li magistr
Namangan davlat texnika universiteti

Mashinasozlikda moslamalar texnologik uskunalarga o‘rnatiladigan yordamchi qurilmalarga hisoblanadi va ular texnologik operatsiyalarni (xomakilarga ishlov berish, mahsulot tayyorlash, nazorat qilish va h.k.) bajarishda qo‘llaniladi.

Moslamalarni qo‘llash yordamida:

- xomakilarga chizgi chizish zarurati yo‘qoladi;

- metallga ishlov beruvchi uskunalarning texnologik imkoniyatlari kengayadi;
- mehnat unumdorligi oshadi;
- ishlov berish aniqligi va mahsulot sifati yaxshilanadi;
- ko‘p dastgohda ishlash imkoniyati ta’minlanadi;
- zamonaviy vaqt me’yorlarini qo‘llash imkoniyati yaratiladi;
- talab etiladigan malaka darajasi va xodimlar soni kamayadi;
- mexanizatsiyalash va ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish;
- mahsulot tannarxi pasayadi;

Mashinasozlikda doimiy qo‘llanadigan texnologik jihozlar keng tarqalmoqda. Qayta sozlanadigan(universal) dastgoh moslamalari joriy etilganda, ularni loyihalashdagi mehnat sarfi 2-3 baravar, ishlab chiqarish sikli esa 3-4 baravar qisqaradi.

Dastgoh moslamasi — metall kesish dastgohida ishlov berish vaqtida xomaki detalni bazalash va mahkamlash uchun mo‘ljallangan qurilma. Ixtisoslashuv darajasiga ko‘ra dastgoh moslamalari 6 guruhga bo‘linadi:


- universal-yig‘ma moslamalar (UYM)
- yig‘ma-ajratma moslamalar (YAM)
- universal-sozlanadigan moslamalar (USM)
- universal-sozlanmaydigan moslamalar (U-SM)
- ixtisoslashtirilgan sozlanadigan moslamalar (ISM)
- ajratilmaydigan maxsus moslamalar (AMM).

Moslamalarni joriy etish quyidagilarga imkon beradi:

- xomaki detalga ishlov berishdan oldin belgilar qo‘yishni bekor qilish, uning aniqligini oshirish;
- operatsiyada mehnat unumdorligini oshirish;
- mahsulot tannarxini pasaytirish;
- mehnat sharoitlarini yengillashtirish va uning xavfsizligini ta’minlash:
- uskunaning texnologik imkoniyatlarini kengaytirish;
- ko‘p dastgohli xizmat ko‘rsatishni tashkil etish;


Texnologik jihozlarni tayyorlashga ketadigan xarajatlar detallarga ishlov berish texnologik jarayonidagi xarajatlarning 15...20 % ini yoki tayyor mahsulot qiymatining 10-24 % ini tashkil etadi. Dastgoh moslamalari turli xil texnologik jihozlarning umumiy miqdori ichida qiymati va mehnat sig‘imi bo‘yicha katta salmoqqa ega.

Detallarni biriktirish uchun ikkala detalning talab qilinadigan aniqligiga erishish lozim. Ba’zan bu holat mashinani yig‘ish va rostlashda, texnologik tizim detallariga ishlov berishda yuz beradi. Ishlov beriladigan detalning texnologik tizimdagi o‘rnini, shuningdek, yig‘ish paytidagi tutash detallarning o‘rnini 6 ta koordinata yoki 6 erkinlik darajasi yoxud 6 ta tayanch nuqtasi bilan aniqlash mumkin [1], [2], [3].




I, II, III — detal bazalari

1-rasm. Prizmatik detalni bazalash sxemasi.




2 – rasm. Tayanch nuqtalarning GOST 21495-76 bo‘yicha shartli belgilanishi

Zagotovkaning shakliga qarab, moslamada bazalashning turli sxemalari mavjud.




3-rasm. Prizmatik zagotovkani "koordinata burchagi"da bazalash.

Bazalar to‘plami: o‘rnatish bazasi (1, 2, 3-nuqtalar); yo‘naltiruvchi baza (4, 5-nuqtalar), tayanch baza (6-nuqta).



4-rasm. Korpus detalini asosiy teshik bo‘yicha konuslarda bazalash sxemasi, qo‘shaloq yo‘naltiruvchi (1, 2, 3, 4-nuqtalar); tayanch (5, 6-nuqtalar).



5-rasm. Moslama korpusini dastgoh stolida bazalash:
a – korpusni 2-korpus panjalaridagi 1-quloqchalar yordamida mahkamlash;
b – moslama korpusini 1-shponkalar yordamida dastlabki mo‘ljallash.

FU-251 frezalash dastgohining pasportiga ko‘ra a ning qiymatini olamiz.

b = 0.5*a = 0.5*14 = 7 mm.

Ushbu chizmada detallarning o‘zaro birikish joylari, oraliq masofalar (h = 0.5h) va ularning kesimdagi ko‘rinishlari berilgan. Bu qismlar detallarni yig‘ishda aniqlikni ta'minlash va texnologik jarayonni to‘g‘ri tashkil etish uchun xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Ванин В.А., Преображенский А.Н., Фидаров В.Х. Приспособления для металлорежущих станков.− ТГТУ.: Тамбов, 2007− 180с.:
2. Гаврилин А. Н. Опорные и зажимные элементы технологической оснастки.− Томского политехнического университета.: Томск, 2009− 48с.:
3. Иванов-Польский К. В. Технологическая оснастка: Курс лекций.− Вятский государственный университет.: Киров, 2005-70с.

BAZALT TOLASI FIZIK-MEXANIK VA KIMYOVIY XUSUSIYATLARINING AVTOMOBILSOZLIK UCHUN AHAMIYATI

Texnika fanlari doktori, professor Ismatov Jumaniyez Fayzullayevich,
tayanch doktorant Xolxo‘jayev Elmurod Muxtorovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti, 100095, Universitet 2,Toshkent sh

Zamonaviy avtomobilsozlikda material tanlash masalasi transport vositalarining ekspluatatsion xususiyatlarini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Ayniqsa, energiya samaradorligi, ekologik barqarorlik va xavfsizlik talablarining ortib borishi yangi avlod materiallarini izlashni taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan, bazalt tolasi asosidagi materiallar materialshunoslikning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Bazalt tolasi tabiiy vulqon jinslari - bazaltni 1400–1500 °C haroratda eritish va undan uzluksiz tolalar hosil qilish orqali olinadi [1].

Bazaltning kimyoviy tarkibi asosan quyidagilardan iborat bo‘lib u tolaga yuqori mexanik mustahkamlik va termik barqarorlik beradi:

- SiO_2- kremniy dioksidi (45–55%);
- Al_2O_3- alyuminiy oksidi (14–20%);
- Fe_2O_3 va FeO- temir oksidlari (10–15%);
- CaO, MgO ishqoriy metall oksidlari.

Bazalt tolasi quyidagi muhim xossalarga ega:

1. Mexanik mustahkamlikva elastiklik.

Bazalt tolalarining tortilishdagi mustahkamligi 2800–5000 MPa oralig‘ida bo‘lib, bu ko‘rsatkich ko‘plab metallardan yuqori. Bu holat kristall tuzilmaning amorf va bir jinsli bo‘lishi bilan izohlanadi. Elastiklik moduli 85–95 GPa atrofida bo‘lib, materialning deformatsiyaga qarshiligini belgilaydi. Bu avtomobil konstruktsiyalarida yuklamalarni samarali taqsimlash imkonini beradi.

2. Termik xususiyatlari o‘ziga xos bo‘lib, ishlash harorati: −260 °C dan +700 °C gacha, issiqlik o‘tkazuvchanligi past hamda termik kengayish

koeffitsientining kichikligi uni avtomobilsozlikda, ayniqsa dvigatel va issiqlik yuqori bo‘lgan zonalarda qo‘llash imkonini beradi.

3. Kimyoviy barqarorlik jihatidan bazalt tolasi kislota va ishqorlarga chidamli, namlikdan deyarli ta’sirlanmaydi hamda korroziyaga uchramaydi [2].

Bazalt tolasi o‘zining fizik-kimyoviy va mexanik xususiyatlari tufayli avtomobilsozlik materialshunosligida muhim o‘rin egallaydi. Nazariy jihatdan qaralganda, u metall va an’anaviy tolalarga nisbatan samaraliroq alternativ hisoblanadi hamda avtomobilsozlikda asosan kompozit materiallar tarkibida ishlatiladi. Kompozitlarning mustahkamligi esa quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

$$\boldsymbol{\sigma_0 = V_f * \sigma_f + V_m * \sigma_m} \qquad (1)$$

Bu yerda,

$\boldsymbol{V_f}$ – tolalar ulushi,

$\boldsymbol{V_m}$ –matritsa ulushi,

$\boldsymbol{\sigma_f}$ – tolalar mustahkamligi,

$\boldsymbol{\sigma_m}$ – matritsaning mustahkamligi.

Bazalt tolasi yuqori qiymati tufayli kompozitning umumiy mustahkamligini sezilarli oshiradi. Avtomobilsozlikda kompozit materiallar qo‘llanilishi transport vositalarining texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini yaxshilashda muhim rol o‘ynaydi. Bazalt tolasi asosidagi kompozitlar ushbu yo‘nalishda yangi bosqichni boshlab bermoqda [3].

Bazalt tolali kompozitlar quyidagi tizimlarda samarali ishlatiladi:

1. Energiya yutuvchi strukturalar;

2. Vibratsiya va akkustik izolyatsiya;

3. Elektr transport vositalari, elektromobillar, batareya korpuslari hamda issiqlik himoya tizimlari uchun bazalt tolasi muhim material hisoblanadi.

4. Aerodinamik elementlar tizimi.

Bazalt tolali kompozitlarning ishlash samaradorligi issiqlik uzatish tenglamalari, deformatsiya kinetikasi va yorilish mexanikasi bilan bog‘liq. Masalan, yorilish tarqalishi Griffit nazariyasi orqali tushuntiriladi:

$$\boldsymbol{G = \sigma^2 * \pi * \alpha / E} \qquad (2)$$

Bu yerda:

$\boldsymbol{G}$ – energiya ajralishi tezligi

$\boldsymbol{\alpha}$ – yoriq uzunligi

$\boldsymbol{E}$ – elastiklik moduli

Bazalt tolasi yorilishning tarqalishini sekinlashtiradi.

Bazalt tolali kompozitlarning qayta ishlanishi mumkinligi, CO_2 chiqindilarini kamaytirishi hamda ishlab chiqarish jarayonidagi energiya sarfining pastligi ularni “yashil texnologiya” sifatida baholash imkonini beradi. Bazalt tolali kompozitlar avtomobilsozlikda yuqori texnologik material sifatida keng istiqbolga

ega. Ularning nazariy asoslari va amaliy qo‘llanilishi sanoat rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. R.X. Saydahmedov, T.O. Almatayev, U.A. Ziyamuxamedova. Materialshunoslik va konstruksion materiallar texnologiyasi. Fan va texnologiya, 2018.

2. B. G‘ulomov. Materialshunoslik asoslari. O‘zbekiston, 2015.

3. William D. Callister Jr. Materials Science and Engineering: An Introduction. John Wiley & Sons, 2014.

4. S.N. Kolesov, I.S. Kolesov. Materialovedenie i texnologiya metallov. Mashinostroenie, 2007.


5. В.И.Берлин, П.С.Костяев, К.Д.Шапкин. «Материаловедение» , Транспорт. 1979.

6. Mirboboyev.V.A Konstruksion materiallar texnologiyasi. -T: O‘qituvchi, 1991.

YEYILGAN SIRPANISH PODSHIPNIKLARNI TA’MIRLASH USULI

prof. Musabekov Z.E., mag. Urakov Xumoyun
Toshkent davlat texnika universiteti,
Tel.: +998 77 340 62 77

Sirpanish podshipniklari (vkladishlar) — bu val bilan bevosita ishqalanishda ishlaydigan tayanch element bo‘lib, ular tirsakli val tayanchlari, shatun podshipniklari, taqsimlash vali tayanchlarida qo‘llaniladi. Yeyilish natijasida tirqish ortadi, moy plyonkasi buziladi, qizish va shovqin paydo bo‘ladi.



1-rasm. Yeyilgan sirpanish podshipniklarni ta’mirlash texnologiyasi

Asosiy sabablar quyidagilar, moylash tizimi nosozligi, moy bosimining pasayishi, nopok moy (abraziv zarrachalar), yuklamaning ortishi, notekis yuk taqsimoti. Metall urilish ovozi, moy bosimining pasayishi, dvigatel qizishi mikrometr yordamida val diametrini o‘lchash, ichki diametrni indikator bilan aniqlash, tirqishni hisoblash:

$$\Delta = D - d$$

Bu yerda:

Δ— tirqish , *D* — podshipnik ichki diametric, *d* — val diametri

Standart yoki ta’mir o‘lchamdagi vkladish qo‘yiladi tirsak vali silliqlanadi (0.25; 0.5; 0.75 mm)

Babbitt yoki bronza qoplama qayta quyiladi - murakkab texnologiya- maxsus uskunalar talab etadi, mexanik ishlov beriladi.

Polimer kompozit bilan tiklash, zamonaviy usul kichik yeyilishlarda samarali. Sirpanish podshipniklarning yeyilishi dvigatel ishonchliligiga jiddiy ta’sir qiladi. Eng samarali ta’mirlash usuli — valni silliqlash va yangi vkladish o‘rnatish hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalar esa resursni yanada oshirish imkonini beradi.

Sirpanish podshipniklarning yeyilishi qayta tiklash jarayonlari:

Eski babbitni eritib olib tashlash, podshipnik qizdiriladi eski babbit metall eritilib chiqariladi, babbitt past haroratda eriydi, shu sababli bu jarayon oson amalga oshadi, tozalash va tayyorlash metall yuzalar yog‘ va kirlardan tozalanadi, bu yangi babbit qatlamining mustahkam yopishishini ta’minlaydi yangi babbit quyish eritilgan babbit maxsus qolip yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri podshipnikka quyiladi ba’zan markazlash uchun val o‘rnatiladi bu eng muhim bosqich — qatlam bir tekis bo‘lishi kerak mexanik ishlov, ichki diametr ishlov berilad kerakli tirqish hosil qilinadi, podshipnik val ustida moy plyonkasi bilan ishlashi uchun aniq o‘lcham kerak yig‘ish va prirabotka podshipnik yig‘iladi past yuklama va moy bilan ishlatib moslashtiriladi bu jarayon ish yuzasini tekislaydi va resursni oshiradi muhim texnologik nuqtalar babbitt — yumshoq qotishma u valni himoya qiladi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019–2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi Qarori.

2. Kadyrov S.M., Musabekov Z.E., Khakimov A.M. Crankshafts of engines of 'Tico‘ and 'Nexia' types, their operational defects, Avtomobil'naya Promyshlennost, https://www.scopus. com/ record/ display. uri?eid = 2-s2.0-31444431947 &origin = recordpage # metrics

3. Kadyrov S.M., Musabekov Z.E. “Electric arc spraying”, restoration of the crankshaft of the D-144 diesel engine. Magazine “Automobile Industry”, No. 9, 2001, p. 25.

4. Tulaev BR, Musabekov ZE, Daminov OO “Application of supercharged to internal combustion engines and increase efficiency in achieving high environmental standards.” AIP Conference Proceedings 2432, 030012 (2022). DOI: 10.1063/5.0090304

5. Musabekov Z.E, Khakimov J.O, Ergashev B. Differential equations for calculating gas exchange in an internal combustion engine. E3S Web of

Conferences 264, 01003 (2021). The International Scientific Conference “Construction Mechanics, Hydraulics and Water Resources Engineering (CONMECHYDRO 2021)”. 1-3 April 2021. Published online: 02 June 2021. DOI: 10.1051/e3sconf/202126401003
6. Musabekov Z., Khakimov J., Yangiboev A., Tairova N., Usmonov J., Petruchenko A. Flow stabilization and pulsation in external channels in fuel engines. (2023) IOP Conference Series: Earth and Environmental Science, 1142 (1), article no. 012022. DOI: 10.1088/1755-1315/1142/1/012022
7. Zakirjon Musabekov, Rustam Tillahodjaev, Abdulla Mirzayev, Avaz Yangibayev, Hilola Uralova. Increasing energy efficiency as a result of the influence on the operation of a Sano automobile engine with the adding of hydrogen as an additive to primary fuel doi:10.1088/1755-1315/1284/1/012038

PEROLI PARMALAR BILAN PARMALASHDA TESHIKNING ANIQLIGI VA YUZANING G‘ADIR-BUDURLIGIGA ASBOB TEBRANISHLARINING TA’SIRI

Prof. Umarov Talibjon Umarovich
Magstrant Ruzmetov Abror Akmal o‘g‘li
Magstrant Xudoyberdiyev Og‘abek Mirzohid o‘g‘li
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti

Mashinasozlikda detallarning tutashish joylarida teshiklarning aniqligi va ularning yuzasining tozaligi mexanizmning uzoq muddat xizmat qilishini belgilovchi asosiy omillardan hisoblanadi. TTZ-AJda ishlab chiqariladigan traktor agregatlarining ko‘plab detallari yuqori aniqlikdagi teshiklarni talab qiladi. Qiyin ishlov beriladigan materiallarni (legirlangan po‘latlar) peroli parmalar bilan teshishda asbobning konstruktiv tuzilishi (uzunligi va nisbatan kamroq tayanch yuzasi) sababli dinamik tebranishlar yuzaga keladi.

Tadqiqotlar TTZ-AJning mexanik ishlov berish sexida, [Masalan: 2N135 yoki 6R12] stanogida o‘tkazildi. Tajriba uchun diametri D = 30 mm bo‘lgan qattiq qotishmali peroli parmalar va [Masalan:
45 yoki 40H] po‘latidan tayyorlangan zagotovkalar olindi. Tebranishlarni o‘lchash uchun vibrodatchiklar va maxsus dasturiy ta’minotdan foydalanildi. Teshikning aniqligi ichki o‘lchagichlar (nutromer) yordamida, g‘adir-budurlik esa profilometr yordamida tekshirildi.

Tebranishlarning tabiati: Peroli parmalashda tebranishlar ikki xil ko‘rinishda bo‘ladi: kesish jarayonidagi kuchlar o‘zgarishi tufayli yuzaga keladigan **avtotebranishlar** hamda stanok yoki asbobning nomutanosibligi sababli kelib chiquvchi **majburiy tebranishlar**. Tadqiqotlarga ko‘ra, surish miqdori ortishi bilan kesish kuchi ham ko‘payadi, bu asbobning elastik deformatsiyalanishiga va tebranish amplitudasining kuchayishiga olib keladi.

Teshikning geometrik aniqligiga ta’siri: Teshikning geometrik aniqligiga asbobning tebranishi va uning konstruktiv o‘lchamlari sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, teshik markazining o‘qdan qochishi tebranish amplitudasi hamda

parmaning chiqib turish uzunligi bilan uning diametri o‘rtasidagi nisbatga bevosita bog‘liqdir. Tajribalar shuni tasdiqlaydiki, parmaning uzunligi uning diametridan besh barovardan ortiq bo‘lganda, teshik diametridagi og‘ish 0.05 mm dan 0.12 mm gacha yetishi mumkin. Shu bilan birga, yuzaning g‘adir-budurligi, ya’ni uning tozalik darajasi asbobning tebranish chastotasi bilan belgilanadi. Peroli parmaning kesish qirrasi ishlov berish jarayonida teshik devoriga muntazam urilishi oqibatida sirtda mikro-notekisliklar paydo bo‘ladi va bu yuzaning sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Kesish tezligi, v (m/min)	**Tebranish amplitudasi (μm)**	**G‘adir-budurlik, Ra (μm)**
15	12	6.3
25	18	4.8
35 (Optimal)	**8**	**2.5**

Jadval ma'lumotlaridan ko‘rinadiki, kesish tezligi v=15 m/min dan v=25 m/min gacha oshganda tebranish amplitudasi vaqtincha ortadi, biroq optimal v=35 m/min tezlikda rezonans zonalaridan o‘tilishi hisobiga amplituda 8 μm gacha pasayib, yuza tozaligi Ra 2.5 ga yetadi.

Texnologik tavsiyalar: TTZ-AJ sharoitida peroli parmalashda yuqori sifatga erishish uchun quyidagilar taklif etiladi:

1. Asbobni mahkamlash: Parmaning chiqib turish uzunligini (L) imkon qadar qisqartirish, bu tizimning qattiqligini 25-30% ga oshiradi.
2. Sovitish usuli: Moylash-sovitish suyuqligini (SOJ) yuqori bosim ostida peroli parma kanallari orqali yuborish. Bu nafaqat issiqlikni oladi, balki qirindini tez chiqarib, asbob tebranishini "so‘ndiradi" (dempfirlash).
3. Kesish rejimi: Qiyin ishlov beriladigan materiallar uchun v = 30-40 m/min va kamroq surish (s
= 0.1-0.15 mm/ayl) rejimlarini qo‘llash.

Xulosa: Tadqiqotlar peroli parmalashda tebranishlarni nazorat qilish orqali teshik aniqligini 9-10-kvalitetgacha oshirish mumkinligini ko‘rsatdi. TTZ-AJ sharoitida legirlangan po‘latlarni qayta ishlashda tebranishlarning kamaytirilishi teshik ovalligini 40% ga, yuza g‘adir-budurligini (Ra) 6.3 dan 2.5 gacha qisqartirdi va brak mahsulotlar ulushini 5-7% ga kamaytirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yakubov F.Y. "Kesish jarayonining dinamikasi". Toshkent, 2021.
2. Umarov T.U. Mashinasozlikda kesuvchi asboblarni loyihalash va ishlab chiqarish. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 244 b.
3. Bobojonov T. "Metallarga kesib ishlov berish". Toshkent: TDTU, 2018.

QUVUR ICHIDA QUVUR TURIDAGI ISSIQLIK ALMASHINISH APPARATINING TERMODINAMIK TAHLILI

Karabayev Asatilla Sunnatillayevich
Toshkent Davlat Texnika universiteti, katta o‘qituvchi,
Nurmatov Taxir Baxtiyarovich
Toshkent Davlat Texnika universiteti, katta o‘qituvchi,
Mirzaliyev Shuxratjon Ilhomjon O‘g‘li
Toshkent Davlat Texnika universiteti, bakalavr

Nakatkalangan quvurlarda issiqlik berish va issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyentlarini aniqlash usuli. Intensivlash usulini tanlash bir qator shartlar bilan belgilanadi. Ulardan eng asosiylari:

1. Issiqlik almashinish qurilmasining gabarit o‘lchamlari va massasini kamaytirish;
2. Issiqlik almashinish jarayonini intensivlash uchun ruxsat etilgan energetik sarflar va uni amalga oshirish uchun bor energiya turi;
3. Issiqlik berish intensivlanadigan oqimning gidrodinamik tarkibi. Issiqlik oqimi zichligining taqsimlanish yoki issiqlik eltkichda temperaturalar maydoni;
4. Issiqlik almashinish qurilmasining tayyorlash texnologiyasiga moyilligi, hamda ekspluatatsiya davrida qulayligi va ishonchliligi.

Undan tashqari, qurilma konstruksiyasi va jarayonning tahlili, issiqlik eltkichni uzatish uchun ruxsat etilgan energiya sarfini aniqlash imkonini beradi. Odatda, energiya sarfi deganda nasosning quvvati nazarda tutiladi. Shuning uchun, qurilma orqali issiqlik eltkichni uzatishda bosimlar yo‘qotilishining yig‘indisi o‘zgarmas bo‘lganda, uning gabarit o‘lchamlarini kamaytirishni ta’minlaydigan intensivlash usullari yaratilishi kerak.

Turbulent oqimning gidrodinamik tarkibini va undan issiqlik almashinishni o‘ziga xos xususiyatlarini bilish, oqimning qaysi sohasida turbulent tebranishlarni intensivlash zarurligini aniqlashga yordam beradi. Ko‘pgina olimlarning ma’lumotlariga binoan, odatda quvur devori yaqinidagi suyuqliklar harakatini jadallashtirish kerakligini hech kim inkor qilmaydi. Odatda, turbulentlik intensivligini oshirish energetik sarflar o‘sishi bilan bog‘liq, ya’ni gidravlik qarshilik koeffitsiyenti ortadi. Shuning uchun, λ_t ni butun oqimda emas, balki devor yaqinida oshirish maqsadga muvofiq. Shunga alohida e’tibor berish kerakki, yaratilgan intensivlash usuli issiqlik almashinish qurilmalarini yasash texnologiyasini tubdan buzmasligi kerak va katta seriyada ishlab chiqarishga moyil bo‘lishi zarur. Bu yerda nafaqat yasash va yig‘ish texnologiyasi nazarda tutilgan, balki oddiy qurilmaga nisbatan narxi ham hisobga olingan bo‘lishi kerak.

"Nakatka" qilish usulida tayyorlangan issiqlik almashinish qurilmasi tekis quvurlardan qurilma yasash texnologiyasidan farq qilmaydi. Lekin, samarador quvurli issiqlik almashinish qurilmasidagi nakatkali quvurlarning umumiy uzunligi, tekis quvurli qurilmanikidan kam bo‘ladi, ya’ni kamroq sarf bo‘ladi.

Shuning uchun ham, ushbu usulda jarayonni intensivlash qurilmaning gabarit o‘lchamlari va massasini 1,5...2,0 marta kamaytirish imkonini beribgina qolmay, balki uning narxini ham arzonlashtirishga erishiladi.

Tajriba davomida standart(silliq) quvur va nakatkalangan quvurlarda ishqalanishda bosim yo‘qotuvlari,(ΔP_{nak} va ΔP_{sil} [Pa])ni (**Re**) Reynolds soniga bo‘gliqligi jadval shaklida keltirilgan (quvur ichida issiq suv harakatlanganda) 1 – jadval.

1-jadval

Re	3000	3500	4000	4500	5000	5500	6000	6500
ΔP_{sil}	43,737	57,445	72,516	88,782	107,064	125,632	146,636	169,063
ΔP_{nak}	88,223	117,998	150,49	185,186	226,722	268,42	314,187	365,828
Re	7000	7500	8000	8500	9000	9500	10000	
ΔP_{sil}	191,073	216,574	242,419	269,922	297,605	327,831	359,12	
ΔP_{nak}	415,996	474,853	534,348	597,439	662,496	733,169	803,473	

Tajriba davomida standart(silliq) quvur va nakatlangan quvurlarda issiqlik berish koeffitsiyentlari ($\boldsymbol{\alpha}_{sil}$ va $\boldsymbol{\alpha}_{nak}$ [Vt/m^{2}K])ni (**Re**) Reynolds soniga bo‘gliqligi jadval shaklida keltirilgan (quvur ichida issiq suv harakatlanganda) 2 – jadval.

2 – jadval.

Re	3000	3500	4000	4500	5000	5500	6000	6500
α_{sil}	768,471	903,687	1019,125	1133,048	1245,79	1357,345	1467,918	1577,574
α_{nak}	1424,112	1674,532	1888,541	2099,73	2308,66	2515,391	2720,31	2923,512
Re	7000	7500	8000	8500	9000	9500	10000	
α_{sil}	1686,393	1794,375	1901,758	2008,384	2113,375	2219,841	2324,712	
α_{nak}	3125,172	3325,281	3524,28	3721,876	3916,443	4113,742	4308,086	

ADABIYOTLAR

1. Калинин Э.К., Дрейцер Г.А., Копп И.З., Мякочин А.С. «Эффективные поверхности теплообмена». М.: Энергоатомиздат, 1998 г. 407 с.
2. Каримов К.Ф., Карабаев А.С., Маслов А.В., Азизов Д.Х. “Термодинамический анализ потерь компрессорно-конденсаторного узла холодильной установки”. Международная научно-практическая конференция «Современные энергосберегающие тепловые технологии (Сушка и термовлажностная обработка материалов)». 28-31 Мая 2002 г. Москва.

BRASSES AND BRONZES AS CASTING ALLOYS: PROPERTIES, DEFECTS, AND CASTING TECHNOLOGY

PhD student Mokhinur Rakhmonova, associate professor Sarvar Tursunbaev, master student Tatlimurat Kalendarov
Tashkent state technical university, 100095, University 2, Tashkent, Uzbekistan.

Copper alloys occupy an important place among engineering materials due to their unique combination of mechanical, physical, and chemical properties. They are widely used in various branches of industry, including mechanical engineering, shipbuilding, energy, and chemical equipment manufacturing. The demand for copper alloys is primarily due to their high strength, good ductility, excellent corrosion resistance, and favorable antifriction properties. These properties make them especially suitable for producing parts operating under conditions of friction, aggressive environments, and variable loads.

In modern foundry practice, copper-based alloys are considered one of the key groups of non-ferrous casting materials. Among them, brasses and bronzes have found the widest application due to their good castability and the ability to tailor their properties through alloying. The structure and properties of these alloys largely depend on their chemical composition, cooling conditions, and casting technology, which determines their performance in service [1].

The piston is undeniably the most heavily tortured component within the architecture of an internal combustion engine (ICE). It is forced to operate continuously under severe thermodynamic extremes, battling a relentless combination of high-intensity cyclic mechanical loads, immense combustion pressures, and sharp, instantaneous thermal shifts.

Achieving peak efficiency is the ultimate endgame for modern combustion engineers. This involves drastically cutting down parasitic frictional losses while simultaneously optimizing the fuel burn to the highest possible degree. Because the piston serves as the primary moving boundary of the combustion chamber, it bears the direct responsibility of translating the violent thermal energy of an ignited air-fuel mixture into smooth, usable mechanical movement. For decades, the industry standard relied heavily on eutectic and near-eutectic aluminum-silicon (Al-Si) alloys. These materials were favored because they were incredibly lightweight, easy to cast, and conducted heat reasonably well. However, as manufacturers downsize engines and strap on aggressive turbochargers to meet modern power demands, these traditional aluminum alloys are hitting a hard metallurgical wall. At temperatures exceeding 300°C, their tensile strength drops precipitously. They become highly susceptible to high-cycle thermal fatigue, particularly around the delicate edges of the piston bowl where the combustion flame front hits the hardest.

Recent metallurgical studies have heavily scrutinized the failure modes of standard ICE pistons. When an engine is running at full load, the piston crown is repeatedly subjected to temperature spikes that can exceed 400°C within fractions of a millisecond. Conventional Al-Si alloys attempt to manage this heat through rapid conduction down to the piston rings and the oil cooling jets. Yet, continuous exposure to these thermal gradients inevitably leads to micro-cracking. Over time, these microscopic fissures propagate through the substrate, eventually leading to catastrophic mechanical failure or severe crown erosion. The consensus among current researchers is clear: to survive the next generation of ultra-high-pressure combustion, the foundational material of the piston must fundamentally change.

To bridge the critical gap between the lightweight nature of aluminum and the rugged, unyielding durability of steel, automotive metallurgists are taking two distinct paths. The first is the resurgence of forged steel pistons, not just in heavy-duty commercial diesels, but now actively making their way into light-duty passenger vehicles. Modern steel alloys, when forged rather than cast, offer exceptional structural rigidity. This allows engineers to design pistons with significantly shorter compression heights and thinner skirts, ultimately offsetting

the weight penalty typically associated with steel.

The second, and perhaps more revolutionary path, is the development of Metal-Matrix Composites (MMCs). By taking a standard aluminum matrix and reinforcing it with microscopic ceramic fibers or particles—such as Silicon Carbide or Alumina—engineers can create a hybrid material that boasts significantly higher fatigue resistance.

Changing the core material is only half the battle. The surface of the piston crown interacts directly with the combusting gases, making it a prime candidate for advanced surface treatments. Thermal Barrier Coatings (TBCs) have transitioned from aerospace applications down to the automotive sector. By utilizing plasma-spraying techniques, engineers can apply a microscopic layer of Yttria-Stabilized Zirconia (YSZ) or newer Gadolinium Zirconate ceramics directly onto the piston crown.

This ceramic layer serves a brilliant dual purpose. First, it acts as a thermal shield, actively protecting the underlying metal substrate from the devastating peak temperatures of the flame front. Second, and more importantly for engine efficiency, it severely restricts heat from escaping the combustion chamber. By trapping that thermal energy inside the cylinder, the expanding gases exert more downward force on the piston, directly translating to increased engine torque and improved fuel economy.

It is also worth noting how modern manufacturing techniques are reshaping piston architecture. Traditional casting methods severely limit the internal geometry of a piston. However, the advent of Additive Manufacturing (specifically Selective Laser Melting or 3D printing of metals) has allowed designers to create complex, organic-looking internal cooling galleries that were previously impossible to manufacture. These advanced cooling channels route lubricating oil directly behind the hottest zones of the piston ring grooves, dropping operating temperatures by an astonishing 30 to 40 degrees Celsius compared to conventional designs.

The material science behind internal combustion engine pistons is currently undergoing a profound and necessary transformation. While basic aluminum-silicon alloys may still find a place in low-stress, economy engines, the relentless pursuit of thermal efficiency and emission reduction is driving the vanguard of the industry toward high-strength forged steels and nano-reinforced composites.

References:

1. Zhang, L., et al. (2024). "Effects of the Piston Skirt's Surface Structure on Coating Quality and Friction Functions." Coatings, 14(11), 1385. DOI: https://doi.org/10.3390/coatings14111385

2. Kumar, S., & Charoo, M.S. (2024). "Evaluation of Tribological Properties of Different Coatings on Automotive Piston Rings: A Review." Journal of Materials and Engineering, 2(4), 288-302. DOI: https://doi.org/10.61552/JME.2024.04

СНИЖЕНИЕ НЕСТАБИЛЬНОСТИ РАБОТЫ ГИБРИДНОГО ДВС ПРИ РЕСТАРТЕ ЗА СЧЕТ УПРАВЛЕНИЯ ПЕРЕХОДНЫМИ ПРОЦЕССАМИ

Евфратов Данияр Жанатович[1], Булатов Нуржан Кажмуратович[2]
[1] докторант 2 курса, [2] к.т.н., ассоциированный профессор
[1] КАТИУ им. С. Сейфуллина, г. Астана, [2] Кокшетауский университет им. А. Мырзахметова, г. Кокшетау

В гибридных силовых установках двигатель внутреннего сгорания работает в условиях частых остановок и повторных запусков. В этих режимах значительная часть времени приходится на переходные процессы, при которых параметры рабочего цикла не успевают стабилизироваться. Это проявляется в нестабильной работе двигателя в первые секунды после рестарта [1,2].

После остановки происходит частичное охлаждение элементов цилиндра. В момент запуска условия смесеобразования и воспламенения отличаются от установившихся, что напрямую влияет на устойчивость работы двигателя [1,3].

Рассматривались переходные процессы при рестарте гибридного ДВС. Анализ основан на обобщении современных решений в области управления, а также наблюдениях при работе на моторном стенде [2,3].

Нестабильность оценивалась по косвенным признакам: характер запуска, равномерность работы в первые секунды и отклонения параметров рабочего процесса.

В момент рестарта двигатель работает в условиях неполной тепловой стабилизации. Это вызывает отклонения в смесеобразовании и задержку выхода на устойчивый режим [2,3]. В ходе работы на моторном стенде наблюдались колебания частоты вращения двигателя при повторных запусках после кратковременной остановки. Наиболее выраженная нестабильность фиксировалась в первые циклы после рестарта, что подтверждает влияние переходных процессов. Оценка проводилась по изменению частоты вращения коленчатого вала в первые секунды после запуска.

Таблица 1 – Влияние факторов переходного режима на нестабильность работы гибридного ДВС при рестарте

Фактор	**Проявление при рестарте**	**Влияние на работу двигателя**
Пониженная температура стенок цилиндра	Ухудшение испарения топлива	Нестабильное сгорание в первых циклах
Наличие топливной пленки	Локальное переобогащение смеси	Колебания частоты вращения

Остаточные газы	Изменение состава рабочей смеси	Задержка воспламенения
Параметры впрыска	Отклонение от оптимального режима	Неравномерная работа двигателя
Фазы газораспределения	Изменение газообмена	Нестабильность переходного процесса

Снижение нестабильности возможно за счет согласованного управления параметрами рабочего процесса.

Таблица 2 – Влияние параметров управления на снижение нестабильности работы гибридного ДВС при рестарте

Параметр управления	**Изменение процесса**	**Результат**
Коррекция впрыска	Стабилизация состава смеси	Уменьшение колебаний работы
Адаптация фаз впуска	Регулирование остаточных газов	Более плавный запуск
Сдвиг фаз выпуска	Ускорение выхода на рабочий режим	Снижение нестабильности
Комплексное управление	Согласование параметров	Устойчивая работа в первые секунды

Нестабильность работы гибридного ДВС при рестарте связана с переходными режимами и неполной тепловой стабилизацией. Это приводит к отклонениям в смесеобразовании и сгорании в начальный период после запуска. Снижение нестабильности достигается при согласованном управлении фазами газораспределения, впрыском и параметрами переходного процесса с учетом текущего состояния двигателя. Практически это означает, что управление рестартом не должно ограничиваться только подачей топлива. Более устойчивый результат может быть получен при согласовании впрыска, фаз газораспределения и режима выхода двигателя на холостой ход. Такой подход позволяет уменьшить резкие отклонения в первые секунды после запуска и снизить нагрузку на элементы двигателя.

Литература

1. Su Y., Hu M., Huang J. Experimental and characteristic analysis during the engine start-up process for a hybrid electric vehicle // Applied Sciences. – 2021.
2. Jiang Y. et al. Impacts of cold starts and hybrid electric vehicles on vehicle emissions // Transportation Research Part D. – 2023.
3. Wu X. et al. Impacts on real-world cold start emissions: fuel injection and operating conditions // Environmental Science. – 2023.

ISHLATILGAN MOTOR MOYLARINI KOMPLEKS TOZALASH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH

Xushnayev O.A. (PhD), Orakbaeva G.S. (magistratura talabasi)
(Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent)

Hozirgi kunda jahonda va Respublikamizda avtomobillar sonining jadal sur'atlarda ortishi transport sohasida bir qator ekologik va resurs muammolarini keltirib chiqarmoqda. Jumladan, avtomobil dvigatellarida qo‘llaniladigan motor moylarining xizmat muddati tugagach, ular katta miqdorda chiqindi sifatida yig‘ilib bormoqda. Statistik ma'lumotlarga ko‘ra, ishlatilgan motor moylarining katta qismi qayta ishlanmasdan atrof-muhitga tashlanmoqda yoki noto‘g‘ri usullarda yo‘q qilinayotgani kuzatilmoqda.

Ishlatilgan motor moylari tarkibida og‘ir metalllar (qo‘rg‘oshin, kadmiy, temir zarrachalari), poliaromatik uglevodorodlar, smola va oksidlanish mahsulotlari mavjud bo‘lib, ular tuproq, yer osti suvlari va atmosferaga jiddiy zarar yetkazadi. Bir litr ishlatilgan motor moyi hatto minglab litr suvni ifloslantirishi mumkinligi ekologik xavfning qanchalik yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, zamonaviy iqtisodiyot sharoitida resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash va “yashil texnologiyalar”ni joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Motor moylari neft mahsuloti bo‘lganligi sababli, ularni qayta tiklash orqali tabiiy resurslarni tejash va iqtisodiy samaradorlikka erishish mumkin.

Hozirgi vaqtda ishlatilgan motor moylarini tozalashning turli usullari mavjud bo‘lib, ular orasida mexanik filtratsiya, termik qayta ishlash, vakuum distillyatsiya va adsorbsiya usullari keng qo‘llaniladi. Biroq ushbu usullarning ayrimlari yuqori energiya sarfi, katta xarajat yoki texnologik murakkablik bilan tavsiflanadi. Shu sababli sodda, arzon va samarali kompleks texnologiyalarni ishlab chiqish zarurati mavjud.

Mazkur tezisda aynan shu muammoni hal etishga qaratilgan holda, ishlatilgan motor moylarini bir necha bosqichli filtratsiya, sentrifugalash va adsorbsiya asosida kompleks tozalash texnologiyasini ishlab chiqish va uning samaradorligini baholash maqsad qilib olingan.

Ushbu ishning dolzarbligi, bir tomondan, atrof-muhit muhofazasi bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan, iqtisodiy jihatdan samarali va amaliy joriy etish imkoniyati mavjud bo‘lgan texnologiyani taklif etishi bilan izohlanadi [1,2,3].

1. Dag‘al filtratsiya bosqichi

Ishlatilgan motor moylarini tozalash jarayonida dastlabki va muhim bosqich sifatida dag‘al filtratsiya amalga oshiriladi. Ushbu bosqichning asosiy maqsadi moy tarkibida mavjud bo‘lgan yirik mexanik aralashmalarni ajratib olishdan iborat. Bunday aralashmalarga metall parchalari, dvigatel ishlash jarayonida hosil bo‘ladigan qum, chang zarrachalari, karbon qoldiqlari va boshqa qattiq iflosliklar kiradi.

Dag‘al filtratsiya jarayoni odatda tortish kuchiga asoslangan holda amalga oshiriladi, ya'ni moy filtr muhiti orqali o‘tkaziladi. Filtr muhiti sifatida ko‘p

qatlamli materiallar — mato, qum, filtr qog‘ozi yoki maxsus sintetik filtr elementlari qo‘llanilishi mumkin. Ko‘p qatlamli filtrlar zarrachalarni o‘lchamiga qarab bosqichma-bosqich ushlab qolish imkonini beradi.

Ushbu bosqichda asosan 50-100 mikrondan katta bo‘lgan zarrachalar samarali ravishda ajratib olinadi. Dag‘al filtratsiyaning afzalligi uning soddaligi, arzonligi va amalga oshirish osonligida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, ushbu bosqich keyingi tozalash jarayonlarining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega, chunki yirik zarrachalarning oldindan ajratib tashlanishi sentrifugalash va adsorbsiya jarayonlarida uskunalarning ishlashini yengillashtiradi va ularning xizmat muddatini uzaytiradi.

Dag‘al filtratsiya samaradorligi quyidagi formula orqali hisoblab topiladi:

$$\eta_f = \frac{m_0 - m_1}{m_0} \cdot 100\%$$

Bu yerda:

m_0 – boshlang‘ich ifloslik massasi;

m_1 – filtratsiyadan keyingi ifloslik massasi. Odatda samaradorlik 40-50% tashkil etadi. 1-rasmda dag‘al filtratsiya jarayoni keltirib o‘tilgan.



1-rasm. Dag‘al filtratsiya jarayoni

Biroq, dag‘al filtratsiya mayda dispersli zarrachalarni va moyda erigan kimyoviy birikmalarni to‘liq ajratib olish imkoniyatiga ega emas. Shu sababli u kompleks tozalash tizimining faqat dastlabki bosqichi sifatida qaraladi.


2. Sentrifugalash bosqichi

Dag‘al filtratsiyadan o‘tgan moy keyingi bosqichda sentrifugalash jarayoniga yuboriladi. Sentrifugalash - bu markazdan qochma kuch ta’siriga asoslangan fizik ajratish usuli bo‘lib, u turli zichlikka ega bo‘lgan moddalarni samarali ravishda ajratish imkonini beradi.

Ushbu jarayonda moy maxsus baraban yoki rotor ichida yuqori tezlikda aylantiriladi. Aylanish natijasida hosil bo‘lgan markazdan qochma kuch ta’sirida og‘ir zarrachalar (metall mikrozarrachalar, smola va shlam qoldiqlari) tashqi devorlarga siljiydi va u yerda to‘planadi. Yengil fraksiyalar esa markaz qismida qoladi va keyingi bosqichga o‘tadi.

Sentrifugalash jarayonining asosiy ustunligi shundaki, u dag‘al filtratsiya orqali ajratilmagan 5-50 mikron o‘lchamdagi zarrachalarni ham samarali ajratish imkonini beradi. Bu esa moyning fizik tozaligini sezilarli darajada oshiradi.

Bundan tashqari, sentrifugalash jarayonida suv va moy aralashmalari ham qisman ajratiladi, chunki ularning zichligi turlicha. Bu holat moyning sifatini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.



2-rasm. Sentrifugali tozalash qurilmasi

Shu bilan birga, sentrifugalash uskunalari ma’lum darajada energiya sarfini talab qiladi va qurilmaning konstruksiyasi nisbatan murakkab hisoblanadi (2-rasm). Biroq, uning yuqori samaradorligi va chuqur tozalash imkoniyati uni kompleks texnologiyaning muhim qismiga aylantiradi.

3. Adsorbsiya bosqichi

Kompleks tozalash texnologiyasining yakuniy va eng muhim bosqichlaridan biri adsorbsiya jarayoni hisoblanadi. Ushbu bosqichda moy tarkibida qolgan mayda dispersli zarrachalar, oksidlanish mahsulotlari, rang beruvchi birikmalar va noxush hidlarni bartaraf etish amalga oshiriladi.

Adsorbsiya - bu moddalarning qattiq yuzada yutilib qolishiga asoslangan fizik-kimyoviy jarayon bo‘lib, u maxsus sorbentlar yordamida amalga oshiriladi. Amaliyotda eng ko‘p qo‘llaniladigan sorbentlarga aktiv ko‘mir, bentonit glinasi, silikagel va alyumosilikatlar kiradi.


Jarayon davomida moy sorbent qatlami orqali o‘tkaziladi. Sorbent yuzasi yuqori darajada g‘ovakli tuzilishga ega bo‘lganligi sababli, u moy tarkibidagi zararli komponentlarni o‘z yuzasiga yutib oladi. Natijada moyning rangi ocharadi, hidi yaxshilanadi va fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari tiklanadi.

Adsorbsiya jarayoni ayniqsa moy tarkibidagi kolloid holatdagi va kimyoviy bog‘langan ifloslikларni bartaraf etishda yuqori samaradorlikka ega. Bu esa uni oldingi bosqichlardan farqli ravishda chuqur tozalash usuli sifatida tavsiflaydi.

Quyida adsorbsiya jarayonining soddalashtirilgan tenglamasi keltirib o‘tilgan.

$$q = \frac{(C_0 - C_e) \cdot V}{m}$$

bu yerda, q - adsorbsiya miqdori, C_0 - boshlang‘ich konsentratsiya, C_e - yakuniy konsentratsiya, V – hajm, m - adsorbent massasi. Odatda bu jarayonda samaradorlik 70-85% tashkil etadi.



3-rasm. Adsorbsiya jarayoni

Ushbu bosqichning afzalliklari qatoriga uning nisbatan soddaligi, yuqori samaradorligi va moy sifatini sezilarli darajada yaxshilash imkoniyati kiradi. Biroq, sorbentlarning vaqt o‘tishi bilan to‘yinishi va ularni almashtirish zarurati muayyan ekspluatatsion xarajatlarni talab qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ishlatilgan motor moylarini kompleks tozalash texnologiyasi samarali, iqtisodiy jihatdan maqbul va amaliyotda qo‘llash mumkin bo‘lgan usul hisoblanadi. Ushbu texnologiyani keng joriy etish orqali ekologik muammolarni kamaytirish va resurslardan samarali foydalanishga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirzaabdullayev J.B. Yonilg‘i va moylash materiallari. Yonilg‘ilar. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: «Impress media» MCHJ, 2022. – 183 b.

2. Xushnayev O.A. Yonilg‘i va moylash materiallari. Uslubiy ko‘rsatmalar. - Toshkent: TDTU, 2018. – 43 b.

3. Xushnayev O.A. Ximmatologiya fanidan laboratoriya ishlarini bajarish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar. – Toshkent: TDTU, 2025. – 46 b.

CHARACTERISTICS OF THERMAL MANAGEMENT AND COOLING SYSTEMS IN ELECTRIC AND VEHICLES

Tashkent State Technical University named after Islam Karimov
Jakhongir Bakhtiyorovich Mirzaabdullayev, Docent
Sheraliyev Ulug'bek Shermat o'g'li, Master Student.

Introduction

Nowadays, global environmental challenges and the need for efficient use of energy resources require the introduction of advanced technologies in the automotive industry. For this reason, electric vehicles (EVs) are rapidly developing as an alternative to conventional internal combustion engine (ICE) vehicles. EVs are distinguished by their lower environmental impact, higher energy efficiency, and the integration of modern, innovative technologies.

However, the efficient operation of these vehicles largely depends on their thermal management system. In particular, maintaining optimal temperatures for batteries and electronic components is crucial for ensuring their performance, safety, and long service life. The aim of this work is to study the thermal management system in electric vehicles and compare it with that of internal combustion engine vehicles.

Cooling System in Internal Combustion Engines In internal combustion engine vehicles, thermal energy is generated as a result of fuel combustion. This process produces extremely high temperatures, and if not properly controlled, it can lead to engine failure. The main components of the cooling system include the radiator, thermostat, water pump, and cooling fan. This system removes heat from the engine using a coolant (antifreeze). The operating principle is based on the circulation of heated coolant from the engine to the radiator, where it is cooled before being recirculated back into the engine. However, this system can lead to energy losses and, in some cases, there is still a risk of engine overheating. Thermal Management in Electric Vehicles Unlike internal combustion engines, electric vehicles do not involve a combustion process, but heat generation still occurs. The primary sources of heat in EVs are the battery, electric motor, and inverter. The optimal operating temperature for electric vehicles is typically within the range of 20–40°C. An increase in temperature reduces battery efficiency, shortens its lifespan, and negatively affects safety. Therefore, thermal management systems in EVs perform not only cooling but also heating functions. These systems are automatically controlled through advanced sensors and electronic control units, ensuring precise temperature regulation under various operating conditions.

Battery Cooling Systems the battery is the most critical and sensitive component of an electric vehicle. Overheating can reduce its capacity and may lead to a dangerous condition known as *thermal runaway*. If this process becomes uncontrolled, it can result in fire or even explosion.

There are several methods of battery cooling. Air cooling is simple and cost-effective, but its efficiency is relatively low. Liquid cooling is the most widely used and effective method, as it quickly dissipates heat. Phase-change cooling

absorbs heat through evaporation, providing high efficiency, but it is more complex and expensive to implement. In modern electric vehicles, liquid-based cooling systems are predominantly used due to their high efficiency and reliability.

Table 1. Comparison of Thermal Management Systems in ICE and EV Vehicles

Feature	Internal Combustion Engine (ICE)	Electric Vehicle (EV)
Heat Source	Combustion process	Battery and electronics
Temperature Range	High (90–120°C)	Low (20–40°C)
System Function	Prevent overheating	Maintain optimal temperature
Complexity	Relatively simple	Complex and intelligent
Safety Requirement	Moderate	High

Modern Technologies today, thermal management systems in electric vehicles are rapidly advancing. Intelligent control systems monitor temperature in real time using sensors and automatically adjust cooling or heating processes. For example, in Tesla electric vehicles, advanced liquid cooling systems and battery thermal management technologies are implemented to achieve maximum performance and efficiency. In the future, systems based on artificial intelligence are expected to further improve thermal management by optimizing temperature control, reducing energy consumption, and enhancing overall system reliability.

In conclusion, the thermal management system in electric vehicles is more complex and critical compared to that of conventional vehicles. Maintaining optimal battery temperature directly affects the efficiency, safety, and lifespan of the vehicle. Therefore, the development of advanced cooling technologies is considered one of the key directions in the evolution of the electric vehicle industry. In the future, these systems will continue to improve, contributing to the creation of more efficient, reliable, and safer transportation solutions.

References

1. International Energy Agency. Global EV Outlook 2023. Paris: IEA, 2023.
2. Society of Automotive Engineers. Thermal Management Systems for Electric Vehicles. SAE Technical Papers, 2020.
3. James Larminie, John Lowry. Electric Vehicle Technology Explained. Wiley, 2012.
4. Mehrdad Ehsani, Yimin Gao. Modern Electric, Hybrid Electric, and Fuel Cell Vehicles. CRC Press, 2018.
5. U.S. Department of Energy.Electric Vehicle Thermal Management Systems. energy.gov
6. MDPI. Battery Thermal Management Systems in Electric Vehicles – Review Article, 2021.
7. Elsevier.Journal of Power Sources – Battery cooling and thermal runaway studies.

AVTOMOBILSOZLIK SANOATINING RIVOJLANISHI VA DVIGATEL ISHLAB CHIQARISH ISTIQBOLLARI

Turdiyev J.P. (v.v.b. dotsent), Saparaliyev S.Z. (talaba)
(Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent)

Ushbu maqolada avtomobilsozlik sanoati zamonaviy iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. U nafaqat transport vositalarini ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadi, balki boshqa ko‘plab sanoat tarmoqlarining rivojlanishiga ham kuchli turtki beradi. Avtomobilsozlik mamlakatning sanoat salohiyatini belgilaydigan asosiy omillardan biri bo‘lib, uning rivojlanishi iqtisodiy o‘sish, yangi ish o‘rinlari yaratish va texnologik taraqqiyot bilan bevosita bog‘liqdir.

Avtomobilsozlik sanoati ko‘p tarmoqli tizim bo‘lib, u metallurgiya, neft-kimyo, to‘qimachilik, rezina-texnika, asbobsozlik, elektrotexnika va elektronika sanoatlari bilan chambarchas bog‘liq holda faoliyat yuritadi. Birgina avtomobil ishlab chiqarish sohasidagi bir ish o‘rni boshqa sohalarda kamida sakkizta ish o‘rni yaratilishiga xizmat qiladi. Bu esa uning multiplikativ iqtisodiy ta’sirini yaqqol ko‘rsatadi.

Masalan, Rossiyada avtomobilsozlik sanoatida 900 mingdan ortiq kishi ishlaydi va bu tarmoq 30 millionga yaqin aholining turmush darajasiga ta’sir ko‘rsatadi. Bu raqamlar avtomobilsozlikning ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatini yanada yorqin namoyon etadi.

Tarixan qaraganda, aynan avtomobilsozlik sanoati AQSh, Yaponiya, Fransiya, Angliya va Janubiy Koreya kabi davlatlarni yuqori darajada rivojlangan mamlakatlarga aylantirishda muhim rol o‘ynagan. Hozirgi kunda esa Xitoy, Ispaniya va boshqa mamlakatlar ham ushbu yo‘nalishda jadal rivojlanmoqda.

Zamonaviy avtomobilsozlik sanoati yuqori texnologiyalarga asoslangan bo‘lib, transport vositalarining konstruksiyasini takomillashtirish va ishlab chiqarish jarayonlarini doimiy ravishda yangilab borishni talab qiladi. Bu jarayonda yuqori samarali uskunalar, avtomatlashtirilgan liniyalar va raqamli boshqaruv tizimlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Ishlab chiqarilayotgan transport vositalarining ishonchliligi, chidamliligi va ekspluatatsiya xarajatlari ko‘p jihatdan aynan ishlab chiqarish texnologiyasiga bog‘liqdir. Shuning uchun ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish, resurs tejovchi texnologiyalarni joriy etish ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

Funksional, konstruktiv va texnologik omillar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni chuqur anglash loyihachilar uchun muhim ahamiyatga ega. Bu bilimlar yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayonini soddalashtirish, vaqt va mehnat sarfini kamaytirish imkonini beradi.

Zamonaviy muhandislik yechimlari quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- kam chiqindili ishlab chiqarishni ta’minlash
- resurs va energiya tejamkorlik
- avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlaridan foydalanish
- mahsulot sifatini oshirish va xarajatlarni kamaytirish

Bu esa raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishning asosiy sharti hisoblanadi.
Avtomobilsozlik sanoatining eng muhim qismlaridan biri bu dvigatel ishlab chiqarish hisoblanadi. Hozirgi kunda ushbu yo‘nalishda quyidagi asosiy tendensiyalar kuzatilmoqda:

1. Ekologik toza dvigatellar

An’anaviy ichki yonish dvigatellari o‘rnini bosuvchi elektr va gibrid dvigatellarga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Bu esa atmosferaga chiqariladigan zararli moddalarni kamaytirishga xizmat qiladi.

2. Elektrodvigatellar rivoji

Elektromobillar uchun dvigatellar ishlab chiqarish tez sur’atlarda o‘smoqda. Ular kam shovqinli, samarali va energiya tejamkorligi bilan ajralib turadi.

3. Innovatsion materiallar

Dvigatel qismlarini ishlab chiqarishda yengil va mustahkam materiallardan foydalanish orqali ularning samaradorligi oshirilmoqda.

4. Aqlli boshqaruv tizimlari

Zamonaviy dvigatellar sun’iy intellekt va sensorlar yordamida boshqarilib, yoqilg‘i sarfini optimallashtirish va ishlash samaradorligini oshirish imkonini beradi.

5. Gibrid texnologiyalar

Gibrid dvigatellar an’anaviy va elektr energiyasini birlashtirib, yuqori samaradorlikka erishishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda avtomobilsozlik sanoati iqtisodiyotning strategik tarmog‘i bo‘lib, u ko‘plab boshqa sohalarning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va innovatsion yondashuvlardan foydalanish ushbu tarmoqning samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.
Ayniqsa, dvigatel ishlab chiqarish sohasidagi yangi tendensiyalar — elektrlashtirish, ekologik tozalik va raqamli boshqaruv — kelajakda avtomobilsozlik sanoatining asosiy rivojlanish yo‘nalishlarini belgilab beradi. Shu bois, bu sohada ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarni keng joriy etish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:


1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida 2020 yil 5 oktyabrdagi PF-6079-son Farmoni. www.lex.uz.
2. Karunin A.L. Texnologiya dvigatelestroyeniya. Uchebnik, 3-chi nashr. – M.: Vissh. Shk., 2006. – 608 s.
3. Umerov F.Sh., Turdiye J.P. Texnologiya dvigatelestroyeniya. Konspekt leksiy. – Tashkent: TashGTU, 2021. – 98 s.

ICHKI YONUV DVIGATELLARIDA MEXATRON PID-BOSHQARUVLI SOVITISH TIZIMIGA O‘TISH SABABLARI

Turdiyev J.P. (v.v.b. dotsent), Mamatqulov D.O‘. (talaba)
(Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent)

Dvigatelning issiqlik sharoitidagi o‘zgarishlarning sabablari iqlim sharoitlari, yuklama va tezlik sharoitlari, qismlarning texnik holati va boshqalar. Alohida tizimlar, komponentlar va yig‘ilishlarning konstruktiv xususiyatlari ularning har birining yeyilishiga turli xil ta’sir ko‘rsatadi.

Suyuqlik bilan sovitiladigan dvigatellar uchun sovutish suyuqligi haroratini 85-105 °C, moy harorati 90-115 °C oralig‘ida saqlash tavsiya etiladi.



1- benzinli; 2 – dizel dvigatellari.

1-rasm. Benzinli va dizel dvigatellari silindrlarining nisbiy eskirish tezligining sovutish suyuqligi haroratiga bog‘liqligi (NAMI ma’lumotlariga ko‘ra)

Haroratning belgilangan qiymatlardan pastga va yuqoriga qarab og‘ishi dvigatel qismlarining yeyilishini kuchayishiga olib keladi. Dvigatel harorati oshib ketganda, yonish kamerasini tashkil etuvchi alyuminiy qismlari erishi mumkin, motor moylarini kokslash jarayonlari kuchayadi, yuzalarda lak cho‘kindilarining shakllanishi va boshqalar. Moy suyulishi tufayli silindrning yeyilishi ortadi. Dvigatelning ishchi haroratining sezilarli darajada tarqalishi qismlarning termal kengayishi qo‘yimlarga salbiy ta’sir qiladi. Bundan tashqari, azot oksidi NO_x emissiyasi bo‘yicha chiqindi gazlarning zaharliligi oshadi va umuman texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlar yomonlashadi. Dvigatelning barqaror issiqlik rejimini saqlash uning uzoq muddatli va uzluksiz ishlashining eng muhim shartdir.

Aksariyat zamonaviy avtomobillarda sovutish suyuqligining harorati 92 °C dan oshganda, vetilyator past aylanish tezligida yoqiladi, agar sovutish suyuqligi harorati maksimal qiymatlarga erishilgunga qadar ko‘tarilsa, proportsional ravishda ortadi.

Elektron rele ventilyator tezligini faqat dvigatel ishlayotganida va oldindan belgilangan ratsional harorat sharoitida boshqaradi. Dvigatelning normal issiqlik sharoitlarini ta’minlash uchun radiator ventilyatorni yoqish va o‘chirish uchun chegara haroratlari o‘rnatiladi, bu elektron boshqaruv bloki tomonidan birinchi marta yoqilganda avtomatik ravishda sodir bo‘ladi. Ushbu sxemada nosozlik yuzaga kelsa, ventilyator dvigatel elektron boshqaruv blokidan yoqiladi va o‘chiriladi.

Adabiyot manbalariga asoslanib, ichki yonuv dvigatellarini yuqori haroratli sovutish tizimiga aylantirishning ijobiy va salbiy tomonlari ko‘rib chiqiladi. Yuqori haroratli sovutish tizimlariga ega dvigatellarni ishlatish bo‘yicha to‘plangan tajriba shuni ko‘rsatadiki, ulardan foydalanish ηe samaradorligini oshirishga yordam beradi va eng ko‘p termal kuchlanishga duchor bo‘lgan qismlarning yuklamasini kamaytirish, ularning harorat o‘zgarishini kamaytirishga olib keladi.

Ammo ichki yonuv dvigatellarini nominal quvvatda yuqori haroratli sovutishdan foydalanish ularning ishlashini ta’minlaydigan qismlarning harorat darajasi bilan cheklangan.

Nashr etilgan eksperimental ma’lumotlarga asoslangan dastlabki hisob-kitoblar shuni ko‘rsatadiki, ichki yonuv dvigatelining barcha ish rejimlarida yonish kamerasini o‘rab turgan eng qizigan qismlarning harorati nominal quvvat rejimida harorat darajasida saqlanishini ta’minlaydigan YuXST dan foydalanish qisman yuklama rejimlarida samaradorlikning oshishi va sovutish tizimidagi kerakli bosimning sezilarli darajada oshishini beradi.

YuXST tizimi ichki yonuv dvigatelining barcha ish rejimlarida yonish kamerasini o‘rab turgan eng qizdirilgan qismlarning harorati maqbul darajada saqlanishini ta’minlashi, maqbul darajada samaradorlikning oshishini ta’minlashi taklif etiladi. sovutish tizimidagi bosimning oshishi, past yuk sharoitida ruxsat etilgan sovutish suvi haroratini cheklash. Hozirgi vaqtda YuXST tizimlari keng tarqalmoqda va turli xil konstruktsiya xususiyatlari va ish sharoitlari ularni ikki guruhga bo‘lish imkonini beradi. Birinchisi, sovutish bo‘shliqlari ichidagi bug‘lanish bilan. Qaynayotgan sharoitda issiqlik uzatish koeffitsienti sezilarli darajada oshadi. Shu munosabat bilan, ushbu turdagi YuXST tizimlarining optimal harorati rivojlangan sirt qaynashi sodir bo‘ladigan haroratni hisobga olish kerak.

Dvigatel chiqishidagi suyuqlik harorati 100 ºC dan biroz yuqori bo‘lgan yuqori haroratli sovutishga o‘tishga yuqori qaynaydigan suyuqliklar, masalan, qaynash nuqtasi 115 ºC ga yetadigan, tijoratda ishlab chiqarilgan antifriz yordamida erishish mumkin. Shunday qilib, YuXST ni joriy etish dvigatelning samarali samaradorligini oshirishni va buning natijasida yonilg‘i sarfini kamaytirishni ta’minlashi mumkin. Shu nuqtai nazardan, yuqori haroratli sovutish kombinatsiyalangan dvigatellarni takomillashtirishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Двигатели внутреннего сгорания. Компьютерный практикум. Моделирование процессов в ДВС / под ред. В.Н. Луканина. М.: Высшая школа, 2007. – 414 с.

2. Тулаев, Б. Математическое моделирование процессов теплообмена в ДВС. Монография / Б. Тулаев. – Ташкент: Adabiyot uchquni, 2018. – 176 с.

3. Mathematical modeling of transfer of the moment from the engine to the executive mechanism / F.M. Matmurodov [et. al] // «East West» Association for Advanced Studies and Higher Education GmbH. – Austria. – № 3. – 2017. – P.

AVTOMOBIL SANOATI KORXONALARINING INNOVATSION FAOLIYATIDA EHTIYOT QISMLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Qurbanov Abdulaziz Muzafarovich
Toshkent davlat texnika universiteti

Hozirgi kunda avtomobil sanoati global iqtisodiyotning eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri bo‘lib, uning innovatsion faoliyati ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish, mahsulot sifatini oshirish va resurslarni samarali ishlatishga qaratilgan. Ayniqsa, ehtiyot qismlar asosida takomillashtirish texnologik yangiliklarni joriy etish, ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish va avtomobillarning ekologik hamda texnik xususiyatlarini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy avtomobilsozlikda ehtiyot qismlar innovatsiyasini rivojlantirish nafaqat mahalliy, balki xalqaro bozorda ham raqobatbardoshlikni oshirish omillaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

Ushbu tadqiqot avtomobil sanoati korxonalarida ehtiyot qismlar orqali takomillashtirish jarayonining ilmiy-nazariy asoslarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, innovatsion faoliyatni rivojlantirish yo‘nalishlarini aniqlashga harakat qiladi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ehtiyot qismlar innovatsiyasi avtomobil ishlab chiqarishning ekologik barqarorligini ta’minlash, xarajatlarni kamaytirish hamda iste’molchilarning talab va ehtiyojlarini yuqori darajada qondirish imkonini beradi. Shu sababli, ushbu mavzuni ilmiy asosda chuqur tahlil qilish va amaliyotga joriy etish muhim strategik vazifalardan biri hisoblanadi.

Avtomobil ehtiyot qismlari sanoatining mustaqil innovatsion faolligi umuman avtomobilsozlik tarmog‘ining barqaror rivojlanishida muhim harakatlantiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. “Innovatsiyalar asosida shakllangan takomillashtirish jarayonlari avvalo avtomobil qismlarini konstruktiv jihatdan puxta isloh etish bilan birga, avtomobilsozlik industriyasining umumiy texnologik darajasini ham yuksaltiradi. AQShlik iqtisodchi olim W. Tapscott fikriga ko‘ra, bunday yondashuvlar global ishlab chiqarish strukturasiga ijobiy ta’sir o‘tkazib, sarmoyadorlar e’tiborini jalb etish, texnologik hamkorlikni kengaytirish va ilmiy-texnik bazani kuchaytirish orqali ijtimoiy-iqtisodiy takomillashuvga xizmat qiladi”

Zamonaviy intellektual texnologiyalar — xususan sun’iy intellekt (AI) va narsalar Interneti (IoT) — avtomobil sanoati istiqbolida ayniqsa muhim o‘rin tutadi. Aqlli navigatsiya tizimlari va avtonom haydash funksiyalari puxta sensorlar, signalni qayta ishlash modullari hamda murakkab dasturiy platformalarni talab qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, ishlab chiqarish korxonalarini izchil ilmiy-tadqiqot faoliyatini kengaytirishga undaydi. Ushbu jarayonlar iqtisodiy jihatdan ham sezilarli natija berib, sanoat korxonalarining texnologik yondashuvlariga ko‘ra jahon bozoridagi raqobat kuchini oshiradi, ta’kidlashicha, innovatsion raqobat pirovardida butun xalqaro iqtisodiyotning pirovard samaradorlik ko‘rsatkichlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Atrof-muhit barqarorligiga doir talablar kuchayib borayotgan bir paytda, avtomobil ehtiyot qismlari sanoati ekologik mas’uliyat mezonlariga muvofiq

tarzda o‘z faoliyatini kengaytirishga intilmoqda. Elektr transport vositalari uchun qulay zaryadlash infratuzilmasini rivojlantirish, qayta ishlanadigan materiallardan foydalanish hamda umumiy uglerod izini kamaytirish bo‘yicha amal qilinayotgan siyosatlar nafaqat jahon hamjamiyatining ijtimoiy talablariga mos keladi, balki iqtisodiy jihatdan ham brend imidjini yaxshilash va raqobat afzalligini mustahkamlashga xizmat qiladi. “Germaniyalik iqtisodchi olim S. Kooths yondashuvlariga ko‘ra, atrof-muhitni asrashga qaratilgan texnologik yangiliklar ichki bozorni rivojlantirish va yangi ish o‘rinlarini yaratish bilan birga, global iqtisodiyotning barqarorligiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi”.

Dunyo bozorida avtomobil ehtiyot qismlari savdosi xalqaro iqtisodiy jarayonlar bilan uzviy bog‘liq ravishda o‘sib borayotgani ushbu sohaning iqtisodiy salmog‘ini yanada oshirmoqda. “Bozorga kirish imkoniyatlarining kengayishi, turli davlatlar o‘rtasida investitsion hamkorlikning chuqurlashishi va serqirra kooperatsiya aloqalari sanoat ishlab chiqarishining yanada diversifikatsiyalashuviga turtki beradi. Shuningdek, xorijiy kapitalni jalb etish, mahsulot tannarxini pasaytirish va ilmiy asoslangan kooperatsion loyihalarni amalga oshirish natijasida iqtisodiy samaradorlikka erishiladi. Bu holat, K. Hamada fikriga ko‘ra, butun mintaqa darajasida ijtimoiy farovonlikka olib keladigan tarkibiy o‘zgarishlarni ham keltirib chiqaradi”

Milliy avtosanoatni tizimli takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar O‘zbekistonning “globallashuv jarayonida raqobatbardoshlik” darajasini mustahkamlashga sabab bo‘lmoqda. “Michael Porter” nazariyalariga tayanadigan bo‘lsak, “innovatsion salohiyatni rivojlantirish” sanoatning ertangi kundagi ustuvor mavqeini belgilovchi omil ekanini ko‘rishimiz mumkin.

Shu ma’noda, ehtiyot qismlarga tayanib yaratilayotgan “yangi platformalar” va “takomillashtirilgan texnik dizaynlar” “UzAuto Motors” misolida muvaffaqiyatli sinalmoqda. “Joseph Schumpeter” nazariyasida “innovatsiyalar iqtisodiy o‘sishning tamal toshi” ekani aytilar ekan, bu kabi misollar uning ilmiy g‘oyalarining amaliy isboti sifatida maydonga chiqmoqda.

Ehtiyot qismlar asosida “innovatsion faoliyatni takomillashtirish” jahon avtomobil sanoatida “texnologik yangilanishlar” sur’atini kuchaytirib, “rivojlangan sanoat davlatlari” qatorida O‘zbekistonda ham “barqaror o‘sish” kalit omilga aylanmoqda. Shu tariqa, avtomobilsozlikni yangi bosqichga olib chiqish “ilmiy asosni yuksaltirishga muvaffaq bo‘ldi” va “jangovar raqobat muhiti” sharoitida ham izchil taraqqiyot uchun zarur puxta zamin yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qurbanov A.M. Xorijiy mamlakatlar avtomobil ehtiyot qismlari ishlab chiqarilishida innovatsiyalarni qo‘llash tajribasi. Ta’lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar. 2025, №1. 158-164 b.
2. Qurbanov A.M. Sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatning rivojlanish asoslari. “Sanoat iqtisodiyoti: muammolar va yechimlar” mavzusidagi IV xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, Toshkent-2024, ISBN: 978-9910-9339-4-3, 154-156 bb.

CHEVROLET COBALT AVTOMOBILIDA ICHKI YONUV DVIGATELINING INTELLEKTUAL SOVUTISH TIZIMINI TATBIQ ETISH

Zafarjon Abduraimboy o‘g‘li Arabov
Toshkent davlat texnika universiteti magistranti
E-mail: arabovzafarjon1@gmail.com
Ulug‘bek Shermat o‘g‘li Sheraliyev
Toshkent davlat texnika universiteti magistranti
E-mail: usheraliyev09@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada Chevrolet Cobalt avtomobilining **B15D2** rusumli dvigateli misolida aqlli (intellektual) sovutish tizimini qo‘llash masalalari tadqiq etiladi. An’anaviy mexanik tizimning kamchiliklari tahlil qilinib, datchiklar majmuasi va elektr yuritmalarga asoslangan yangi tizimning afzalliklari va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan texnik qiyinchiliklari o‘rganiladi.

Kirish

Hozirgi vaqtda avtomobilsozlik sanoatida energiya samaradorligini oshirish eng dolzarb vazifadir. **Chevrolet Cobalt** avtomobili O‘zbekiston iqlim sharoitida keng qo‘llanilishini hisobga olsak, uning sovutish tizimini optimallashtirish yoqilg‘i tejamkorligi va dvigatelning ishlash muddatini uzaytirishda muhim ahamiyatga ega.

An’anaviy tizimning muammolari.

Cobalt avtomobilining standart sovutish tizimi tirsakli valdan harakatlanuvchi mexanik nasosga asoslangan. Bu tizimda quyidagi tizimli muammolar mavjud:

Energiya yo‘qotilishi: Dvigatel sovuq holatda ham nasos aylanib, foydali ish koeffitsientini (FIK) kamaytiradi.

Inersiya: Mexanik termostatlar harorat o‘zgarishiga sekin reaksiyaberadi, bu esa issiqlik balansining buzilishiga olib keladi.

Mexanik nasosning quvvat isrofi (P_p)

An'anaviy Cobalt **(B15D2)** dvigatelida nasos tirsakli valdan quvvat oladi. Nasos sarflaydigan quvvat quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$P_p = \frac{Q \cdot \Delta p}{\eta} \quad (1).$$

Bunda:

Q — sovutish suyuqligining sarfi (**m^3/s**);

Δp — tizimdagi gidravlik qarshilik (bosimlar farqi, **Pa**);

η — nasosning foydali ish koeffitsienti (odatda **0.5–0.6**).

Dvigatel aylanishlar soni (**n**) ortishi bilan **Q** ham ortadi, natijada yuqori tezlikda nasos **2-3 kVt** gacha quvvatni "*kamaytiradi*". Aqlli elektr nasosda esa quvvat faqat kerakli haroratni ushlash uchun sarflanadi $P_{elektr} \approx 0.2–0.5$ **kW.**

Issiqlik balansi va isish vaqti $t_{harorat}$.

Dvigatelni sovuqdan ish haroratiga (T_{target}) chiqishi uchun zarur bo‘lgan issiqlik miqdori:

$$Q_{umumiy} = (m_d \cdot c_d + m_{suv} \cdot c_{suv}) \cdot (T_{target} - T_{boshlang'ich}) \quad (2).$$

m_d·, m_{suv} — dvigatel va suyuqlik massasi;

c_d , c_{suv}— solishtirma issiqlik sig‘imlari.

Aqlli tizimda isish davrida m_{suv} (aylanayotgan suyuqlik massasi) minimal darajaga tushiriladi (faqat dvigatel blokining ichida qoladi). Natijada:

$$\Delta t_{harorat} = \frac{Q_{umumiy}}{P_{issiqlik}} \quad (3).$$

Suyuqlik aylanishi to‘xtatilganda, m_{cool} kamaygani hisobiga isish vaqti **40-50%** ga qisqaradi.

Yoqilg‘i tejamkorligini baholash

Elektr nasosga o‘tish hisobiga tejalgan quvvat $\Delta P = P_p - P_{elektr}$ bo‘lsa, yoqilg‘i sarfining kamayishi (ΔG_f) quyidagicha hisoblanadi:

$$\Delta G_f = \frac{\Delta P \cdot b_e}{\eta_{tr} 10^3} \quad (4).$$

Bu yerda b_e — dvigatelning solishtirma yoqilg‘i sarfi **(g/kWh)** Cobalt uchun bu ko‘rsatkich o‘rtacha yoqilg‘i sarfining **0.3 dan 0.5 litrgacha** kamayishini ta'minlaydi.

Intellektual tizim arxitekturasi va datchiklar majmuasi

Aqlli tizimga o‘tish uchun avtomobil quyidagi datchiklar va komponentlar bilan jihozlanishi taklif etiladi:

Elektron boshqaruv bloki (ECU): Datchiklardan ma’lumot olib, ijrochi mexanizmlarni boshqaradi.

Datchiklar majmuasi:

- *Harorat datchiklari:* Dvigatel bloki va radiator chiqishida (NTC termistorlar).
- *Bosim datchigi:* Tizimdagi bosim va germetiklikni nazorat qilish uchun.
- *Suyuqlik sarfi datchigi:* Sovutish suyuqligining aylanish tezligini o‘lchash uchun.

Elektr suv nasosi (EWP): Dvigatel aylanishiga bog‘liq bo‘lmagan holda ishlaydi.

Tizimning afzalliklari va kamchiliklari

Afzalliklar

Yoqilg‘i tejamkorligi: Mexanik nasosning dvigateldan oladigan yuklamasi kamayishi hisobiga yoqilg‘i sarfi **3-5%** ga tejaladi.

Tezkor isish: Dvigatel ishga tushirilganda suyuqlik aylanishi to‘xtatiladi, natijada Cobalt dvigateli ish haroratiga **2 barobar tezroq** chiqadi.

"After-run" himoyasi: Dvigatel o‘chirilgandan so‘ng ham tizim ma’lum muddat ishlab, blok kallasining haddan tashqari qizib ketishidan (termik zarbadan) saqlaydi.

Ekologik samaradorlik: Zararli CO_2va NO_x gazlari miqdori sezilarli darajada kamayadi.

Kamchiliklar va qiyinchiliklar.

Texnik murakkablik: Tizimga elektronika va dasturiy ta'minotning qo‘shilishi nosozlik ehtimolini oshirishi mumkin.

Yuqori tannarx: Elektr nasos va qo‘shimcha datchiklar avtomobilning boshlang‘ich narxini oshiradi.

Elektr tarmog‘iga yuk: Tizim Cobaltning akkumulyator va generator tizimidan qo‘shimcha quvvat talab qiladi.
Servis xizmati: Bunday tizimni ta’mirlash uchun maxsus diagnostika asboblariga ega malakali kadrlar talab etiladi.

Qiyosiy tahlil *(Jadval ko‘rinishida)*

Ko‘rsatkich	Standart Cobalt tizimi	Aqlli sovutish tizimi
Nasos yuritmasi	Mexanik (tasmali)	Elektr yuritma
Boshqarish usuli	Passiv (mexanik)	Aktiv (elektron)
Isish vaqti	8-10 minut	3-5 minut
Aniqlik	±5-7 °C	±1 °C
Energiya sarfi	Doimiy yuqori	Ehtiyojga qarab (o‘zgaruvchan)

Xulosa

Chevrolet Cobalt avtomobilida aqlli sovutish tizimini tatbiq etish avtomobilning texnik va iqtisodiy ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilaydi. Garchi tizim murakkablashuvi va xarajatlar ortishi kabi kamchiliklar mavjud bo‘lsa-da, dvigatel resursining oshishi va yoqilg‘i tejamkorligi bu xarajatlarni to‘liq qoplaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, datchiklar majmuasi va ECU algoritmlarining to‘g‘ri integratsiyasi Cobalt avtomobilini yangi texnologik bosqichga olib chiqadi.

6. Foydalanilgan adabiyotlar.

1. *Chon, M. S., et al.* "Development of Active Cooling System for Fuel Economy Improvement." (SAE technical paper).
2. *Pang, S. C., et al.* "Review on engine cooling system for internal combustion engines." (Applied Thermal Engineering).
3. O‘zbekiston Respublikasi avtomobilsozlik standarti va B15D2 dvigateli texnik reglamentlari.


B15D2 1.5 S-TEC III DVIGATELIDA YONISH JARAYONINI YAXSHILASHNING KONSTRUKTIV YECHIMI

prof. Musabekov Z.E., PhD Uralova H. Z, mag. Abdullajonov S. I.
Toshkent davlat texnika universiteti,
Tel.: +998 77 340 62 77

Transport dvigatellarini rivojlantirishda energiya samaradorligi, ekologik xavfsizlik va iqtisodiylik asosiy mezon bo‘lib qolmoqda. Shu nuqtayi nazardan mualliflar tomonidan O‘zbekistonda eng kop B15D2 1.5 S-TEC III benzinli ichki yonuv dvigatelida yonish jarayonini takomillashtirishga qaratilgan konstruktiv yechim modeli ishlab chiqildi. Model yoqilg‘i aralashmasi, optimallashtirilgan yonish kamerasi shakli va elektron boshqaruv tizimi orqali yonish samaradorligini oshirishga asoslanadi.

Ushbu maqolada ichki yonuv dvigatellarining "yashil iqtisodiyot" shakllanishidagi roli muhokama qilinib, tahlil qilinadi hamda ularni almashtirish yoki modernizatsiya qilish bo‘yicha yechimlar taklif etiladi. Ichki yonuv dvigatellarining "yashil iqtisodiyot" bilan aloqasi, shuningdek, ularning energiya samaradorligi va tabiiy ekotizimlarga ta’siri muhim va dolzarb masaladir. Ushbu dvigatellar asosan benzin va dizel kabi neft mahsulotlarining yonishi natijasida energiya hosil qiladi. Biroq, bu jarayon atmosferaga zararli gazlar chiqarib, atrof-muhitning ifloslanishiga olib keladi. Yashil iqtisodiyot – atrof-muhitni himoya qilish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish va barqaror rivojlanishni ta’minlashga qaratilgan iqtisodiy modeldir.

B15D2 dvigatelida yonishning to‘liq emasligi, issiqlik yo‘qotishlarining yuqoriligi, CO, CH va NOx chiqindi gazlarining mavjudligi asosiy kamchiliklardir, shu sababli yonish jarayonini konstruktiv va funksional jihatdan optimallashtirish talab etiladi.



1-rasm. B15d2 1.5 S-TEC III dvigatelida yonish jarayonini yaxshilashning konstruktiv yechim sxemasi

Yonish kamerasini optimallashtirish porshen tepasini sferik yoki toroidal shaklga o‘zgartirish, turbulentlikni oshiruvchi kanallarni shakllantirish, siqish darajasini oshirish va natijada aralashma yaxshiroq aralashadi va yonish tezligi ortib minimal yonish energiyasini kamaytirib to‘liq yonishni ta’minlaydi

Yonish samaradorligi quyidagicha ifodalanadi:

$$\eta = \frac{Q_{foydali}}{Q_{yoqilg'i}}$$

$$\eta - \text{yon. samaradorligi;}$$
$$Q_{foydali} - \text{foydali issiqlik;}\ Q_{yoqilg'i} - \text{yoq. umumiy issiqligi}$$

Taklif etilgan konstruktiv yechimlar asosida yonish samaradorligiy 10–15% ga oshaishiga yoqilg‘i sarfi 8–12% ga kamayishiga hamda chiqindi CO gazi 40–50% ga CH gazi 20–30% ga NOx gazi 15–25% ga kamayishiga erishiladi
Yonish kamerasi geometriyasini optimallashtirish B15D2 1.5 S-TEC III dvigatelida yonish jarayonini yaxshilash uchun taklif etilgan konstruktiv yechim modeli kompleks yondashuvga asoslanadi.

Adabiyotlar

1. Zakirjon Musabekov, Rustam Tillahodjaev, Abdulla Mirzayev, Avaz Yangibayev, Hilola Uralova. Increasing energy efficiency as a result of the influence on the operation of a Sano automobile engine with theaddition of hydrogen as an additive to primary fuel doi:10.1088/1755-1315/1284/1/012038
2. Musabekov Z.E., Daminov O.O., Khakimov J.O., Application of supercharging to internal combustion engines and increasing efficiency in achieving high environmental standards"1st International Conference on Problems and Perspectives of Modern Science (ICPPMS-2021)". (Tashkent, June 10-11, 2021)
3. Ergashev B., Shadimetov Y., Musabekov Z., Uralova H. "Experimental study on the presence of cadmium in the atmospheric air and other elements of the ecosystem of Tashkent"
4. Musabekov Z.E., Kurbanov A.M., Uralova K.Z. Exploitation i servis dvigateley vnutrennego sgorania: ucheb. posobie /– Tashkent: 2024. – 386 p.
5. Musabekov Z.E. “Theory of working processes of vehicles” Textbook. T.: Tashkent State Technical University, 2023, No. 01-2023-0086
6. Khakimov J., Musabekov Z., Rakhmatova F. Section Automation, Digital Transformation and Intellectualization for Sustainable Development DOI https: // doi. Org/10. 1051 /e3sconf/ 202452505015 Published online 20 May 2024
7. Musabekov Z.E. Working cycles and dynamics of internal combustion engines. Textbook. T.: ToshDTU, 2022.- 165 p.

OLIY TA’LIM VA BIZNES HAMKORLIGI SOVUTISH TEXNIKASI RIVOJLANISHINING MUHIM DRAYVERI.

Nurmatov Tohir Baxtiyorovich
Toshkent davlat texnika universiteti,
“Ichki yonuv dvigatellari, sovutish va kriogen texnikasi” kafedrasi,
katta o‘qituvchi.

Sovutish texnikasi zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas qismi bo‘lib, oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash, farmatsevtika va tibbiyot tizimlari, sanoat ishlab chiqarishi hamda logistika zanjirlarining barqaror ishlashini ta’minlaydi. Iqlim o‘zgarishi, energiya resurslaridan oqilona foydalanish va ekologik talablarning kuchayishi ushbu sohani yanada takomillashtirishni talab qilmoqda. Bunday sharoitda sovutish texnikasining rivojlanishi bevosita malakali kadrlar tayyorlash bilan bog‘liq bo‘lib, bu esa ta’lim tizimi va biznes o‘rtasidagi uzviy hamkorlikni zarur etadi.

Oliy ta’lim muassasalari sovutish va kriogen texnika yo‘nalishida muhandislik tafakkurini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Zamonaviy muhandislar nafaqat nazariy bilimlarga, balki amaliy ko‘nikmalarga ham ega bo‘lishi kerak. Termodinamika, issiqlik va massa almashinuvi, gidrodinamika kabi fanlar chuqur o‘zlashtirilishi bilan birga, talabalar zamonaviy CAD va CAE dasturlari, avtomatlashtirish tizimlari va boshqaruv texnologiyalarini ham egallashi zarur. Shu bilan birga, real ishlab chiqarish sharoitida ishlash tajribasi muhim ahamiyat kasb etadi.


Sanoat korxonalari esa yuqori malakali mutaxassislarga ehtiyoj sezgan holda ta’lim jarayonida faol ishtirok etmoqda. Ular o‘quv dasturlarini shakllantirishda qatnashadi, talabalar uchun amaliyot va stajirovkalarni tashkil etadi hamda ilmiy va bitiruv loyihalarini real ishlab chiqarish masalalariga yo‘naltiradi. Natijada ta’lim jarayoni yanada amaliy tus oladi va bitiruvchilarning mehnat bozoriga moslashuvi tezlashadi.

O‘zbekistonda sovutish texnikasi bo‘yicha mutaxassislarga bo‘lgan talab tahlili shuni ko‘rsatadiki, 2024-yilda ushbu sohada 1200 dan ortiq bo‘sh ish o‘rinlari mavjud bo‘lgan. Eng katta talab servis xizmat ko‘rsatish va texnik ta’mirlash yo‘nalishiga to‘g‘ri keladi, bu esa mavjud uskunalar parkini samarali ekspluatatsiya qilish muhimligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, montaj, loyihalash va muhandislik qo‘llab-quvvatlash sohalarida ham yuqori ehtiyoj kuzatiladi. Ilmiy tadqiqotlar ulushi nisbatan kam bo‘lsa-da, aynan ushbu yo‘nalish innovatsion rivojlanish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ta’lim va biznes hamkorligining samarali shakllari sifatida dual ta’lim tizimi, bazaviy kafedralar, o‘quv-ilmiy markazlar hamda qo‘shma ilmiy-tadqiqot loyihalarini keltirish mumkin. Bunday yondashuv nazariya va amaliyot o‘rtasidagi tafovutni kamaytiradi va talabalarni real ishlab chiqarish muhitiga yaqinlashtiradi.

Amaliy misol sifatida Toshkent davlat texnika universitetining “Sovutish va kriogen texnika” kafedrasi faoliyatini ko‘rsatish mumkin. Kafedra sanoat korxonalari va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirib, zamonaviy o‘quv markazlarini tashkil etgan. Jumladan, AUX kompaniyasi bilan hamkorlikda

tashkil etilgan AUX ACADEMY CAC markazi talabalar va mutaxassislarga zamonaviy sovutish va konditsionerlash tizimlari bilan ishlash imkonini bermoqda. Ushbu markazda chiller tizimlari, multisplit qurilmalar va sanoat konditsionerlari asosida amaliy mashg‘ulotlar o‘tkaziladi.



Sovutish texnikasi mutaxassislariga ehtiyoj, kompaniyalar kesimida (vakansiyalar)

Kompaniya	AUX UzClimat	artel Artel Group	CENTER CLIMATE Center Climate	ENTER Enter Engineering	KTC KTC Kazztehservice	SBS SBS Engineering	IDEAL TEKNIK Ideal Teknik	CHIGO Chigo Uzbekistan	TERMO KOMFORT Termo Komfort	REFSYSTEM GROUP Refsystem Group
Jami vakansiya	186	152	148	128	120	96	82	68	56	34
Umumiy son ulushi	14,6%	12,0%	11,7%	10,1%	9,4%	7,6%	6,5%	5,4%	4,4%	2,7%
Jami	1 070*									

* Qolgan vakansiyalar boshqa kompaniyalar va tashkilotlar o‘rtasida taqsimlangan.

Manba: ish qidirish saytlari (hh.uz, myjob.uz, olx.uz va boshqalar), kompaniyalar korporativ saytlari va O‘zbekistondagi kadrlar agentliklari ma’lumotlari tahlili. 2024-yil aprel–may.

Bundan tashqari, BMT Taraqqiyot dasturi ko‘magida energiya tejamkor va ekologik xavfsiz sovutish texnologiyalari bo‘yicha o‘quv markazi tashkil etilgan bo‘lib, u faol mutaxassislarning malakasini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu esa “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini amaliyotga joriy etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta’lim va biznes o‘rtasidagi hamkorlik sovutish texnikasi sohasining barqaror rivojlanishini ta’minlaydi. Ushbu hamkorlik innovatsiyalarni tez joriy etish, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish va muhandislik kasbining nufuzini yuksaltirishga xizmat qiladi. Kelajakda ushbu yo‘nalishdagi integratsiya yanada kuchayishi mamlakatning texnologik rivojlanishiga sezilarli hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”. https://lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PQ-307-son qarori “Oliy ta’lim tizimini rivojlantirish va ishlab chiqarish bilan integratsiyasini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. https://lex.uz
3. BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP) O‘zbekistonda energiya samaradorligi loyihalari. https://www.uz.undp.org


O‘ZBEKISTONDA SOVUTISH MASHINASOZLIGINING DOLZARBLIGI VA ISHLAB CHIQARISHNI MAHALLIYLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Nurmatov Tohir Baxtiyorovich
Toshkent davlat texnika universiteti,
“Ichki yonuv dvigatellari, sovutish va kriogen texnikasi” kafedrasi,
katta o‘qituvchi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida sanoat, qishloq xo‘jaligi va logistika infratuzilmasining barqaror rivojlanishi kuzatilmoqda, bu esa sovutish texnologiyalariga bo‘lgan talabning sezilarli darajada oshishiga olib kelmoqda [1].

Ma’lumki, sovutish mashinasozligi oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotlarga ko‘ra, sovutish zanjiri yetarli darajada rivojlanmagan mamlakatlarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining yo‘qotilishi 25–30 % gacha yetishi mumkin [2]. Shu sababli sovutish texnikasini rivojlantirish nafaqat iqtisodiy, balki strategik ahamiyatga ham ega.

O‘zbekiston sharoitida sovutish uskunalariga bo‘lgan talab qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat sanoati, farmatsevtika va logistika sohalarida shakllanadi. Ushbu tizimlarda asosiy elementlar sifatida kompressorlar, issiqlik almashinish apparatlari, kondensatorlar va bug‘latgichlar xizmat qiladi [3]. Bunda kompressor sovutish siklining asosiy elementi bo‘lib, butun tizim samaradorligini belgilaydi.



1-rasm. Turli sohalarda kompressor turlarining qo‘llanilishi.

Sovutish uskunalariga bo‘lgan talabning oshishi global tendensiyalar, ya’ni aholi sonining ortishi, urbanizatsiya jarayonlari va oziq-ovqat iste’molining ko‘payishi bilan ham bog‘liq [5]. Prognozlarga ko‘ra, yaqin 10 yil ichida O‘zbekistonda sovutish uskunalariga bo‘lgan talab 30–50 % ga oshishi kutilmoqda, bu esa mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi.


Mazkur sharoitda sovutish uskunalarini ishlab chiqarishni mahalliylashtirish masalasi alohida dolzarblik kasb etadi. Xususan, kompressorlar va issiqlik almashinish apparatlarini ishlab chiqarishni tashkil etish iqtisodiy va texnologik jihatdan asoslangan hisoblanadi. Mamlakatimiz qulay geografik

joylashuvga, rivojlangan transport infratuzilmasiga ega [6]. Bu esa logistika xarajatlarini kamaytirish va mahsulot yetkazib berish tezligini oshirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, O‘zbekistonda metallurgiya bazasi va mashinasozlik korxonalarining mavjudligi ishlab chiqarishni qisman mahalliylashtirish imkonini beradi. Mis, alyuminiy va po‘lat kabi mahalliy resurslardan foydalanish sovutish uskunalari komponentlarining 60–70 % gacha qismini mahalliylashtirishga imkon yaratadi [7].

Muhim omillardan yana biri malakali kadrlar mavjudligidir. Respublika texnika oliy ta’lim muassasalari, jumladan Toshkent davlat texnika universiteti, konditsionerlash va sovutish tizimlari sohasida mutaxassislar tayyorlamoqda, bu esa ilmiy-ishlab chiqarish klasterlarini rivojlantirish uchun asos yaratadi.

Iqtisodiy nuqtai nazardan, kompressor ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish importga qaramlikni kamaytirish, uskunalar narxini 20–30 % ga pasaytirish va eksport salohiyatini oshirish imkonini beradi. Loyihaning o‘zini oqlash muddati 4–6 yilni tashkil etishi mumkin. Asosiy bozorlar sifatida nafaqat ichki bozor, balki Markaziy Osiyo davlatlari ham qaraladi.



2-rasm. Kompressorlarning quvvat bo‘yicha talabi.

Jahon sovutish uskunalari bozorida Bitzer, Copeland va Breizer kabi kompaniyalar yetakchi o‘rinlarni egallaydi [8].

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda sovutish mashinasozligini rivojlantirish va kompressor hamda issiqlik almashinish uskunalarini ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish strategik jihatdan muhim yo‘nalish hisoblanadi. Bunday loyihalarni amalga oshirish tarmoqning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi, milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshiradi va importga qaramlikni kamaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. ASHRAE Handbook: Refrigeration. – Atlanta, 2022.
2. Kitinoja L. Cold Chain Development. – 2019.
3. Stoecker W.F. Refrigeration and Air Conditioning. – McGraw-Hill, 2018.
4. Copeland Scroll Compressors Application Guide. – 2023.
5. International Energy Agency. The Future of Cooling. – 2020.
6. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. – 2023.
7. O‘zbekiston sanoatini rivojlantirish dasturi. – 2022.
8. Bitzer, Copeland, Breizer texnik kataloglari.

EVALUATION OF ADVANTAGES OF GTL SYNTHETIC DIESEL FUEL USING SPECTRAL ANALYSIS OF ENGINE CRANKCASE OIL

Yangiboyev Asilbek Ergash o'g'li, Doctoral student
Tashkent State Transport University, Tashkent


Abstract: In this study, the importance of spectral analysis and the advantages of GTL synthetic diesel fuel are highlighted. Based on the concentration of metals detected in the crankcase oil, it is possible to determine which engine components have experienced wear.

Key words: GTL synthetic diesel fuel, conventional diesel fuel, crankcase oil, wear metals, spectral analysis, engine diagnostics, environmental indicators.

In a time when environmental pollution is becoming a global problem, the use of alternative fuels, particularly synthetic diesel (GTL) and biodiesel fuels, is increasing. The near absence of sulfur and aromatic compounds in GTL synthetic fuel, along with its high cetane number, ensures more complete and stable combustion and reduces exhaust gas emissions [1]. The presence of sulfur compounds in fuel leads to the formation of aggressive acidic gases during combustion when combined with water [3].

Diagnosing the concentration of metals in crankcase oil through spectral analysis plays a crucial role in assessing engine condition. Determining the concentration of metallic elements in crankcase oil makes it possible to evaluate the wear of engine components. This method enables early detection of potential system faults without disassembling components. The purpose of spectrometric oil analysis is to monitor changes in lubricant composition, detect and track abnormal wear, and predict possible failures.

1-Table. Graph of metal concentrations during the use of synthetic GTL fuel



The results of this graph were obtained in accordance with **GOST 20759** using an **MFS-11 optical emission spectrometer**. Engine oil samples were collected and analyzed at mileage intervals of **2500, 5000, 7500, and 10000 km** from diesel engine crankcase oils. In this study Pb- indicates bearing wear, Cu- indicates wear of bearings and bronze bushings, Al- indicates piston wear. During our research, we compared the concentrations of other metal wear elements in

crankcase oils of diesel engines operating on conventional diesel fuel with those using synthetic fuel. The aim is to evaluate the **economic and environmental efficiency of synthetic fuel**. The results show that wear of engine components occurs in both synthetic GTL and conventional diesel fuel operations. However, **higher wear rates are observed when using conventional diesel fuel [1-Table].** GTL fuel, with its high cetane number and near-zero sulfur content, enables the engine oil to retain its operational properties for 20–30% longer. This, in turn, serves as a key factor in reducing maintenance costs and extending engine service life.

In particular, analyzing the dynamics of metallic elements using spectral methods is essential for practical diagnostics. Variations in metals such as Fe, Si, Cr, and Al in crankcase oil provide information about the condition of the cylinder-piston group, bearings, rings, and air filtration system. Regular spectral analysis of oil allows monitoring of the engine's internal condition before any failures occur.

Through spectral analysis, by comparing crankcase oil results from vehicles operating on GTL and conventional diesel fuels, it is possible to determine which engine components experience increased wear when using synthetic diesel fuel. The use of synthetic fuel leads to more complete combustion, reduced acidity, and a lower rate of oil oxidation. The extremely low sulfur content, reduced soot formation, and lower levels of toxic residues provide clear environmental advantages [2].

In general, spectral analysis is an effective and reliable method for diagnosing the technical condition of internal combustion engines, as the concentration of metallic elements allows identification of components undergoing wear.

References

[1] B.I. Bazarov, K. Magdiyev, R. Axmatjanov, F. Sidikov, B.Vasidov, I. Usmanov Assessment of Environmental and Energy Usage of Alternative Motor Fuels https://doi.org/10.1063/5.0089990 AIP Conference Proceedings, 2022, 2432, 020001

[2] B.I. Bazarov, O. Odilov, N. Otabayev, X. Fayzullayev."Use of synthetic motor fuel in agricultural machinery". BIO Web of Conferences, (AEGISD-V 2025) 2025, 173, 01042

[3] A.E. Yangiboyev "The issues of using synthetic fuel in diesel transportation". ENGINEER, International scientific journal, Volume 3, ISSUE2 June, 2025

РАЗРАБОТКА ПОДХОДА К ОЦЕНКЕ ЭНЕРГОПОТРЕБЛЕНИЯ ЭЛЕКТРОБУСОВ В УСЛОВИЯХ ГОРОДСКОЙ ЭКСПЛУАТАЦИИ

Хасанова Барчиной Тохир қизи
Докторант, Ташкентский государственный транспортный университет, г. Ташкент

В последние годы электробусы рассматриваются как один из ключевых элементов устойчивого городского транспорта. Однако эффективность их эксплуатации во многом определяется уровнем энергопотребления, который зависит от множества факторов, включая условия движения, загрузку транспортного средства и климатические параметры [1].

Анализ научной литературы показывает, что оценка энергопотребления электробусов осуществляется на основе различных подходов, которые условно можно разделить на физические, статистические и комбинированные модели. В физико-аналитических моделях энергопотребление определяется через уравнения движения транспортного средства с учётом сопротивлений и мощности тягового привода. Такие модели широко представлены в работах A. Lajunen [2] и других авторов и основаны на расчёте мощности и энергии в зависимости от параметров движения.

Современные исследования всё чаще используют данные реальной эксплуатации. Так, в работе, посвящённой микроскопическому моделированию энергопотребления электробусов, предлагается подход, основанный на анализе реальных траекторий движения и разделении энергозатрат на тяговую и вспомогательную составляющие [3]. Подобные модели позволяют учитывать особенности ездового цикла и обеспечивают высокую точность оценки энергопотребления.

Отдельное внимание уделяется влиянию внешних факторов. В зарубежных исследованиях показано, что температура окружающей среды и работа вспомогательных систем, включая системы отопления, вентиляции и кондиционирования воздуха, оказывают существенное влияние на общий расход энергии [4, 5]. В частности, энергопотребление может значительно возрастать при отклонении температуры от оптимальных значений.

Перспективным направлением являются комбинированные модели, объединяющие физические зависимости и методы обработки данных. В таких подходах базовое энергопотребление определяется на основе физических моделей, а влияние трудно формализуемых факторов учитывается с помощью методов машинного обучения [6, 7, 8].

Несмотря на значительное количество исследований, анализ литературы показывает, что существующие подходы в основном ориентированы на моделирование или прогнозирование энергопотребления и недостаточно учитывают задачи нормирования в условиях реальной эксплуатации. Это обусловливает необходимость разработки методик, позволяющих сопоставлять энергопотребление различных типов

электробусов на конкретных маршрутах с учётом эксплуатационных факторов.

Таким образом, дальнейшие исследования должны быть направлены на создание адаптированных моделей энергопотребления, учитывающих особенности ездовых циклов маршрутов и реальные условия эксплуатации городского транспорта.

Список литературы:

1. Mahmoud M., Garnett R., Ferguson M., Kanaroglou P. Electric buses: A review of alternative powertrains // Renewable and Sustainable Energy Reviews. – 2016. – Vol. 62. – P. 673–684.
2. International Energy Agency. Global EV Outlook 2025. – Paris: IEA, 2025.
3. Ergül H., Tuydes-Yaman H. A methodology for electric bus energy consumption estimation // Annals of Operations Research. – 2026.
4. Göhlich D., Fay T.-A., Jefferies D., Lauth E. Design of urban electric bus systems // Energies. – 2018. – Vol. 11(9). – P. 2301.
5. United Nations Development Programme. Electric Bus Toolkit: Guidelines for electric bus systems. – UNDP, 2023.
6. Lajunen A. Energy consumption and cost-benefit analysis of hybrid and electric city buses // Transportation Research Part C. – 2014. – Vol. 38. – P. 1–15.
7. Li X., Castellanos S., Maassen A. Emerging trends and innovations for electric bus adoption // Transport Policy. – 2018. – Vol. 74. – P. 1–7.
8. World Bank Group. Electric Mobility and Public Transport Electrification. – Washington, 2024.

TRANSPORT OQIMLARINI MODELLASHTIRISHDA ZAMONAVIY DASTURIY TA'MINOTDAN FOYDALANISH VA UNING TA'LIM JARAYONIDAGI O'RNI

Kuziyev Abdimurot Urakovich, texnika fanlari doktori, dotsent
Suyunov Oltibek Do'stmurodovich, assistent
Mirzayev Alisher Shamsutdin o'g'li, assistent
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti, Termiz, O'zbekiston
190100, Termiz sh., Islom Karimov ko'chasi, 288a uy

Mamlakatimizda transport sohasi rivojlanishining hozirgi bosqichi transport oqimlarini boshqarishda innovatsion yondashuvlarni joriy etish, makro va mikro darajada samarali boshqaruv siyosatini amalga oshirish, shuningdek transport va logistika tizimlarida zamonaviy mexanizmlarni tatbiq etish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

Hozirgi kunda transport tizimlarining jadal rivojlanishi, avtomobillar sonining ortib borishi hamda shahar infratuzilmasining murakkablashuvi transport oqimlarini samarali boshqarish zaruratini keskin oshirmoqda. Ayniqsa, yirik shaharlarda transport tirbandliklari, yo'l-transport hodisalari sonining ortishi, atrof-muhitga salbiy ta'sirlarning kuchayishi kabi muammolar transport tizimini ilmiy asosda tahlil qilish va boshqarishni talab etadi.

Ta'kidlash joizki, yo'l harakati xavfsizligi bo'yicha mutaxassislar avtomobil yo'llarida sodir bo'layotgan yo'l-transport hodisalarini chuqur va har tomonlama o'rganishlari uchun ularning turlari, miqdoriy ko'rsatkichlari to'g'risida aniq ma'lumotlarga ega bo'lishlari, shuningdek ushbu hodisalarni hisobga olish tartibi va tahlil qilish usullarini mukammal egallashlari zarur.

Mazkur muammolarni hal etishda transport oqimlarini modellashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy dasturiy ta'minot vositalari yordamida transport oqimlarini real sharoitga yaqin holda modellashtirish, turli boshqaruv variantlarini sinovdan o'tkazish hamda eng maqbul yechimlarni aniqlash imkoniyati yaratiladi.

Hozirgi kunda transport tizimlarini tartibga solish, boshqarish va monitoring qilish maqsadida turli zamonaviy dasturiy vositalardan keng foydalanilmoqda. Shunday dasturlar qatoriga PTV kompaniyasining dasturiy mahsulotlari kiradi. Jumladan, "PTV Map&Guide Internet Route Planner", "PTV Aimsun Traffic Simulation", "PTV Visum" va "PTV Vissim" dasturlari transport oqimlarini tahlil qilish va modellashtirishda samarali vosita sifatida qo'llanilmoqda. Xususan, "PTV Vissim" dasturi tartibga solingan va tartibga solinmagan chorrahalarni modellashtirishda yuqori samaradorlikka ega bo'lgan dasturlardan biri hisoblanadi.

PTV Vissim dasturi yordamida quyidagi transport elementlarini kompleks tarzda modellashtirish mumkin:

- transport vositalari (yengil avtomobillar, avtobuslar, yuk avtomobillari);
- jamoat transporti vositalari (avtobus, tramvay);

- ikki g‘ildirakli transport vositalari (velosiped va mototsikllar);
- piyodalar oqimi.

Bundan tashqari, mazkur dasturda transport vositalarining ziddiyatli nuqtalari, to‘qnashuv zonalari hamda svetofor signallarining ishlash rejimlari modellashtiriladi. Dastur signallarni oldindan belgilangan rejalar asosida hamda real sharoitlarga mos ravishda o‘zgartirish imkoniyatiga ega bo‘lib, bu esa transport oqimlarini samarali boshqarish va yo‘l harakati xavfsizligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Olingan natijalar asosida mavjud muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo‘yicha intellektual boshqaruv yechimlari ishlab chiqilishi mumkin. Bunday yondashuv transport oqimining samaradorligini oshirish, tirbandliklarni kamaytirish, vaqt yo‘qotishlarini qisqartirish hamda iqtisodiy zararlarni minimallashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, transport vositalarining atrof-muhitga salbiy ta’sirini kamaytirish orqali ekologik barqarorlikni ta’minlashga ham imkon yaratadi.

Ta’lim jarayonida mazkur dasturiy vositalardan foydalanish alohida ahamiyatga ega bo‘lib, talabalarda transport oqimlarini modellashtirish, tahlil qilish va boshqarish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa zamonaviy transport tizimlari uchun malakali mutaxassislar tayyorlashda muhim omil hisoblanadi.

Xulosa. Amaliy mashg‘ulotlarda dasturiy vositalardan foydalanish tajribasi shuni ko‘rsatadiki transport oqimlarini modellashtirishda zamonaviy dasturiy ta’minotdan foydalanish transport tizimlarini tahlil qilish va boshqarish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Xususan, modellashtirish jarayonida chorrahalar, transport oqimlari, svetofor boshqaruv tizimlari hamda ziddiyatli nuqtalarni o‘rganish orqali mavjud muammolar aniqlanadi va ularni bartaraf etish bo‘yicha optimal yechimlar ishlab chiqiladi.

Dasturiy modellashtirish natijasida transport oqimlarini optimallashtirish, tirbandliklarni kamaytirish, yo‘l-transport hodisalari xavfini pasaytirish hamda yoqilg‘i sarfi va zararli chiqindilar miqdorini qisqartirish imkoniyati yaratiladi. Bu esa o‘z navbatida iqtisodiy samaradorlikni oshirish va ekologik barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Ta’lim jarayonida mazkur dasturiy vositalardan foydalanish talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi, ularni real sharoitga yaqin muammolarni hal etishga tayyorlaydi hamda kasbiy kompetensiyalarini shakllantiradi. Natijada, talabalar zamonaviy transport tizimlarini modellashtirish, tahlil qilish va boshqarish bo‘yicha yuqori malakali mutaxassis sifatida shakllanishiga zamin yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Бутаев Ш. А. и др. Логистика (Етказиб бериш занжирида окимларни бошкариш) //Тошкент," Экстремум Пресс. – 2012. – Т. 577.

2. Suyunov, O., & Sherboyev, A. (2022). Ptv vissim dasturi yordamida avtomobil yo‘llari va shahar ko ‘chalarining harakat oqimini modellashtirish. *Евразийский журнал академических исследований*, *2*(13), 261-266.

3. Do‘stmurodovich, S. O., & Jo‘raqulovich, D. B. (2024). DETERMINATION OF THE QUANTITY OF EXHAUST GASES EMITTED FROM TRANSPORTATION VEHICLES AT THE INTERSECTION USING THE PTV VISSIM PROGRAM.

4. Valiyevich, D. S., Do‘stmurodovich, S. O., & Jo‘raqulovich, D. B. (2023). MODELING AND EVALUATION OF INTERSECTIONS IN TERMEZ USING MODERN SOFTWARE. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, *11*(6), 856-862.

5. Urokovich K. A., Do‘Stmurodovich S. O., O‘G‘Li M. O. A. TRANSPORT OQIMINI MODELLASHTIRISHDA PTV VISSIM DASTURINI O ‘RGANISH ASOSLARI //Eurasian Journal of Mathematical Theory and Computer Sciences. – 2024. – T. 4. – №. 4. – C. 32-39.

TRANSPORT VOSITALARI KABINA YUZALARINI ISHLAB CHIQISH


Omonov N.N. – t.f.f.d. (PhD), dotsent, Atadjanova M.M. – dotsent
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti

Avtomobil yoki traktorning mukammal loyihasini yaratish bosqichlari ularni yaratishning asosiy bosqichlariga mos keladi. Yangi avtomobil yoki traktorning yuqori sifati muhandis-dizaynerlik ishlarini bajarmasdan ta’minlanishi mumkin emas [1]. Kuzov yoki kabinaning birorta elementi yuzalarini ishlab chiqish deganda odatda o‘sha yuzalarni u yoki bu shaklda tasvirlashni tushuniladi. Bunda ishlanayotgan yuza mantiqiy, to‘g‘ri bo‘lishi, ya’ni ko‘rganda garmoniyali, qonuniy idrok qilinishi kerak. Ko‘rib idrok etish zehnning tabiiy qonunlari bilan shartlangan [2].

Inson birorta yirik narsani ko‘rayotgan vaqtda uning nazari bu narsaning yuzasi bo‘ylab o‘tadi, va shunday qilib uning shakli haqida yagona taassurot hosil bo‘ladi. Nazarning joyini o‘zgartirishi odatda ma’lum trayektoriya bo‘yicha yuz beradi, u narsa yuzadagi asosiy shakl hosil qiluvchi chiziqlar bilan aniqlanadi. Nazarning harakatini ma’lum darajada material nuqtaning harakati assotsiatsiyalashi mumkin. Agarda joyini o‘zgartirishning trayektoriyasi - to‘g‘ri chiziq bo‘lsa, nuqtaning harakati kechikishlarsiz yuz beradi. Faraz qilamiz, to‘g‘ri chiziq doimiy radiusli egri chiziqqa o‘tadi. Unda to‘g‘ri chiziq va aylana yoyining biriktirish nuqtasida ko‘ndalang tezlanish paydo bo‘ladi. Agar moddiy nuqta emas, balki nazar boshqa joyga o‘tsa, u birikish nuqtasiga yetgan paytda, inson ma’lum ko‘rish noqulayligi va bir chiziqning boshqasiga o‘tishini “mantiqiy” emasligini sezadi [3].

Agarda gap chiziq haqida emas, balki, misol uchun to‘g‘ri chiziq kesmasini biz eslatib o‘tgan to‘g‘ri chiziq va aylana yoyi bo‘yicha yoki 1- (*a* va *b)* rasmda ko‘rsatilgandek ikkita yoylar birlashishi bo‘yicha surilishidan hosil bo‘lgan yuza haqida bo‘lsa, unda yorug‘lik dog‘i (shu’la) yuzalar birlashgan joyda o‘lchamlarini keskin o‘zgartiradi. Bu ko‘rayotgan odamda “yirtilgan” yuza tasavvurini keltirib chiqaradi va u bir butun idrok qilinmaydi. Agarda o‘tish joyi


oliy tartibdagi egri chiziq bo‘yicha bajarilgan bo‘lsa (1 c-rasm), yorug‘lik dog‘i o‘lchamlarini asta-sekin o‘zgartiradi va yuza yaxshi taassurot qoldiradi.



1-rasm. Har xil egrilikdagi yuzalarning o‘tish joylarini bajarilishi: *a, b* - noto‘g‘ri (ravon emas); *c* - to‘g‘ri (ravon).

Yassi yuzalar va muvofiq tarzda yassi tashqi qismlar avtomobil va traktorsozlikda ehtiyotkorlik bilan qo‘llanadi, chunki shunday qismlar yetarli bikrlikka ega bo‘lmaydi, yorug‘lik shu’lasi esa (yoki atrofdagi narsalarning aks tasviri) ularda noto‘g‘ri shaklda (buzilgan) chiqadi. Kuzovning yassi detallarini bikrligini oshirish uchun ularning ichkaridan har xil kuchaytirgichlar bilan mustahkamlashga, yoki ularning yuzasida shtamplangan do‘ng yoki botiq qovurg‘alar bajarishga to‘g‘ri keladi. Shunday yuzalar, misol uchun, avtobus kuzovlarida qo‘llaniladi.

Chiziqli yuzalardan (geometriya nuqtai nazaridan - silindrik) ko‘pincha yon devorlarda va avtobus tomida foydalaniladi. Ular kuzov panelini yetarlicha bikr qilishga imkon beradi, buning ustiga panelning egilish radiusi qanchalik kichik bo‘lsa, bikrlik shunchalik baland bo‘ladi. Kuzov yoki kabina tashqi yuzalarning aksariyat ko‘pchiligi - egri chiziqli. Agar egri yuzani bir nechta parallel tekisliklar bilan kesilsa, egriliklarning qatori yuzaga keladi, ular o‘zaro ma’lum bog‘lanishda bo‘lishi mumkin - tenglik, o‘xshashlik yoki kollinearlik.



2- rasm. Geometrik egri chiziqlar orasidagi bog‘lanish:
a - tenglik; *b* - o‘xshashlik; c - kollinearlik.

Tenglikda (2 *a* - rasm) *I, II, III* va *IV* egri chiziqlar geometrik teng. Geometrik o‘xshashlik (2 *b* - rasm) bildiradiki, *II, III* va *IV* egri chiziqlar *I* egri chiziq singari shaklga ega bo‘ladilar, lekin har xil masshtabdagi kabi, ular *I* egri chiziqdan uzoqlashgan sari mos ravishda o‘zgaradi. Kollinear bog‘liqda (2 *v* - rasm) *I* egri chiziq *II, III* va *IV* egri chiziqlarga *V* va *W* egri chiziqlar o‘tishiga mos ravishda o‘zgartiriladi.

Aksariyat hollarda kuzovlarning yuzalari kollinear egri chiziqlarning yordami bilan yuzaga keladi. Yuqorida aytilgandek, avtobus va furgon

avtomobillarning uzun kuzovlari, ba’zan traktor kabinalari va kapotlarining ayrim joylari ishlab chiqarishning texnologik imkonlari cheklanganda istesno qilinadi.

Adabiyotlar

1. A. Muxitdinov va boshq. Transport vositalarining tuzilishi. Design of vehicles. - T. - “Ta’lim” nashriyoti, 2014. 160 b.
2. David A. Crolla. “Automotive Engineering Powertrain, Chassis System and Vehicle Body”, Amsterdam, Butterworth-Heinemann is an imprint of Elsevier, 2009.
3. Atadjanova M.M., Omonov N.N., Saidova M.T. Avtomobil va traktorlar ergonomikasi va dizayni. T.-247 b.

РОБОТИЗАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ ПРОИЗВОДСТВА РАСПРЕДЕЛИТЕЛЬНЫХ СИЛОВЫХ ТРАНСФОРМАТОРОВ В РАМКАХ ИНДУСТРИИ 4.0

[1]Жаманкулов Е., [2]Смаилова Г.А.
[1]докторант кафедры машиностроение
Satbayev University
г. Алматы, Республика Казакстан
[2] к.т.н., ассоциированный профессор кафедры машиностроение
Satbayev University
г. Алматы, Республика Казакстан

Аннотация: Рассматриваются современные подходы к роботизации производства распределительных силовых трансформаторов в условиях развития Индустрии 4.0. Проанализированы ключевые технологические этапы, на которых применение роботизированных систем обеспечивает повышение точности, сокращение производственного цикла и снижение уровня брака. Показано, что интеграция робототехники с цифровыми технологиями позволяет повысить эффективность, качество продукции и конкурентоспособность предприятий.

Ключевые слова: роботизация, силовой трансформатор, автоматизация производства, Индустрия 4.0, цифровое производство, промышленная робототехника, энергоэффективность.

Актуальность: Современное развитие энергетики сопровождается ростом требований к надежности и эффективности оборудования. Производство трансформаторов, традиционно основанное на значительной доле ручного труда, уже не полностью соответствует этим требованиям. Низкая повторяемость операций, зависимость от человеческого фактора и высокий уровень трудоемкости ограничивают производственные возможности. В этих условиях роботизация становится не просто технологическим улучшением, а необходимым этапом модернизации

отрасли.

Цель исследования

Анализ технологий роботизации производства распределительных силовых трансформаторов и оценка их влияния на эффективность, качество и перспективы развития в рамках Индустрии 4.0.

Задачи исследования

• проанализировать основные этапы производства трансформаторов с точки зрения возможности роботизации;

• определить виды применяемого роботизированного оборудования;

• оценить влияние автоматизации на производственные и экономические показатели;

• выявить преимущества и ограничения роботизации;

• определить перспективные направления развития цифрового производства.

Основной текст

Производство распределительных трансформаторов включает ряд технологически сложных операций: резку электротехнической стали, сборку магнитопровода, намотку обмоток, нанесение изоляции, сварку корпуса и контроль качества. Традиционно многие из этих процессов выполнялись вручную или с частичной механизацией, что ограничивало точность и увеличивало риск дефектов.

Внедрение роботизированных систем позволяет существенно изменить характер производства. Роботы-манипуляторы обеспечивают высокую точность при сборке магнитопроводов, автоматизированные намоточные комплексы гарантируют равномерность обмоток, а роботизированные сварочные установки повышают герметичность корпусов. Дополнительно системы машинного зрения позволяют проводить объективный контроль качества.

Практика показывает, что роботизация приводит к сокращению длительности производственного цикла на 30–40 %, снижению трудоемкости до 40 %, уменьшению уровня брака до 2–3 % и снижению себестоимости продукции на 15–20 %. При этом возрастает энергоэффективность и безопасность труда.

Особое значение имеет интеграция роботизированных систем с цифровыми технологиями. Использование цифровых двойников и систем управления в реальном времени позволяет прогнозировать параметры продукции и оптимизировать процессы. Таким образом, формируется основа для перехода к интеллектуальным «умным фабрикам».

Вместе с тем роботизация сопровождается изменениями в структуре занятости: снижается потребность в ручном труде и возрастает спрос на квалифицированных специалистов в области автоматизации.

Научная новизна

• систематизированы направления роботизации технологических процессов трансформаторостроения;

• установлено влияние роботизации на ключевые производственные показатели;

• обоснована эффективность интеграции робототехники с цифровыми технологиями;

• выявлены тенденции перехода к интеллектуальным производственным системам.

Практическая значимость

• предложены направления внедрения роботизированных систем на предприятиях;

• показана возможность снижения производственных затрат и повышения качества продукции;

• обоснована эффективность перехода к цифровому производству;

• результаты могут быть использованы при модернизации электротехнических предприятий.

Заключение

Роботизация производства распределительных силовых трансформаторов является ключевым фактором повышения эффективности и качества продукции. Ее внедрение позволяет сократить затраты, повысить надежность изделий и улучшить условия труда. В сочетании с цифровыми технологиями роботизация формирует основу для перехода к Индустрии 4.0 и созданию полностью автоматизированных интеллектуальных производств.

Список литературы (по ГОСТ):

1. Андреев В.Н. Автоматизация и роботизация технологических процессов в электротехническом производстве. – М.: Энергоатомиздат, 2020. – 356 с.
2. Кузнецов А.П., Романов И.С. Роботизированные комплексы в машиностроении: теория и практика. – СПб.: Питер, 2019. – 412 с.
3. Логинов С.В., Жуков Д.И. Интеллектуальные системы управления производственными процессами. – Екатеринбург: УрФУ, 2021. – 298 с.
4. Попов Ю.М., Карпов А.Е. Современные технологии трансформаторостроения. – М.: Академия энергетики, 2018. – 287 с.
5. World Robotics Report 2023. – Frankfurt am Main: International Federation of Robotics (IFR), 2023. – 356 p.
6. ISO 8373:2012. Robots and robotic devices – Vocabulary. – Geneva: ISO, 2012.
7. IEC 60076-1:2021. Power transformers – Part 1: General. – Geneva: IEC, 2021.
8. Schwab K. The Fourth Industrial Revolution. – Geneva: World Economic Forum, 2017. – 192 p.
9. Kagermann H., Wahlster W., Helbig J. Recommendations for implementing Industry 4.0. – Frankfurt: acatech, 2013. – 82 p.

UO‘T: 621.73

AVTOMOBIL DVIGATELLARIDA VODOROD YoQILG‘ISINI QO‘LLASh HAQIDA

Xajiev M.X., t.f.n., dos., Jumaniyazov U.R.-talaba
Tel. +998 97 140 44 89
Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent sh.

Annotatsiya. Maqolada avtomobil dvigatellarida vodorod yoqilg‘isini qo‘llashning va uning atrof muhitga sadbiy ta’sirini kamaytirishi haqida muammolari tahlil qilingan.

Annotatsiya. V state analiziruyutsya problemы ispolzovaniya vodorodnogo topliva v avtomobilnых dvigatelyax i snijeniya yego negativnogo vozdeystviya na okrujayuщuyu sredu.

Abstrakt. The article analyzes the problems of using hydrogen fuel in automobile engines and reducing its negative impact on the environment.

Hozirgi vaqtda Yaponiya, Janubiy Koreya Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi va Yevropa Ittifoqi tomonidan taqdim etilgan energiya strategiyalarida vodorod qazilma yoqilg‘ilarni (neft, gaz va ko‘mir) o‘rnini bosadigan va dunyoning turli mintaqalariga energiya saqlash va yetkazib berish uchun ishlatilishi kerak bo‘lgan istiqbolli energiya manbai sifatida ko‘rib chiqilmoqda. Vodorod energiya texnologiyalarini rivojlantirish global iqtisodiyotda kam uglerodli rivojlanishning asosiy omili hisoblanadi.

Vodorodning asosiy afzalliklari uning turli manbalardan olinishi va energi ya tashuvchisi sifatida ishlatilganda karbonat angidrid chiqindilarining yo‘qligidi r, bu esa hozirgi iqlim kun tartibini hisobga olgan holda ayniqsa muhimdir. Ushb u energiya tashuvchisi sun’iy ravishda yaratilgan, chunki erkin vodorodning tabii y konlari yo‘q, shuning uchun vodorod yoqilg‘i emas, balki energiya tashuvchi si sifatida qaralishi kerak.

Avtomobillarni IYoD ni vodorod bilan ishlashga moslashtirish va buning natijasida ulardan chiqadigan gazlar bilan atrof muxitga salbiy ta’sirini (zaharli gazlar salmog‘i 10 martagacha) kamaytirish xozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda [1]. Bunda vodorod yoqilg‘isi quyidagi talablarga javob berishi kerak: katta hajmdagi yoqilg‘i resurslariga ega bo‘lishi, tannarxi juda yuqori bo‘lmasligi, IYoD ning konstruksiyasni o‘zgartirmasdan unga kam o‘zgartirishlar kiritib yangi yoqilg‘iga o‘tish imkoni yarati kerak, atrof muhitga minimal salbiy ta’sir ko‘rsatilishi lozim. [1].

Vodorod yoqilg‘ining eng katta afzalligi esa bu - uning ekologiya jihatdan tozaligidir [1]. Vodorodli IYoD ning xozirgi vaqtda keng qo‘llanilayotgan dvigatellarga nisbatan eng muhim afzalliklaridan yana biri, unda murakkab, ishlab chiqarish va foydalanish qimmatbaho bo‘lgan (dizellarda) ta’minlash tizimining bo‘lmasligi, juda yuqori f.i.k. ga ega bo‘lganligidir.

Vodorod yoqilg‘isida ishlaydigan avtomobil dvigatellarda mavjud bo‘lgan texnik-texnologik va tashkiliy kamchiliklarning mavjud bo‘lishiga qaramasdan, yaqin kelajakda uni qo‘llash ehtimoli juda yuqori bo‘lib, undan

boshqa turdagi yoqilg‘ini ishlatish imkoniyati xozircha mavjud emas deb hisoblanadi [3]. ITI va TKR natijalaripi tahlil qilish natijasida xozirgi vaqtda IYoD da vodorodni yoqilg‘i sifatida ishlatish ishlari turli xil variantlarda amalga oshirilayotganligi aniqlandi [1-3]: vodorodning o‘zini yoqilg‘i sifatida ishlatish, uni boshqa turdagi yoqilg‘i bilan birga aralashma holida ishlatish va vodorodni yoqilg‘isi elementlarida ishlatishdan iborat.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki [1-3], toza vodorodni ichki yonish dvigateli ta’minlash tizimida qo‘llash mumkinligi amalda isbotlangan, lekin bu usulda vodorodni ishlatish keng doirada amalga oshirilmagan. Buning ob’ektiv sabablari: vodorod yoqilg‘isini sanoat asosida olish juda katta hajmda elektr energiyasi xarajatlarini talab etishi, ishlab chiqarilgan vodorod yoqilg‘isini saqlash uchun juda murakkab konstruksiyadagi va avtomatlashgan va yuqori texnologiyalar asosida yaratilgan germetik berk idishlar zaruriyati va mashinalar baklarini vodorod yoqilg‘isi bilan to‘ldirish uchun ta’minlash stansiyalar tizimining respublikamizda tashkil etilmaganligidir.

Avtomobillarda vodorodli yoqilg‘ida foydalanish uchun unga faqat vodorod bilan ta’minlash tizimi va uni saqlash uchun maxsus germetik bak o‘rnatiladi. Uni qo‘llash vodorodni va benzinni yoqilg‘isi sifatida bir vaqtning o‘zida ishlatish imkoniyatini beradi. Bu usulni xozirgi kunda BMW i Mazda kompaniyalari o‘z avtomobillarida keng qo‘llamoqdalar [1].

Vodorod yoqilg‘isida ishlaydigan avtomobil IYoD propanda ishlaydigan dvigatel kabi ishlaydi. Shu sababli propandan vodorodga o‘tish juda oson va qulay. Xozirgi kunda taxminan 25 % zaharli gazlar turli xil turdagi mashinalar, jumladan avtomobillar hisobiga yuz beradi [1-3].

Xulosa

Mashinalarda vodorod yoqilg‘isini qo‘llash yoqilg‘i-moylash materiallariga sarflanadigan xarajatlarni ko‘p marta kamaytirish va atrof-muhitni yaxshilash imkoniyatini beradi. Vodorod yoqilg‘isini qo‘llash natijasida IYoD atrof muhitga chiqarib yuboriladigan zaxarli gazlar miqdori 10 martagacha kamayadi.

Adabiyotlar

1.Спиридонов В.Д., Сиваков В.В. Проблемы в исползовании водородного двигателя. //Акутуалные направления научных исследований ХХИ века: теория и практика. ВГЛТУ им.Г.Ф.Морозова.-Воренж: ВГЛТУ, 2015. 419-422 б.

2.Раменский А.Ю. Применение водорода в качестве топлива для автомобилей//ООО «Инженерно-технический сентр «Водородные технологии» (ИТС ВТ) (хттп://www.слеандех.ру/артислес/2015/11/06/тхе_усе-_оф-хйдроген_ас_а_фуел_фор_сарс).

3.Радченко Р.В., Мокрушин А.С., Тюлпа В.В. Водород в энергетике : учеб. пособие . — Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2014. — 229 б.

РАЗРАБОТКА ЗАМКНУТОЙ АЭРОДИНАМИЧЕСКОЙ УСТАНОВКИ ДЛЯ ВЫСОКОТОЧНОЙ КАЛИБРОВКИ СРЕДСТВ ИЗМЕРЕНИЯ СКОРОСТИ ВОЗДУШНОГО ПОТОКА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОГО МАШИНОСТРОЕНИЯ

Пулатов Тахиржан Рустамбекович, доцент, PhD
Туринский Политехнический университет в г. Ташкенте

Аннотация. В работе рассматриваются научно-технические основы разработки замкнутой аэродинамической установки для высокоточной калибровки анемометров. Обоснована необходимость формирования национальной метрологической базы, обеспечивающей прослеживаемость измерений в диапазоне до 80 м/с. Представлены результаты аналитического моделирования, конструктивные решения и оценка метрологических характеристик. Показано, что применение замкнутой схемы обеспечивает высокую однородность потока и низкую турбулентность [1–3].

Ключевые слова: анемометр, калибровка, аэродинамическая установка, метрология, турбулентность.

Введение. Современные тенденции развития машиностроения и цифровых технологий требуют повышения точности измерений физических параметров технологических процессов. В частности, скорость воздушного потока является критически важной величиной в авиации, энергетике и экологическом мониторинге [1].

Анализ существующих методов калибровки показывает, что большинство установок не обеспечивают необходимую точность при высоких скоростях потока (>50 м/с), что связано с высоким уровнем турбулентности и неравномерностью профиля скорости [2].

В этой связи разработка замкнутых аэродинамических установок, обеспечивающих стабильные условия потока, является актуальной научной задачей [3].

1. Теоретические основы. Скорость воздушного потока определяется через динамическое давление:

$$V = \sqrt{\frac{2\Delta P}{\rho}}$$

где ΔP— разность полного и статического давления, ρ— плотность воздуха.

Согласно стандарту ISO 3966, данный метод является базовым для калибровки анемометрических приборов [4].

Расчёты показывают, что при скорости 80 м/с динамическое давление достигает ~3840 Па, что предъявляет повышенные требования к точности датчиков давления [2].

Качество потока характеризуется следующими параметрами:

- турбулентность $\leq 0.2\%$;
- неравномерность $\leq 0.5\%$;
- стабильность во времени.

Эти параметры напрямую влияют на неопределённость измерений [5].

2. Конструктивные решения. Замкнутая аэродинамическая установка включает:

- вентилятор;
- диффузор;
- выравнивающую камеру;
- honeycomb-структуру;
- сетки;
- рабочую часть.

Использование honeycomb-структуры позволяет существенно снизить уровень турбулентности потока за счёт подавления поперечных вихрей [3].

Согласно исследованиям, оптимальное соотношение длины ячейки к её диаметру должно составлять 6–10, что обеспечивает эффективное выпрямление потока [2].

Рабочая часть установки должна обеспечивать равномерный профиль скорости и возможность установки эталонного и калибруемого приборов в одной измерительной плоскости [4].

3. Метрологическое обеспечение. Калибровка выполняется с использованием:

- трубок Пито–Прандтля;
- дифференциальных датчиков давления;
- датчиков температуры и влажности.

Система соответствует требованиям:

- ISO 3966;
- ISO 5801;
- ISO/IEC 17025 [4–6].

Суммарная неопределённость измерений определяется методом корневой суммы квадратов составляющих [5].

Анализ показывает, что при соблюдении всех условий возможно достижение общей неопределённости порядка 0.5–1.0%.

4. Аналитические и численные исследования. CFD-моделирование показало:

- отклонение скорости $\leq \pm 0.3\%$;
- турбулентность $< 0.2\%$;
- отсутствие рециркуляционных зон.

Полученные результаты согласуются с данными, представленными в работах [2,3], где отмечается высокая эффективность замкнутых аэродинамических схем.

Энергетический анализ показал снижение энергозатрат до 30% по сравнению с открытыми установками [3].

Заключение. Разработка замкнутой аэродинамической установки позволяет обеспечить высокую точность калибровки анемометров в широком диапазоне скоростей. Полученные результаты подтверждают эффективность предложенных конструктивных и метрологических решений [1–6].

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Pope S.B. *Turbulent Flows*. — Cambridge University Press, 2000.
2. Barlow J.B., Rae W.H., Pope A. *Low-Speed Wind Tunnel Testing*. — Wiley, 1999.
3. Mehta R.D., Bradshaw P. Design rules for small low-speed wind tunnels // *Aeronautical Journal*. — 1979.
4. ISO 3966:2020. Measurement of fluid flow in closed conduits — Velocity area method using Pitot tubes.
5. ISO/IEC 17025:2017. General requirements for the competence of testing and calibration laboratories.
6. ISO 5801:2017. Fans — Performance testing using standardized airways.

MOBIL MASHINALARDA GTL SINTETIK YOQILG‘ISINI QO‘LLASHNING ENERGIYA-EKOLOGIK SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Odilov Odiljon Zokirjonovich, PhD, dotsent
Farg‘ona davlat texnika universiteti

Annotatsiya. *Maqolada GTL sintetik dizel yoqilg‘isini mobil mashinalarda qo‘llashning energiya sarfi va ekologik ko‘rsatkichlarga ta’siri baholandi. Baholashda transport vositalarida olingan ekspluatatsion sinov natijalari, yoqilg‘i sarfi me’yorlari va chiqindi gazlar tarkibiga ta’sir etuvchi asosiy omillar hisobga olindi.*
Kerosin 3-yig`gichdan keyin tuzli quritgich orqali yuqoridan pastga tomon o‘tadi. Bu vaqtda suv quritgich tubida tuzli eritma ko‘rinishida davriy ravishda chiqarilib turiladi. Chiqariladigan suv miqdori ancha kam sutkasiga 0,6m3. kerosin quritishdan so‘ng oqartiruvchi gilmoya – attapulgite qatlami orqali sizib o‘tadi. Bu bosqichda kerosinga yakunlovchi ishlov beriladi va undan qattiq jinslar yuza sirt faol aktiv moddalar chiqariladi.

1938 йилда полибутен (савдодаги номи паратон) ишлаб чиқилди, 40 – чи йилларда полиакриламид ва полиалкилстирол, 50-чи йилларда карбон кислоталар тўйинмаган эфирларнинг полимер ва сополимерлари, 60 – чи йилларда этиленнинг турли мономерлари билан сополимерлари ва бошқалар таклиф қилинган эди. Кейинги йиллар ва ҳозирги вақтгача нефт маҳсулотларига депрессорли присадкалар сифатида таклиф қилинган ва саноатда ишлатиладиган кўпчилик турли – туман кимёвий моддалар орасида синтетик полимер моддалар устун туради.

Бу сезиларли даражада нефт ва нефт маҳсулотларининг нафақат паст ҳароратли хоссаларини яхшилашда балки яна бошқа мақсадлар учун полимерларнинг кенг қўлланишида ўз таъсирини кўрсатади.

Ёқилғиларга депрессорли присадкаларнинг ривожланишида асосий ўринни энг арзон нефткимёвий хом ашё бўлган этилен сополимерлари асосида олинган присадкалар эгаллайди. Улар орасида энг оммабопи этиленнинг винилацетат билан ҳосил қилган сополимери бўлиб чиқди. Бу присадкалар дизел ва печ ёқилғиларида, мазут ва нефтларда муваффақиятли қўлланиб келинмоқда.

Охирги йилларда иккита ва ундан ортиқ компонентли фаол моддадан таркиб топган композицион депрессорли присадкаларни ишлаб чиқиш тенденцияси кузатилаяпти.

Бундай присадкалар компонентлар таъсирининг синергизмига ёки нефт маҳсулотларининг паст ҳароратли хоссаларига комплекс таъсири туфайли катта самарадорликка эга.

Депрессорли присадкаларнинг ассортименти кенгайгани сари депрессорларнинг таъсир механизми бўйича эксприментал материал

тўплана бошлаган ва бу материал асосида бу ҳодисанинг табиати тўғрисида кенг умумлаштиришлар қилишга имкон яратилган.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.

1) Альбом технологических схем процессов переработки нефти и газа.//Под. Ред.Бондаренко Б.И. М., Химия, 1984. 154с.
2) N.R. Yusupbekov va boshqalar “Kimyoviy texnologiyaning asosiy jarayonlari va qurilmalari”, Toshkent 2003.
3) Машины и аппараты химических производств. И.И. Поникаров и др. М. Машиностроение , 1989.
4) А.Г Сарданашивили, А.И Львова «Примеры и задачи по технологии переработки нефти и газа. М., Химия, 1984. 386с.

ГАЗЛАРДАН ЮҚОРИ ҚАЙНОВЧИ КОМПОНЕНТЛАРНИ АЖРАТИШ ВА ЭКОЛОГИК ТОЗА СИФАТИ ЮҚОРИ КЎРСАТКИЧЛИ МОТОР ЁҚИЛҒИЛАРИНИ ИШЛАБ ЧИҚИШ

Г.Норқулова, П.Давронов, У.Уринов

АННОТАЦИЯ

Ушбу ишида экологик тоза сифати юқори кўрсаткичли мотор ёқилғиларини олиш учун тадқиқотлар олиб борилган. Табиий газдан олтингугугурт ва ароматик компонентларни сақламаган экологик тоза сифат кўрсаткичи юқори мотор ёқилғисини ишлаб чиқилган.

Газни қайта ишлаш корхоналари мисолида юқори парафинли газ конденсатни экологик тоза сифат кўрсаткичи юқори бўлган мотор ёқилғиларга, газ кимёси хом-ашёсига, техник углеродга қайта ишлаш комплекс схемаси жорий этилиши мақсадга мувофиқлиги асосланган.

Айни вақтда мамлакатимиз босиб ўтган тараққиёт йўлининг чуқур таҳлили, бугунги кунда жаҳон бозори конъюнктураси кескин ўзгариб, глобаллашув шароитида рақобат тобора кучайиб бораётгани давлатимизни янада барқарор ва жадал суръатлар билан ривожлантириш учун мутлақо янгича ёндашув ҳамда тамойилларни ишлаб чиқиш ва рўёбга чиқаришни тақозо этмоқда.

Ҳозирги кунда кўпгина нефть-газ компаниялари углеводород хом-ашёсини, хусусан табиий газни суюлтирилган мотор ёқилғиларга (СМЁ) ўзгартириш бўйича рақобатбардош жараёнларни яратиш бўйича кенг кўламдаги илмий тадқиқотларни олиб боришмоқда. Бу соҳадаги тадқиқотларнинг долзарблиги нефтга, ва мувофиқ равишда мотор ёқилғиларига бўлган нархларнинг ошиб боришини тақозо қилади. Углеводород хом-ашёсини чуқур қайта ишлаш бўйича жараёнларни танлаш ҳар бир завод учун ўзига хос бўлади, ва мотор ёқилғилари бозори тўйинганлиги, нархлар структураси, мавжуд қурилмалар реконструкцияси учун талаб қилинган ва янги қурилмаларни жорий қилиш учун керак бўлган капитал сармоялардан боғлиқ бўлади.

Газ конденсатларининг маҳсулот сифатидаги товар хусусиятлари

уларнинг физик-кимёвий характеристикалари билан аниқланади. Конденсатлардан мотор ёқилғиларининг алоҳида маркаларини ишлаб чиқиш имкониятларини баҳолаш учун ягона технологик классификация ишлаб чиқилган. Мазкур классификацияга мувофиқ, конденсатлар тўйинган буғлар босими, фракцион таркиб, ароматик углеводородлар ва парафинлар мавжудлиги, қотиш ҳарорати каби кўрсаткичлар бўйича таҳлил қилинади

Ҳозирги вақтда деярли барча газни қайта ишлаш заводлари хом-ашё базасига нафақат конденсат, балки қонларга яқин бўлган нефть жияклариниг нефтлари ҳам жалб қилинади. Шундай қилиб, эндиликда гап нафақат газ конденсатини, балки нефтегазоконденсат аралашмасини (НГКА) қайта ишлаш ҳақида бормоқда. Бензин фракциясининг бир қисми риформинг ва цеоформинг жараёнлари бўйича автобензинга қайта ишланади.

Газ конденсатларини қайта ишлаш бўйича асосий йўналишлар, улардан нефть кимёси хом-ашёси сифатида ва мотор ёқилғилари ишлаб чиқариш учун фойдаланиш мақсадга мувофиқлиги. Маълумки, барқарор газ конденсатини қайта ишлаш технологияларини танлашда асосий урғу мотор ёқилғиларини, шу жумладан бензинга юқори октанли қўшимчаларни (изопентан, изомеризат), қишки ва арктик дизель ёқилғисини ишлаб чиқаришга берилмоқда ва ҳали узоқ вақт бу тенденция сақланиб қолади.

ГҚИЗ да барқарор конденсатдан цеоформинг жараёни бўйича ароматиклашган автобензин А-76 (Нормал-80) ишлаб чиқариш қурилмаси ишлатилиб, унинг хом-ашё бўйича ишлаб чиқариш унумдорлиги 40 минг т/йил ни ташкил қилади. Қурилманинг амалдаги унумдорлиги 50 минг т/йил ни ташкил қилади, ва бунда 22 минг т А-76 автобензини ишлаб чиқарилади.

Паст октанли барқарор конденсатни бензинга қайта ишлаш пентасил туридаги цеолит сақлаган катализатор иштирокида амалга оширилади. Цеоформинг жараёнининг анъанавий риформинг жараёнидан фарқи водород ишлаб чиқариш қимматбаҳо қурилмалар йўқлиги ҳисобланади.

Бензинларнинг антидетонацион хоссаларини баҳолаш учун октан сонларнинг эмпирик шкаласи ишлатилиб, унда 2,2,4-триметилпентаннинг (изооктан) антидетонацион хоссалари 100, н-гептан эса 0 деб олинган. Бензиннинг октан сони – бу ҳажм.% да 2,2,4-триметилпентан ва н-гептан аралашмаси бўлиб, у олинган бензин каби антидетонацион хоссаларга эга бўлади. Ишлаб чиқариладиган бензинларнинг сифати углеводород хом-ашёсини бирламчи ва иккиламчи қайта ишлаш қувватлари нисбатидан бевосита боғлиқ бўлади. Каталитик крекинг, риформинг ва алкиллаш қурилмаларида олинадиган бензиннинг бирламчи ҳайдаш қурилмаларида олинадиган бензинга нисбати мувофиқ равишда 5,5, 11 ва 0,1% ни ташкил қилади.

Ноэтиллашган бензин маркаларини ишлаб чиқариш мақсадида цеоформинг жараёнини жорий қилиш истиқболлари энг аввало мотор ёқилғига минтақа талаблари, углеводород хом-ашёси базаси мавжудлиги ва ишлаб чиқариш саноати имкониятларидан келиб чиқади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини

янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси” тўғрисидаги Фармони (“Халқ сўзи”, газетаси, 2017 йил, 8 февраль)
2. Шурупов СВ. Углубленная переработка углеводородов // Газовая промышленность, 2003, №10. - С. 74-79.
3. Мальковский П.А. Совершенствование технологий и аппаратов переработки газовых конденсатов: Диссертация на соискание ученой степени доктора техн. наук.-Казанский государственный технологический университет, Казань, 2003, 43 с.
4. Ахметов А.Ф., Каратун О.Н. Превращение прямогонных бензиновых фракций на модифицированных пентасилсодержащих катализаторах // Химия и технология топлив и масел. - 2002, № 3, С. 30-32.
5. Ахметов А.Ф., Каратун О.Н. Стабильность пентасилсодержащих катализаторов при превращении прямогонных бензиновых фракций // Химия и технология топлив и масел. - 2002, № 6, С. 24-25.
6. Сытникова Г.П., Степанов В.Г., Ионе К.Г. Цеоформинг - эффективный процесс производства неэтилированных высокооктановых автобензинов.- Проблемы катализа XXI века: Памяти академика Д.В. Сокольского.: Программа и тезисы международной конференции. 12-15 июля 2000 г. - Алматы, 2000, С. 29.

УГЛЕВОДОРОДЛАРНИНГ ПЕРОЛИЗ ЖАРАЁНЛАРИДА СУЮҚ МАХСУЛОТЛАРГА КОМПЛЕКС ИШЛОВ БЕРИШ

Қ.Жонқобилов, Г.Норқулова, Д.Хайруллаева, У.Уринов

Газоконденсат хом-ашёсини қайта ишлаш соҳасида эришилган натижаларни таҳлил қилишда қўйидаги моментларга тўхталиб ўтиш лозим. Албатта, газ конденсатини чуқур қайта ишлаш нефт хом-ашёсидан фарқли равишда равшан фракциялар юқори миқдори билан шартланган ўзига хосликка эга. Экологик тоза мотор ёқилғиларни ишлаб чиқариш учун йўналтирилган газ конденсатининг бензин ва дизель фракцияларини ажратиш ва каталитик тозалаш жараёнлари газ конденсатини чуқур қайта ишлашнинг асосий йўналиши сифатида ҳали узоқ вақт сақланиб қолади.

Синтезнинг газсимон маҳсулотлари таҳлили

Атмосферага чиқариладиган газлар N_2, CO, H_2, енгил углеводородлар Ct-Cs ва C_5+ углеводородларнинг кичик қисмини сақлайди.

Бошланғич ва чиқувчи газлардаги CO, $C0_2$ ва N_2 концентрациялари хроматограф ЛХМ-80 да ±5% аниқликда фаоллаштирилган кўмир билан тўлдирилган колонкада (СКТ) ўтказилди.

Углеводородлар C_1-C_7 хроматографик тарзда сорбентлар Полисорб-1 ва Полисорбом-1 сорбентлар билан тўлдирилган комбинацияланган колонка ёрдамида ўтказилди. Таҳлил аланга-ионизацион детекторли хроматограф Chrom-5 да колонка ҳарорати 50 дан 180 °С гача дастурий кўтарилиши режимида ўтказилди. Ушбу усул газ аралашмаси компонентлари концентрациясини ±5% аниқликда аниқлаш имконини беради.

Суюқ углеводородлар таҳлили

Приемник-сепараторлардан олинган суюқ углеводородлар намуналари бирлаштирилди, тортилди ва хроматографик таҳлил қилинди. Фишер-Тропш синтези суюқ углеводородлари бир оз спирт сақлаган алифатик углеводородлар аралашмасидан иборат бўлади. Аралашмадаги индивидуал бирикмалар миқдори 130-150 га етади. Аралашманинг ҳар бир бирикмасини аниқлаш мураккаб масала бўлганлиги сабабли Топчиев номидаги ИНХС да Фишер-Тропш синтезининг 69 дан 370 °С гача қайнаш ҳароратига эга суюқ углеводородлар гуруҳ хроматографик таҳлили методикаи ишлаб чиқилди. Аралашмани ажратиш учун хроматон ташувчида универсал суюқ фазали (апиезон, полиэтиленгликоль ва SE-30) насадка колонкалари, шунингдек капилляр колонкалар ишлатилди. Тадқиқот жараёнида шу жиҳат аниқландики, ҳосил бўлган суюқ ва қаттиқ углеводородлар ажратилиши 5% суюқ фаза SE -30 суртилган инерт AW-DMCS билан тўлдирилган пўлат насадка колонкасида амалга оширилиши мумкин. Таҳлил аланган-ионизацион детекторли хроматограф Chrom-5 да ҳароратни 70°С дан 280°С гача дастурлаш режимида ўтказилди. Компонентларни аниқлашдаги хатолик ±5% дан ошмади.

Шундай қилиб, ГҚИЗ да суюқлик хом-ашёсидан техуглерод ишлаб чиқариш 6 та технологик линиялардан чиқувчи газларни каталитик қайта ишлашда 12,5 минг т/йил УКФ олиб бўлиб, унинг таркибида 7,9 минг т (63,2 масс.%) C_6-C_{10} ёқилғи фракциялари сақланади.

Хулосалар

Таркибдаги синтез-газни қайта ишлашда суюқ углеводородлар (C_5-C_{20}) максимал эришиладиган чиқиши CO>95% конверсиясида 47 г/нм^3 қайта ишланган аралашма (CO+H_2), ёки 15,4 г/нм^3 аралашма (N2+CO+H2+CO2) ни ташкил қилди. Бу айнан шу катализаторда метаннинг буғли реформингида ҳосил бўладиган (ҳажм.%: N2-50; CO-18; H_2-32) таркибдаги синтез-газни қайта ишлашга нисбатан 40% кичикроқдир.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси” тўғрисидаги Фармони (“Халқ сўзи”, газетаси, 2017 йил, 8 февраль)
2. В.В.Бурлов. Защита от коррозии оборудования НПЗ/В.В.Бурлов, А.И.Альцыбеева, И.В.Парпуц//СНБ.:ХИМИЗДАТ.-2005.-248с.
3. Набутовский,З.А.Проблемы коррозии иингибиторной защиты на месторождениях природного газа /З.А.Набутовский,В.Г.Антонов,А.Г. Филиппов/ /Практика противокоррозионной защиты.-2000.-№3.-С.53-59.
4. М.Л.Медведева.Коррозия и защита атмосферной колонны при по-вышении агрессивности перерабатываемой нефти./М.Л.Медведева,А.А. Горелик.//Защитаметаллов.-2002-Т.38. -№5. -С.557-560 .
5. В.В.Бурлов.Особенности и виды коррозионных разрушений ме-талла оборудования установок первичной переработки нефти./В.В.Бурлов, И.В.Парпуц//Защитаметаллов.-2005. -Т.41. -С.107-112.
6. Технология переработки нефти:В 2 тўртламчи аммоний бирикмаларитях.Ч.1.-Первичная пе-реработка

нефти./подред.О.Ф.Глаголевой и В.М.Капустина.-М.: Химия, Колос, 2006.-400с.



НЕФТ ТАРКИБИДАГИ ОҒИР ОРГАНИК БИРИКМАЛАРИ.

С.Хасанов, О.Абдурахимов., Д.Хайруллаева, У.Уринов

Табиий ресурслар ичида нефт қимматбаҳо ва қайта тикланмайдиган углеводород хом ашё сифатида муҳим рол ўйнайди. Нефт қазиб чиқариш ва ундан самарали фойдаланиш масштаби аксарият мамлакатларнинг иқтисодий потенциалини белгилайди. Лекин нефт ресурсларини тайёрлашни қимматлашиб бориши, ишга туширилаётган нефт конларининг географик, табиий иқлими ва тоғ геологик шароитларининг аҳамиятли даражада мураккаблашиб бориши нефт қазиб чиқариш таннархини ўсишига олиб келади. Бундай шароитларда нефт конларини ишлатишнинг барча босқичларида - қазиб чиқаришдан, қайта ишлаш ва якуний маҳсулотдан фойдаланишгача бошқаришнинг самарадор усуллари ва минерал хом ашё ресурсларининг йўқотилишини қисқартириш муҳим аҳамият касб этади.

Нефт саноатининг долзарб муаммоларидан бири қудуқларни ишлатиш самарадорлигини ошириш ҳисобланади. У аномал нефт уюмларини ишлатишда муҳим долзарбликни ўзида намоён қилади. Чунки бундай конларда қудуқларни ишлатиш нефтнинг аномал қовушқоқлиги ва ҳаракатланишини юзага келиши, асфальтсмолапарафин тўплами ва қатламнинг қудуқ туби атрофи зонасида юқори қовушқоқ эмульсияларни ҳосил бўлиши билан мураккаблашади. Бундан ташқари, аномал нефтларнинг таркибида сероводород бўлиб қудуқларни ишлатишда қўшимча қийинчиликларни келтириб чиқаради.

Парафинли нефтларни қазиб чиқаришда қудуқлар, нефт кони жиҳозлари ва қувурўтказгич коммуникацияларнинг ишлашида мураккабликларни келтириб чиқарадиган жиддий муаммо системанинг маҳсулдорлиги ва насос қурилмаларининг иш самарадорлигини пасайишига олиб келадиган асфальтсмолапарафин тўпламларини ҳосил бўлиши ҳисобланади.

	
а	б

Расм. Нефт парафинининг микрокристал ва макрокритал структуралари.

Нефтнинг оғир органик бирикмаларини асосий синфлари қаттиқ

парафинлар, смолалар ва асфальтенлар ҳисобланади. Нефт парафинлари алканли углеводородлар C_{18} – C_{36} ва нафтенли углеводородларни C_{30} – C_{60} ўзида намоён қилади. Парафинлар босим ва ҳароратга боғлиқ ҳолда турли агрегат модда ҳолатида (газ, суюқлик, қаттиқ) бўлиши мумкин. Суюқ ҳолатдан қаттиқ ҳолатга ўтганида парафинлар кристалларни ҳосил қилади. Алканли углеводородларнинг структураси микрокристалли (а-расм). Нафтенлар марокристал структурани ҳосил қилади (б-расм).

Нефтнинг смола-асфальтен моддаларини ўрганиш уларнинг таркиби ва тузилиши мураккаблиги туфайли анча қийин. Нейтрал смолалар кислота ва ишқорларда эримайди ҳамда нефтли углеводородлар билан тўлиқ аралашади, шу жумладан енгил фракциялар билан ҳам. Асфальтенларни паст қайновчи парафинли эритмалар қўшилганда чўкадиган, ва бензолда тўлиқ эрийдиган фракция сифатида аниқлаш қабул қилинган. Асфальтенлар кристалланмайди ва индивидуал компонентларга ёки тор фракцияларга ажратилиши мумкин эмас. 300-400^{o}C дан юқори ҳароратда қиздирилганда асфальтенлар эримайди, балки углерод ва учувчан маҳсулотлар ҳосил қилиб ажралади. Асфальтенлар нефтнинг нисбатан оғир ва қутбланган компонентлари ҳисобланади. Асфальтенларнинг заррачалари полидисперс, уларнинг молекуляр массаси 1000 дан 2000000 гача ўзгариши мумкин ва аниқлаш усули ва ассоциацияланиш жараёнларининг боришига жуда боғлиқ.

Замонавий тасаввурларга кўра нефт ва нефтсимон объектлар органик моддаларнинг беқарор дисперс система ҳолатидаги мураккаб системасини ўзида намоён қилади. Улардаги дисперс заррачаларнинг ўлчамлари ва хоссалари молекулаларнинг кинетик ҳаракатланиш энергиясининг мувозанати ва уларнинг ўзаро жуфт таъсир потенциалларига боғлиқ. Юқоридагилардан маълумки, шароитни бошланғич қатламдагидан ҳар қандай ўзгариши системанинг беқарорлашишига ва оғир органик бирикмаларнинг чўкишига олиб келади.

Оғир органик бирикмаларнинг тўпланиш жараёнини юзага келтирувчи асосий омиллар қудуқ тубидан устига ҳаракатланаётган нефт оқимининг ҳарорат ва босимини пасайиши, нефт ва қазиб чиқариш жараёнини жадаллаштириш жараёнида ҳайдаладиган модданинг таркиби ҳисобланади. Қатлам шароитларида парафинлар нефтда тўлиқ эрийди, ва нефт оқимининг ҳарорати пасайганда парафинларнинг суюқ ҳолатдан қаттиқ ҳолатга классик фазовий ўтиши юзага келади. Ҳарорат пасайиши билан бу ўтишни амалга ошиши учун парафин кристалларини ҳосил бўлиши ва ўсиши юзага келадиган эркин юза бўлиши лозим. Бундай юза сифатида насос компрессор қувурлар (НКҚ), механик аралашмалар ва асфальтенларнинг нисбатан йирик заррачалари хизмат қилади.

Парафинлардан фарқли ўлароқ, асфальтенлар нефтда қисман эриган ва қисман коллоид ҳолатда мавжуд бўлади. Асфальтенларнинг нефтдаги ҳолати асосан уларнинг молекуляр массаси ва смолаларнинг иштироки билан белгиланади. Бошланғич қатлам шароитларида смолалар, асфальтенларнинг юзасида адсорбирланган ҳолда асфальтенларнинг қайтмас агрегациялинишига тўсқинлик қилиб стабилизатор ролини

ўйнайди. Ташқи омиллар таъсирида смолаларнинг бир қисми асфальтенлар заррачаларининг юзасидан десорбирланади, натижада асфальтенларнинг муҳитда заррачаларнинг мустаҳкамлигини йўқолишига ва уларнинг нефт кон жиҳозлари деворига тўпланишига олиб келадиган қайтмайдиган агрегацияланиш жараёнлари ривожланади. Тадқиқотчилар томонидан аниқланишига кўра, кислотали ишлов бериш, CO_2 ҳайдаш ва қатламга сиқилган углеводород газларни ҳайдаш асфальтенлар тўпланишига олиб келади. Шундай қилиб, асфальтенларнинг тўпланиши умумий ҳолда суюқ ҳолатдан қаттиқ ҳолатга классик фазовий ўтишидан узоқ ва жуда мураккаб жараёнларнинг натижаси ҳисобланади.

Кон амалиёти тадқиқотлари шуни кўрсатадики, аҳамиятли даражадаги технологик ва иқтисодий муаммоларга олиб келадиган асфальтсмолапарафин тўплами (АСПТ) ҳосил бўлишида асосий рол асфальтенларга тегишли бўлади. НКҚ юзасида парафинларнинг кристалланиши мустаҳкам тўпламлар ҳосил қилиш учун етарли шароит ҳисобланмайди. Чунки, асфальтенларнинг иштирокисиз ҳосил бўлган парафин кристаллари ўзаро кучсиз боғланган ва нефт оқими билан осонгина емирилади. Оғир органик бирикмаларнинг ҳосил бўлиш жараёнида асфальтенлар иккита жуда муҳим ролни ўйнайди. Биринчидан, асфальтенлар қутбланган бирикмалар ҳисобланиб тўпламларнинг мустаҳкамлигини ошишида “клей” ролини ўйнайди. Иккинчидан, вақт ўтиши билан асфальтенли масса полимерланади ва зичлашади, натижада тўпламларнинг мустаҳкамлиги қўшимча ошади ва уларнинг органик эритмаларда эрувчанлиги ёмонлашади.

Олимлар ва амалиётчиларнинг тадқиқотлари ҳозирги вақтда парафин ҳосил бўлишига таъсир этувчи қуйидаги омилларни ажратишга имкон яратди:

- қудуқ туби атрофида босимнинг пасайиши ва шу билан боғлиқ ҳолда газсуюқлик системасининг гидродинамик мувозанатини бузилиши;
- жадал газ ажралиши;
- қатламда ва қудуқ стволида ҳароратнинг пасайиши;
- газсуюқлик аралашмаси ва унинг алоҳида компонентларини ҳаракатланиш тезлигини ўзгариши;
- аралашманинг ҳар бир фазасидаги углеводородларнинг таркиби;
- фазалар ҳажмининг нисбати.

Қудуқда юқоридаги омиллар унинг тубидан устигача тўхтовсиз алмашинади, шунинг учун тўпламларнинг миқдори ва характери доимий ҳисобланмайди.

АСПТ нинг ажралиш жойи қудуқларнинг иш режимига боғлиқ ҳолда турли чуқурликларда бўлиши мумкин. Тўпламларнинг ҳосил бўлишига имкон яратувчи шароитлар орасида босим ва ҳароратнинг пасайиши ҳамда нефтнинг газсизланишини айтиш мумкин. Маълумки, нефтнинг парафинларга нисбатан эриш қобилияти ҳароратнинг пасайиши ва нефтнинг газсизланиши билан камаяди. Бунда ҳарорат омили асосий роль ўйнайди. Иссиқлик узатиш жадаллиги маълум чуқурликдаги суюқлик ва атрофдаги жинсларнинг ҳароратига ҳамда кўтарилиш қувурлари ва ишлатиш тизмаси

орасидаги соҳанинг иссиқлик ўтказувчанлигига боғлиқ бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Рогачев М.К. Физико-химические методы совершенствования процессов добычи нефти в осложненных условиях. // Автореферат дис. канд. техн. наук, - Уфа.; 2002.
2. Персиянцев М.Н. Добыча нефти в осложненных условиях. ООО «Недра-Бизнесцентр», 2000
3. Чеников И.В. Химия и физика нефти (Равновесные структуры в нефти и нефтепродуктах): Учебное пособие/Кубан. гос. технол. ун-т. – Краснодар: Изд. КубГТУ, 2004. – 86 с.
4. Тронов В.П. Механизм образования смоло-парафиновых отложений и борьба с ними. – М.: Недра, 1970. – 192 с.
5. Горошко С.А. Влияние ингибиторов парафиноотложеней на эффективность транспорта газового конденсата месторождения «Прибрежное» // Автореферат дис. канд. техн. наук, - Краснодар.; 2003.
6. Сорокин С.А., Хавкин С.А. Особенности физико-химического механизма образования АСПО в скважинах // Бурение и нефть. 2007. №10. С. 30-31.

СПОСОБЫ УТИЛИЗАЦИИ ФАКЕЛЬНЫХ ГАЗОВ

Уринов У.К., Давронов П.А.

При добыче нефти выделяется попутный газ растворенный в нефти, являющийся побочным продуктом нефтедобычи просто сжигается на факелах. Попутный нефтяной газ обычно включает в качестве примесей соединения **H_2S, NO_2, CO_2, CH_4** и другие, которые при сгорании газа в промышленных или бытовых установках образуют ряд вредных и токсичных соединений, попадающих в атмосферу с газовыми выбросами и оказывающих негативное воздействие на окружающую среду.

В экологическом отношении газовые выбросы диоксида углерода и факельных газов способствуют усилению парникового эффекта и глобальному потеплению и затрачиваются ценные невозобновляемые ресурсы углеводородов.

В настоящее время в связи с ростом добычи и переработки полезных ископаемых (нефть, уголь) чрезвычайно актуальной становится проблема снижения вредных воздействий на геосферные оболочки от нефте-, угле-добывающих предприятий. Основным загрязнителем является метаносодержащий газ, который содержится в факельном газе. При сжигании образуются опасные выбросы, поступающие в атмосферу и содержащие некондиционные газовые смеси производственных процессов, углеводороды, сернистый газ, окислы азота, сажу и др. Кроме простого сжигания ПНГ в факельных установках существует ряд способов утилизации:


- каталитической утилизации газовых выбросов. В результате

вырабатывается водород или метан с концентрацией на выходе до 98%.

-переработка ПНГ в метанол путем каталитической конверсии с водяным паром.

Попутный нефтяной газ можно использовать для выработки электроэнергии для промысловых нужд, что является экономически вполне оправданным. При электрокрекинге из метана образуется ацетилен, при конверсии метана перегретым водяным паром или CO в присутствии катализаторов - смесь CO и H, применяющаяся во многих органических синтезах.

CO_2 +N_2 +CO



Технологическая схема утилизации сбросных газов на НПЗ

Методом безкаталитического прямого окисления метансодержащего, в том числе природного газа кислородом воздуха можно получить метанол, с выходом целевого продукта 600г./м^3 в расчете на 1 м^3 пропущенного метана.

Ниже приведена технологическая блок-схема утилизации сбросных газов на НПЗ. Установка состоит из следующих узлов: 1- блок подготовки газовой смеси; 2-реакционный блок; 3-блок выделения оксидата; 4-трубу ; 5-узел ректификации; 6-система экологической очистки.

Поступающие в блок подготовки готовой смеси сбросный газ и окружающий воздух компримируется до заданного давления и смешивается в пропорции, определяемой заданной концентрацией кислорода в смеси, после чего смесь с заданным расходом подается в реакционный блок 2. В реакционном блоке 2 исходная гаовая смесь разогревается до заданной температуры, после чего в газовой фазе происходит реакция образования метанола и побочных продуктов реакции. Реакция происходит с выделением тепла. Выделяемое тепло частично используется для разогрева исходной газовой смеси.

Из реакционного блока 2 прореагировавший (реакционный) газ,

содержащий метанол и побочные продукты реакции, поступает в блок выделения оксидата 3. Здесь газ охлаждается до заданной температуры и из него происходит выделение оксидата. Смесь углекислого газа, азота и окиси углерода (генераторный газ), оставщаяся после выделения жидких продуктов сбрасывается в атмосферу через трубу 4 (на факел). Оксидат из блока выделения оксидата 3 поступает в узел ректификации 5, где происходит выделение товарного (или технического) метанола.

Перспективен процесс каталитической утилизации газовых выбросов, предназначенный для переработки отходящих углеводородных газов (C_2 – C_6), сжигаемых на факелах. Процесс обеспечивает переработку газовых выбросов, содержащих вредные примеси кислорода, азота и сернистых соединений. В процессе переработки углеводородных газовых выбросов получают топливный газ (метан) или технический водород.

Литература

1. Технология использования сжатых газов: //Г.А. Бондаренко.- Сумы: СумГУ, 2011.- 275 с.

2. Смидович Е.В. Технология переработки нефти и газа. Ч. 2-я. Крекинг нефтяного сырья и переработка углеводородных газов. -М.: Химия, 1980.– 328с.

3. Справочник нефтехимика: в 2 томах/ под ред. С.К. Огородникова.–Л.: Химия, 1978.– Т.1.– 496с.

УГЛЕВОДОРОДЛАРНИНГ ПИРОЛИЗ ЖАРАЁНЛАРИДА СУЮҚ МАҲСУЛОТЛАРГА КОМПЛЕКС ИШЛОВ БЕРИШ.


Қ.Жонқобилов, У.Уринов

Углеводород хом-ашёсининг пиролизида ёки нотўлиқ ёнишида ҳосил бўладиган мақсадли маҳсулот бўлиб техник углерод ҳисобланиб, у механик, электрик ва оптик характеристикаларни ўзгартириш мақсадида эластомерлардан тўлдиргичлар сифатида фойдаланишни кўзда тутади. Қуйида углеводород хом-ашёсидан техник глерод ишлаб чиқариш саноат усуллари хусусиятлари келтирилган.

Термик усулда техуглерод ишлаб чиқариш

Углеводород хом-ашёсининг (хусусан табиий газнинг) пиролизида даврий ишлайдиган печь-реакторларда ҳаво кирмасдан техуглерод олиш усули термик усул деб айтилади [20, 21, 35]. Реактор вертикал печь бўлиб, ичкаридан футерланган ва оловга чидамли ғиштлардан насадка билан тўлдирилган бўлади. Жараённинг биринчи босқичи – насадкани 1300-1450°С гача қиздириш – табиий газнинг ҳавода ҳавонинг ортиқчалик коэффициенти воздуха у = 1,5-7 бўлиши билан амалга оширилади. Иккинчи босқич – углеводород хом-ашёси пиролизи – насадка каналларида ҳаво кирмасдан амалга оширилади. Пиролиз натижасида ҳосил бўладиган қурумли аэрозоль сув билан совитилади ва ушлаб қолиш системасига келади. 1.-расмда табиий газ пиролизида техуглерод Т-900 олиш схемаси келтирилган. Техуглерод Т-900 техуглероднинг кам фаол турларига мансуб бўлиб, кичик солиштирма сирт (10-6 $м^2/г$) ва структуралик йўқлиги билан характерланади. Техуглерод Т-900 резинотехник маҳсулотларни ишлаб чиқаришда тўлдиргич сифатида ва углеграфит материалларни олишда асос сифатида ишлатилади. Бунда хом-ашёнинг пиролизи ва насадкани кейинчалик иситиш учун интеграл сарфланадиган табиий газдаги углерод миқдорига ҳисобланган маҳсулотнинг кичик чиқишини (20-22 масс.%) таъкидлаб ўтиш лозим.

1.-расм. Табиий газ пиролизида техник углерод ишлаб чиқариш схемаси




АҚШ да ўтган асрнинг 70-йилларигача ҳам пиролизнинг чиқувчи газлари (асосан водород) билан суюлтирилган табиий газ пиролизидан

техуглерод олинган бўлиб, натижада дисперс маҳсулотнинг солиштирма сирти 30-35 м^2/г гача етган [36]. Ҳозирги вақтда дунёда техуглерод Т-900 га бўлган талаб катта эмас. Техуглерод Т-900 сотилиши истиқболлари алоҳида тозалик билан фарқланадиган янги турдаги углерод материаллари ишлаб чиқарилиши билан боғлиқдир [37].

Диффузион машъалда техуглерод олиниши

Табиий газнинг диффузион ёнишида юқори дисперс (солиштирма сирт 100-200 м^2/г) техуглерод ишлаб чиқарилиши АҚШ да ўтган асрнинг ўрталарида ишлаб чиқилган [20, 21, 35]. Техуглерод К-354 ишлаб чиқариш принципиал схемаси 1.4-жадвалда келтирилган.

2-расм. Табиий газнинг диффузион ёнишида техуглерод ишлаб чиқарилиши схемаси



Табиий газ ёниш камералари ёндириш қурилмаларига узатилиб, у ерда ~1 мм эндаги пирофилит горелкалар ўрнатилган. Табиий газнинг диффузион ёниши учун ҳаво фундамент ва камеранинг пастки қисми орқали камерага келиб тушиб, у ерда қурум ҳосил бўлади. Табиий газ ва ҳаво диффузия натижасида аралашади, ёниш фронти эса газ ва ҳаво орасидаги чегарадан иборат бўлади. Кислород метан ёниши фронтида истеъмол қилинади, натижада углеводородлар пиролизи ва қурум заррачалари ҳосил бўлиши учун етарли бўлган юқори ҳарорат пайдо бўлади.

Диффузион алангада ҳосил бўлган дисперс углерод камера бўйлаб ҳаракатланадиган швеллер балкалардан иборат платформада чўкади, бункерларга тушади ва ташқи аралашмалардан тозалаш учун келиб тушади. Ёниш маҳсулотлари камера томида жойлашган тутун чиқариш жойларидан чиқиб кетади.


Юқори дисперс техуглерод ишлаб чиқаришнинг мазкур усули

маҳсулот чиқишининг кичик чиқиши ва экологик ёқимсизлиги билан характерланади. Табиий газда мавжуд углероднинг техуглеродга айланиши даражаси 3-4 масс.% ни ташкил қилади, атмосферага эса 1 т техуглерод учун 1млн. $м^3$ тутун газлари (таркиби - ҳажм.%: N2 - 80; O_2- 15-17; $C0_2$ – 2-3; CO - 0,1-0,5) чиқади. Заводда йилилк ~2 минг т техуглерод К-354 ишлаб чиқаришда 100 млн. $м^3$ табиий газ сарфланади.% техуглерод ишлаб чиқарилади.

Техуглерод К-354 уникал хоссалари биринчи навбатда юқори дисперслик ва структуравийликнинг паст кўрсаткичи билан белгиланиб, бу унинг ўта мустаҳкам резинатехник маҳсулотлар (авиацион шиналар), қуёш нурларига чидамли лак-бўёқ материаллар ишлаб чиқаришда, шунингдек полиграфия ва парфюмерияда ишлатилишини изоҳлайди. Дунёнинг ривожланган мамлакатларида (АҚШ, Германия, Япония) солиштирма сирти 110 м /г дан ошадиган, ва полиграфия ва автомобиль лаклари ишлаб чиқарилишида ишлатиладиган дисперс техуглерод юқори ароматик суюқ хом-ашё (нефтни қайта ишлаш ва кокс кимёси қолдиқ фракциялари) диффузион ёниишидан олинади. Техуглерод чиқиши 10 масс.% дан ошмайди [1, 16]. Мазкур технологияда маҳсулот чиқишини ошириб бўлмайди, чунки чиқиш ошиши билан техуглерод солиштирма сирти пасаяди.

Печь жараёни билан техуглерод ишлаб чиқариш

Турли маркадаги техуглерод ишлаб чиқаришнинг асосий усули бўлиб печь жараёни ҳисобланиб, у ёрдамида дунёдаги 90% техуглерод ишлаб чиқарилади. Жараённинг принципиал схемаси 3-расмда келтирилган. Схемага мувофиқ, техуглерод углеводород хом-ашёсининг нотўлиқ ёнишидан ҳосил қилинади. Хусусан, ГҚИЗ да пеь усулида табиий газнинг 1200-1250 °С да нотўлиқ ёниши натижасида ҳосил бўладиган техуглерод П701 ишлаб чиқарилади.



3-расм. Углеводород хом-ашёсининг нотўлиқ ёнишидан техуглерод ишлаб чиқариш схемаси

Печь техуглероди сифат кўрсаткичлари аввало жараён технологияси (реактордаги ҳарорат, иссиқ зонадаги қурум аэрозоли туриш вақти), хом-ашё композицияси углеводород таркиби, унинг физик-кимёвий характеристикалари, шу жумладан коллоид ва реологик хоссалари билан

аниқланади. Углеводород хом-ашёси сифатида одатда конденсатланган ароматик бирикмаларни сақлаган нефть кимёси ва кокс кимёси саноатлари дистиллят фракциялари ишлатилади. Жараён шундай олиб бориладики, бутун технологик цикл максимал самарадорлигини ва чиқиндилар бўйича экологик талабларни амалга оширган ҳолда зарурий сифатдаги (аввало дисперслик ва структуравийлик кўрсаткичлари бўйича) дисперс маҳсулот олинсин.

Углеводород хом-ашёсининг нотўлиқ ёнишидан > 110 $м^2/г$ солиштирма сиртга эга юқори дисперс техуглерод ишлаб чиқариш мавжуд усулларининг умумий хуусияти бўлиб маҳсулотнинг нисбатан кам чиқиши ҳисобланади. Хусусан, табиий газда мавжуд углероднинг диффузион ёниш шароитларида қурумга айланиш даражаси 4 масс.% дан ошмайди (юқори дисперс техуглерод ишлаб чиқариш канал усули). [53].

Таклиф қилинадиган жараённинг технологик схемаси табиий газнинг ҳавода ёниши маҳсулотларида юқори ароматик углеводород хом-ашёси пиролизи натижасида олинадиган печь дисперс техуглерод олиш (1.5-расм) схемасидан фарқ қилмайди. Углеводород хом-ашёси сифатида юқори конденсатланган ароматик бирикмаларни сақлаган нефть кимёси ва кокс кимёси жараёнларининг дистиллят фракциялари ишлатилади. Одатда жараён 1600-1650 °С ҳароратда олиб борилади, бунда техуглерод чиқиши талаб қилинган солиштирма сирт катталигидан (110-100 $м^2/г$) боғлиқ равишда 55 дан 65 масс.% гача ўзгариб туради.

Юқори дисперс техуглерод олиш таклиф қилинадиган жараёнининг принципиал ўзига хосликлари бўлиб хом-ашёни тайёрлаш ва уни реакторга узатиш усули ҳисобланади. Анъанавий печь жараёнидан фарқли равишда юқори дисперс техуглерод юқори ароматик углеводород хом-ашёси бутун фракциясининг эмас, балки бу хом-ашёдан дастлаб ишқорий тозалаб олинган тор фракциялар (қайнаш чегаралари 10-15 °С) нотўлиқ ёнишидан олиниб, бунда ушбу тор фракциялар реакторга алоҳида узатилади, масалан аввал 294-309 °С атрофида қайнаб чиқадиган қайнаш чегараси 15 °С бўлган тор фракция, кейин 309-321 °С атрофида қайнаб чиқадиган қайнаш чегараси 12 °С бўлган тор фракция ва ҳок. Киритиладиган углеводород хом-ашёсининг (фракциянинг) кичик қисми ҳавонинг ортиқча ҳажмида ёниб кетади, қолган углеводород эса дисперс углерод ҳосил бўлиши билан пиролизланади. Тор фракцияларни тайёрлаш усули – сув буғи билан анъанавий ректификация. Кокс кимёси табиатли юқори ароматик хом-ашё изотермик пиролизида 1200 °С да қурум ҳосил бўлиб, унинг солиштирма сирти кокс кимёси хом-ашёсида мавжуд индивидуал углеводородлар, хусусан нафталин, антрацен ва пирендан олинган қурум солиштирма сиртидан сезиларли (3 мартагача) кичик бўлади. Бу фарқлик бир турдаги углеводородлардан қурум заррачалари куртакларининг углеводород аралашмасининг бошқа компонентлари орқали ингибиторланиши билан изоҳланади. Таклиф қилинаётган усулнинг кенг фракцияли углеводород хом-ашёси нотўлиқ ёнишида ҳосил бўладиган юқори дисперс техуглероднинг анъанавий олиниш усулига нисбатан самарадорлиги қўйидагилардан иборат:

- табиий газнинг ёқилғи сифатида тежаиши. Хусусан, суюқ хом-ашё бўйича

~30 минг т/йил унумдорликдаги одатий қурилма учун табиий газнинг йиллик тежалиш миқдори 2,5-3,0 млн.$м^3$ ни ташкил қилиши мумкин;
- юқори дисперс техуглерод чиқиши ошиши;
- арзонроқ оловга чидамли материаллар ишлатилиш имконияти.

Таъкидлаб ўтиш лозимки, экологик тоза мотор ёқилғилар талабини қондириш истиқболда нефть маҳсулотларини олтингугурт ва ароматик компонентларни сақламаган газ кимёси маҳсулотлари билан компаундлашсиз бажариб бўлмайди. Табиий газларни кимёвий қайта ишлаш натижасида олинадиган маҳсулот ҳам ички, ҳам ташқи бозорга узатилиши мумкин.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. В.Н.Эрих. Химия нефти и газа, Л.: Химия, 1969, 87-93 с., 214-220 с.
2. А.Г Сарданашивили, А.И Львова «Примеры и задачи по технологии переработки нефти и газа.
3. Справочник нефтехимика. Т2 Г.В.Дроззов Ю.К.Кузнецов. Ю.М. Левин и др.Изд. “Химия” : Л-1978 й.
4. М.Г. Рудин : “Карманный справочник нефтепереработчика” “Химия” : Л-1978 й.
5. Машина и аппараты химических производств. И.И. Поникаров и др. М. Машиностроение , 1989.
6. Салимов З, Туйчиев И. Химиявий технология процесслари ва аппаратлари. Т.: Укитувчи.
7. М.Г.Рудин, Е.Драбкин. Краткий справочник нефтепереработчика.Л: Химия 1980.

ГАЗЛАРНИ ТОЗАЛАШНИНГ АБСОРБЦИОН-ДЕСОРБЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ИШЛАБ ЧИҚИШ

П.Давронов, М.Эшмухаммедов, У.Уринов

Аннотация

Газларни абсорбцион тозалаш жараёнида абсорбентлар ва газлар таркибидаги нордон компонентларнинг кимёвий таъсирида абсорбентларнинг ҳамда қурилмаларнинг ишдан чиқиши холатларини олдини олиш мақсадида технологик қурилмаларининг кўп вақт ишлатилишини таъминловчи янги абсорбцион-десорбцион технологияларни ишлаб чиқиш муаммолари тадқиқ этилган.

Калит сўзлар: абсорбция-десорбция, нордон газлар, шудринг нуқтаси, сиқилиш коэффициенти, коррозия ингибиторлари, инет газ.

Табиий газ ва нефть билан чиқадиган йўлдош газлар таркибида углерод (II) оксиди ва водород сульфиди сақлангани учун нордон газлар дейилади. Бу газлар таркибида бундан ташқари сероуглерод (CS_2), сероокись углерод (COS), меркаптанлар RHS бўлади. Табиий газдан ажратиб олинган суюқ компонентлар таркибида сулфид RSR, дисульфид RSSR бўлади. Олтингугуртли бирикмалар заҳарли моддалар қазиб олишда, транспортировка қилишда ва газни қайта ишлашни қийинлаштиради.

Бу тушунчалар табиий газни ёки табиий газда олтингугуртли компонентларни ва адсорбентларни регенерация қилингандан сўнг олинадиган газларнинг таркиби билан боғлиқ. Бунда регенерация газларидан олтингугурт ишлаб чиқариш иқтисодий томондан мақсадга мувофиқ эканлиги ҳисобга олинади. Жуда оз олтингугуртли газларга таркибида H_2S ва меркаптанларнинг миқдори 20-36 мг/м^3 бўлган газлар киради. Бу газлар H_2S дан тозаланмайди. Магистрал трубопроводларга беришдан олдин сув бўйича шудринг нуқтаси ва углеводороднинг миқдори бўйича стандартга мослаштирилади.

Бундай табиий газларни тозалашдан мақсад таркибидаги H_2S ни, H_2O углеводородларни стандартга мослаштириш. Бу газларни тозалашда CO_2 ни чуқур тозалаш мақсад қилиб қўйилмайди. Агарда гелий ажратиб олинадиган бўлса, CO_2 тўлиқ тозаланиши керак. Тозаланмаса -72^{0}C да қуруқ муз ҳосил бўлади ва трубаларда тиқилиб қолади.

Олтингугуртли газлар – бу газларни қайта ишлаш вақтида ҳосил бўлган регенерация газидан олтингугуртни ажратиб олиш мақсадга мувофиқ деб ҳисобланган газларга айтилади

Водород сульфидни ва CO_2 ни концентрацияси ошиши гидрат ҳосил бўлиш ҳароратини кўтаради ва сиқилиш коэффициентини пасайтиради.

Водород сульфид ва углерод икки оксидни бўлиши табиий газни сувда ва реагентларда эрувчанлигини кўпайтиради, чунки H_2S ва CO_2 ни бу моддаларда эрувчанлиги углеводородларга нисбатан юқори.

Бошқа олтингугуртли бирикмалар COS, CS_2 R-SH, R-S-R, R-S-S-R гидрат ҳосил бўлиш ҳароратига, намликни ютишига, сиқилиш

коэффициентига ва коррозия қилиш қобилиятига деярли таъсир кўрсатмайди. Лекин гидрат ҳосил қилиш ингибиторларини, абсорбентларини ва уни регенерация қилиш хусусиятига таъсир кўрсатади.

Суюқликлар қўлланиладиган жараёнларни шартли равишда қуйидаги гуруҳларга бўлиш мумкин:

1. Хемосорбция жараёнлари – бу жараёнлар H_2S ва CO_2 ни абсорбентнинг актив қисми билан кимёвий таъсир этишга асосланган. Бу жараёнларнинг кенг тарқалган реагентлари аминлар ва ишқорлардир.
2. Абсорбция жараёнлари – бу жараёнлар газ таркибидаги нордон компонентларни абсорбентларда эришига асосланган. Абсорбентлар сифатида N – метилпирролидон, гликоллар, пропиленкарбинат, трибутилфосфат, метанол ва ҳоказо қўлланилади. Бу жараёнларни афзаллиги – кўп миқдордаги нордон компонентларни қайта ишлаганда билинади, чунки абсорбентларни ютиш қобилияти газдаги нордон компонентларнинг порциал босимига тўғри пропорционалдир.
3. Комбинацияланган жараёнлар – бу жараёнларда бир вақтнинг ўзида химик ва физик ютувчилар қўлланилади. Бу жараёнлар ичида энг кўп тарқалган сульфинол жараёнидир. Бу жараёнда ютувчи сифатида сульфолан қўлланилади. Тетрагидротиофен диоксиди ва бирорта кимёвий ютувчи қўйиб ишлатилади. Кимёвий ютувчи сифатида аминлар қўлланилади, биринчи навбатда диизопропаноламин (ДИПА).

Барча қўлланиладиган усулларда нордон компонентларни ютувчилар қуйидаги талабларга жавоб бериши керак: селектив бўлиши, кимёвий ва термик барқарорлиги, парларини босими паст ва коррозияси паст даражада бўлишлиги, юқори ютиш қобилиятлилиги, углеводородларга нисбатан кимёвий инертлилиги, арзон бўлиши ва камёб бўлмаслиги, кам заҳарли бўлиши керак.

Табиий газни H_2S, COS, CS_2, RSH лардан тозалашда ютувчини тўғри танлаб олиш асосий вазифадир. Ютувчини тўғри танлаб олиш товар газ сифатини оширишдан ташқари қурилмаларни энергия ва металлар сарфини камайтиради, ҳамда газни қайта ишлаш корхоналарида атроф-муҳитни муҳофаза қилишга ёрдам беради.


Оддий шароитда ДГА ва МДЭА дан ташқари барча тўртта аминлар қаттиқ моддалардир. Аминларга сув қўшилса уларни қовушқоқлиги пасаяди, эритмани қайнаш ҳарорати ҳам пасаяди ва жараён нисбатан паст ҳароратда олиб борилади.

Газларни H_2S ва CO_2 дан тозалаш қуйидаги хусусиятларга асосланган. H_2S ва CO_2 сувда эриганда дисоцияланиб кучсиз кислота ҳосил қилади. Аминлар эса кучсиз асосдир. Аминлар нордон газлар билан реакцияга киришганда тузлар ҳосил бўлади ва шунинг ҳисобига газлар тозаланади. Ҳосил бўлган тузлар юқори ҳароратда тез парчаланиб кетади. Моноэтаноламин учун бу реакциялар қуйидаги тенгламалар билан тушунтирилади:

$$2RNH_2 + H_2S \leftrightarrow (RNH_3)_2S$$
$$(RNH_3)_2S + H_2S \leftrightarrow 2RNH_2HS$$

$2RNH_2 + H_2S \leftrightarrow (RNH_3)_2S$
$(RNH_3)_2S + H_2S \leftrightarrow 2RNH_2HS$
$2RNH_2 + CO_2 \leftrightarrow (RNH_3)_2CO_3$
$(RNH_3)_2CO_3 + CO_2 + H_2O \leftrightarrow 2RNH_3HCO_3$
$2RNH_2 + CO_2 \leftrightarrow 2RNHCOONH_3R$

Абсорбцион жараёнларда абсорбентларга ютилган газларни десорбциялаш усулида ажратиш мақсадида десорбция жараёни олиб борилади. Ишлатилган абсорбентни эса кейинги ишлатиш учун уни регенерациялаб абсорбциялгна газларни чиқариб олиш мухимдир. Десорбцияни эса регенерацияланаётган абсорбент ва десорбцияланаётган агентларнинг (одатда сув буғи билан) қарама-қарши оқимда, абсорбентни қиздириш усулида (ҳарорат ошиши билан газни эрувчанлиги камайиши ҳисобига), босимни пасайтириш билан ҳамда кўп холларда ушбу усулларни биргаликда қўшиб олиб бориш билан амалга оширилади.



Десорбция жараёнининг ишчи диаграммаси: *а*-қайноқ буғ ёки қизиган инерт газни қарама-қарши оқими билан; б–босимни босқичма-босқич пасайтириш билан.

Агар десорбциялнувчи компонент инерт бўлиб ажралаётган газнинг миқдори нисбатан кам бўлса, десорбция жраёни изотермик деб ҳисоблаш мумкин. Газ кўп миқдорларда чиқишида адиабатик шароитларда унда эриган компонентларнинг газ ҳолатига ўтиши натижасида абсорбент совиши мумкин. Агар регенерацияланувчи абсорбентни аввалдан қайнаш ҳароратигача иситиб олиб уни қуруқ сув буғи билан десорбциялаш олиб борилса, жараён изотермик кетади. Жараённинг ишчи диаграммаси эса инет газ билан десорбциялаш каби тузилади, лекин мувозанат чизиғи абсорбентнинг қайнаш ҳароратига мос равишда юқорида ҳосил бўлади. Буғнинг иссиқлиги десорбцияланиш иссиқлигини компенсациялашга сарфланади, агар абсорбент учувчан бўлса унинг буғланишига сарфланади. Қуруқ сув буғи билан десорбциялаш ишчи ҳароратнинг юқори бўлиши ҳисобига тез кетади, лекин сув буғининг кўп сарфланишига олиб келади.

Десорбциялашнинг содда усули босимни пасайтиришдир. Бунда суюқликда газларнинг эрувчанлиги камаяди. Агар абсорбер атмосфера босимида ишлаётган бўлса абсорбентни вакуумланувчи мухитига бериш керак бўлади. Бу ердан эса чиқаётган газарни ва регенрацияланаётган абсорбентни чиқариб олиб туриш керак бўлади.

Инерт газлар ва қизиган буғларнинг қарама-қарши оқими билан десорбция жараёнларини амалга ошириш учун абсорбция жараёнидаги апратлар ишлатилади. Десорбциялашда босимни босқичма-босқич пасайтирилишида десорбцияланаётган газ аралашмасининг ажралишини маълум даражасига эришиш мумкин, чунки кам эрувчан компонентлар юқорироқ босимларда ажралиши мумкин.

Газларни абсорбцион тозалаш жараёнида абсорбентлар ва газлар таркибидаги нордон компонентларнинг кимёвий таъсирида абсорбентларнинг ҳамда қурилмаларнинг ишдан чиқиши холатларини олдини олиш мақсадида технологик қурилмаларининг кўп вақт ишлатилишини таъминловчи янги абсорбцион-десорбцион технологияларни ишлаб чиқиш ҳозирги вақтда мухим вазифа бўлиб қолмоқда.

Адабиётлар

1. Репер М. В. Катализ в $C_г$- химии. Под ред. В. Кайма. Л.: Химия, 1987, 296с.

2. Елисеев О. Л. Синтез углеводородов из CO и H_2: учебное пособие. - М.: Издательский центр РГУ нефти и газа (НИУ) им. И. М. Губкина, 2017. - 7о с.

3. Кузнецов А. М. Индустрия GTL: состояние и перспективы. - М.: Научно-технический вестник ПАО «Роснефть», 2013. - 49 с.

4. Лапидус А. Л., Жагфаров Ф. Г. Газохимия на современном этапе развития. - М.: Издательский центр РГУ нефти и газа (НиУ) им. И. М. Губкина, 2015. - 172 с.

5. Лапидус А. Л., Крылов И. Ф., Емельянов В. Е. Альтернативные моторные топлива. - М., 2008. - 231 с.

6. Телегина Е.А., Халова Г.О. Мировая экономика и энергетика на переломе: поиски альтернативной модели развития // Мировая экономика и международные отношения. 2020. Т. 64. № 3. С. 5-11

АНАЛИЗ СИСТЕМЫ ПРОДОВОЛЬСТВЕННОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ ОБЩЕВОЙСКОВЫХ ОБЪЕДИНЕНИЙ В ОСОБЫЙ ПЕРИОД (СОВРЕМЕННЫЙ ЭТАП, ВОЕННОЕ ВРЕМЯ)

МИНИСТЕРСТВО ОБОРОНЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
УНИВЕРСИТЕТ ВОЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ И ОБОРОНЫ
КАФЕДРА МАТЕРИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ
Автор: Хамидов Одил Иркинович, полковник

Понятие, задачи и структура системы продовольственного обеспечения.

Продовольственное обеспечение является важнейшим элементом системы материально-технического обеспечения Вооружённых Сил и представляет собой комплекс мероприятий, направленных на своевременное и качественное снабжение личного состава продовольствием.

В современных условиях значимость продовольственного обеспечения существенно возрастает вследствие высокой динамичности боевых действий и усложнения логистических процессов.

Система продовольственного обеспечения включает планирование, закупку, хранение, транспортировку и распределение продовольствия.

Основные задачи системы: обеспечение норм питания; бесперебойное снабжение; минимизация потерь; создание резервов; повышение адаптивности системы.

Исторический аспект развития системы. Исторически система продовольственного обеспечения прошла путь от децентрализованного снабжения к централизованным логистическим системам. Современный этап характеризуется цифровизацией и внедрением автоматизированных систем управления.

Современные нормативы и правовое обеспечение. Система функционирует на основе нормативно-правовых актов, стандартов и санитарных требований.

Рацион питания формируется с учётом: энергетических затрат; климатических условий; специфики службы. ГОСТы и санитарные нормы обеспечивают безопасность и качество продуктов.

